

Z. T. NISHANOVA

# PSIXOLOGIK XIZMAT



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**Z. T. NISHANOVA**

# **PSIXOLOGIK XIZMAT**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi  
Oliy o‘quv yurtlari pedagogika-psixologiya  
bakalavriyat yo‘nalishi talabalari uchun  
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etgan



**TOSHKENT**  
**«YANGIYUL POLIGRAPH SERVICE»**

2007

**Nishanova, Zamira Taskarayevna.**

Psixologik xizmat: Oliy o'quv yurtlari pedagogik-psixologiya bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'l. / Z.T. Nishanova; O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Yangiyul poligraph service, 2007.—160 b.

O'quv qo'llanma maktab, litsey, kollejlarda amaliyotchi psixolog bo'lib ishlayotgan mutaxassislarga hamda psixologiya ta'lim yo'nalishi bakalavrlariga mo'ljallangan. Shu bilan birga qo'llanmani psixolog nimalarni qila olishi mumkinligini bilishga qiziqayotgan va psixolog bilan ishlashda qanday muammolarga duch kelishini tushunishni istagan o'qituvchilar va maktab ma'muriyatiga ham tavsiya etish mumkin. Qo'llanma maktab psixologiga murojaat qilgan yoki murojaat qilishni rejalashtirayotgan ota-onalarga hamda amaliy psixologiya kabi murakkab va qiziqarli kasbga mehr qo'ygan barcha kitobxonlarni qiziqtiradi, degan umiddamiz.

**BBK 88 ya73**

**Taqrizchilar: E.G'. G'oziyev** — O'zbekiston Milliy Universiteti psixologiya kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari doktori, professor.

**S. Jalilova** — TDPU amaliy psixologiya kafedrasini mudiri, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*O'quv qo'llanma haqida fikr-mulohazalaringizni quyidagi manzilga yuborsangiz: Toshkent, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy. Nizomiy nomidagi TDPU, Pedagogika-psixologiya fakulteti, psixologiya kafedrasini.*

*O'zbekiston psixologiya fanining otasi, ustozim Muhammad Galimovich Davletshinning tavallud ayyomlariga hamda psixologiya alifbosini o'rgatgan ustozim Robert Valiyevich Galyamovning porloq xotirasiga bag'ishlayman.*

## **I BOB. PSIXOLOGIK XIZMAT PREDMETI**

### **1.1. Psixologik xizmatning rivojlanish tarixi**

Psixologik xizmat AQSHda 1800 yillardan boshlab rivojlana boshladi. AQSHning birinchi amaliyotchi psixologlari o'zini-o'zi tarbiyalash muammosini o'rgangan eksperimental psixologlar edilar. Amerika maktablarida aqliy taraqqiyot koeffitsentini aniqlash keng tarqalib, keyinchalik «Gaydens» xizmatining rivojlanishiga turtki bo'ldi.

Fransuz maktab psixologiyasining otasi Alfred Bine bo'lib, u bu sohada 1894- yildan boshlab ish boshlagan. 1905- yilda Fransiya ta'lim vazirligi Binega umumiy dastur bo'yicha o'qiy olmaydigan bolalarni tekshirish muammosi bilan murojaat qiladi va shu tariqa aqliy taraqqiyotda orqada qolgan bolalarni o'rganadigan Bine-Simon testi yaratildi.

1909- yilda Fransiyada maktab psixologik xizmati tashkil etiladi. 1970- yilda Fransiyada psixologik-pedagogik yordam guruhlari psixologik xizmatning asosiy turini tashkil etadi. Bunday guruhlar maktab psixologiyasi, ta'lim psixologiyasi va psixomotor rivojlanish bo'yicha bittadan mutaxassisni o'z ichiga oladi. Guruh 800 — 1000 o'quvchiga xizmat qiladi, bir maktabda joylashib, bir necha maktabga xizmat qilishi mumkin.

1985- yilda Fransiya pedagogik psixologlarining funksiyalari aniqlab berildi. Pedagogik psixolog shaxsning har tomonlama rivojlanishi uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni qilishi kerak, bunda u bu ishlarga o'qituvchilarni va ota-onalarni ham jalb etishi mumkin. Pedagogik psixolog o'z ishida lozim topsa, maktab va oila tarbiyasiga qarshi chiqishi mumkin, deb maxsus ta'kidlangan.

Ko'pchilik Sharqiy Yevropa mamlakatlarida maktab psixologik xizmati tuman yoki viloyat psixologik-pedagogik markazlari shaklida tashkil etilgan. Masalan, 1980- yilda Chexoslovakiyada tarbiya masalalari bo'yicha modda maktab to'g'risidagi qonunga kiritildi. Psixologik xizmatning asosiy mazmuni — sog'lom shaxsning o'sishini ta'minlash, shaxs rivojlanishidagi turli qiyinchiliklarni korreksiya qilish (tuzatish), kasb tanlash muammolarini o'rganish va hal qilishga turtki berishdir.

Chexoslovakiyadagi psixolog maslahatchining asosiy vazifasi psixodiagnostik faoliyatdan iboratdir.

Sobiq sovet psixologiyasida bolalar tarbiyasi va ta'limida psixologiyadan foydalanish borasida urinishlar pedologiya doirasida vujudga keldi. Pedologiya rivojlanayotgan va o'sayotgan shaxsning barcha biologik va ijtimoiy xususiyatlarini qamrab oluvchi fandır. 1936- yilda pedologik qarashlarni to'xtatish haqida qaror qabul qilindi, shu bilan birga rus psixologlari amalga oshirayotgan bola psixologiyasidagi ijobiy izlanishlar ham to'xtab qoldi. Faqat 1960- yillarning oxiriga kelib, psixologlarning maktab ishida amaliy ishtirok etishi qayta tiklandi.

1984- yilda Moskvada "Psixologik xizmat muammolari bo'yicha I umumittifoq anjumani bo'lib o'tdi. Anjumanda maktabda psixologik xizmat seksiyasi ham ish olib bordi.

Sobiq Ittifoqda birinchi bo'lib Estoniyada 1975- yilda maktabda psixologik xizmat tashkil etildi. Eston psixologlari «tarbiyasi qiyin» o'smirlar uchun maxsus maktablarda ish olib bordilar. Rossiyada 1982- yilda maktablarda psixolog shtati ochildi. Iqtidorli olim I.V.Dubrovina psixologik xizmatning rivojlanishiga ulkan ulush qo'shgan, u ushbu mavzuda doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan va bir qancha asarlar muallifi hisoblanadi.

1989- yilda O'zbekistonda amaliyotchi psixologlarning yetishmayotganligi sababli Nizomiy nomli TDPUDA amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakulteti ochildi.

O'zbekistonda psixologik xizmatning rivojlanishida olimlardan M.G.Davletshin, E.G'. G'oziyev, B.R. Qodirov,

G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, Sh.R.Baratov, E.N.Sattarov, F.S. Ismagilova, N.S. Safoyev, F.I.Haydarov, S.X.Jalilova va boshqalar katta hissa qo'shganlar. 1998- yilda Sh.R.Baratov «Ta'lim tizimida va ishlab chiqarishda psixologik xizmatni tashkil etishning psixologik xususiyatlari» mavzusida doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan.

Psixologik xizmatni 3 nuqtayi nazardan qarab chiqish mumkin: 1. Ilmiy nuqtayi nazar. 2. Tashviqot nuqtayi nazar. 3. Amaliy nuqtayi nazar.

Faqat mana shu nuqtayi nazarlarning birligigina **psixologik xizmat predmetini** tashkil etadi.

Ilmiy nuqtayi nazar psixologik xizmatning metodologik muammolarini ishlab chiqishni nazarda tutadi. Bu yo'nalish ijrochilarining asosiy vazifasi maktab psixologik xizmatida ishning psixodiagnostik, psixokorreksiya va rivojlantiruvchi metodlarini ishlab chiqish va nazariy asoslashga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishdan iborat.

Tashviqot nuqtayi nazari xalq ta'limi xodimlarining psixologik bilimlardan foydalanishini nazarda tutadi. Bu yo'nalishda pedagoglar, metodistlar va didaktlar asosiy harakatlantiruvchi shaxslar bo'lib maydonga chiqadi.

Xizmatning amaliy nuqtayi nazarini maktab psixologlari amalga oshiradilar, ularning vazifasi — u yoki bu aniq vazifani hal qilish uchun ota-onalar, o'qituvchilar, sinf jamoasi, bolalar bilan ish olib borishdan iborat.

Hozirgi bosqichda psixologik xizmat faoliyatining 2 yo'nalishi: **dolzarb** va **kelajak** yo'nalishlari mavjud. Dolzarb yo'nalish o'quvchilar ta'lim-tarbiyasidagi qiyinchiliklar, ular xulq-atvoridagi, muloqotdagi va shaxsi shakllanishidagi muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Kelajak yo'nalishi har bir bola individualligini rivojlantirishga, jamiyatda yaratuvchanlik hayotiga psixologik tayyorlikni shakllantirishga qaratilgan. Psixolog pedagogik jamoa faoliyatiga har bir o'quvchi shaxsi garmonik rivojlanish imkoniyatlari haqida asosiy psixologik g'oyani olib kiradi. Ikki yo'nalish ham bir-biri bilan bog'liq.

## 1.2. Psixologik xizmat haqida Nizom

Kollejlar va akademik litseylardagi psixologik xizmat o'rtta maxsus ta'limining zaruriy tarkibiy qismidir. Bu xizmatning zaruriyligi kollej va akademik litsey ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Har bir o'quvchida hayotga ijodiy munosabat va individual xususiyatlarning taraqqiyoti ta'minlaganligini psixologik xizmat to'g'ri tashkil etilgan deyish mumkin.

Psixolog o'zining inson xulq-atvori va ruhiy faoliyati, ruhiy taraqqiyotning yosh qonuniyatlari haqidagi kasbiy bilimlariga, ularning o'quvchilar va kattalar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabat xususiyatlariga, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishga bog'liqligiga tayanib, bolaga individual yondashuv imkoniyatlarini ta'minlaydi, uning qobiliyatlarini aniqlaydi, normadan chetlashishlarning bo'lishi mumkin bo'lgan sabablarini psixologik-pedagogik korreksiya qilish yo'llarini aniqlaydi. Bu bilan psixologik xizmat maktabda o'quv tarbiya ishining mahsuldorligini oshirishga, ijodiy faol shaxsni shakllantirishga imkon beradi.

### **Psixologik xizmat uch asosiy bo'g'indan tuzilgan:**

— aniq o'quv muassasasida ishlaydigan bolalar amaliy psixologi;

— tuman xalq ta'limi qoshidagi tashxis markazi psixologi;

— respublika kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi psixologi.

Psixologik xizmat xodimlari barcha muammolarni hal qilishda, bolani har tomonlama va garmonik rivojlanish vazifalariga va uning qiziqishlariga tayanadilar. Amaliyotchi psixolog o'z faoliyatini pedagogik jamoa va ota-onalar bilan yaqin aloqada amalga oshiradilar. Psixologik xizmat o'z faoliyatida tibbiy, defektologik va boshqa xizmat turlari bilan, bola tarbiyasida yordam ko'rsatuvchi jamoatchilik xodimlari bilan yaqindan ish olib boradi. Barcha mutaxassislar bilan munosabat tenglik asosida va fikrlarning bir-birini o'zaro to'ldirishi asosida quriladi.

O'rtta maxsus, kasb-hunar tizimidagi psixologik xizmatning maqsadi — shaxsning har tomonlama garmonik kamoloti,

to'laqonli psixologik taraqqiyotni ta'minlovchi qulay shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Psixologik xizmatda tadqiqot va ta'sir o'tkazish obyekti bo'lib, maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, maxsus o'quv yurti va oliy maktab, kollej talabalari, o'quvchilar, ota-onalar hisoblanadi, ularni alohida yoki guruhshaklda tatqiq qilish mumkin.

### **Psixologik xizmatning mazmuni:**

- a) psixoprofilaktika;
- b) psixologik maorif va ma'rifat;
- d) psixodiagnostika;
- c) psixik rivojlanitirish va psixokorreksiya;
- f) psixologik maslahat.

Psixologik xizmat haqida Nizom 1996- yili Xalq ta'limi Vaziri tomonidan tasdiqlangan. 2001- yilda bu Nizomga o'zgartirish kiritildi.

Psixologik xizmat metodlari turli tuman bo'lishi mumkin:

a) xalq ta'limi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi xodimlari, o'quvchilar, talabalar bilan ma'ruzalar turkumi va trening mashg'ulotlari o'tkazish va aholining psixologik madaniyatini o'stirish maqsadida; b) ilmiy ommabop adabiyotlarni yaratish va ularni tarqatish; d) ommaviy axborot vositalarida chiqishlar; e) psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish, metodikalar ishlab chiqish (test savol varaqasi, tajriba, kuzatish, suhbat va boshqalar); f) psixologik maslahat berish; g) psixologik konsiliumlar o'tkazish; h) ta'lim va tarbiya beruvchi dasturlardan foydalanib psixodrama, psixokorreksion treninglarni amalga oshirish; i) psixologik tadqiqot obyektining psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv dasturi, o'quv tarbiya rejalarini tahlil qilish va hokazolar.

**Psixologik xizmat haqidagi Nizom 6 bo'limdan iborat. Ular:**

1. Umumiy qoidalar.
2. Psixoprofilaktik ishlar.
3. Psixodiagnostik ishlar
4. Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar.
5. Psixolog maslahati.
6. Psixologik xizmat xodimlarining mas'uliyati.



Umumiy qoidalar quyidagi bandlarni o'z ichiga olgan.

1. Psixologik xizmat xalq ta'limi va oliy o'rta maxsus ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

2. Psixologik xizmat mutaxassislari barcha muammolarni hal qilishda har qaysi shaxsning (pedagog, o'quvchi, talaba, ota-ona) manfaati va uning har tomonlama garmonik rivojlanishidan kelib chiqqan holda yondashadi.

3. Psixologik xizmat mutaxassislari o'z faoliyatlarini tibbiyot xodimlari, defektologik xizmat, muhofaza qilish tashkilotlari, muayyan komissiyalar, balog'atga yetmagan o'smirlar inspeksiyasi, ota-onalar qo'mitasi, ishlab chiqarish jamoasi, jamoatchilik bilan uzviy aloqada amalga oshiradilar.

Amaliyotchi psixologlar o'qituvchiga berilgan barcha imtiyozlardan foydalanish huquqiga ega. Ularning mehnat ta'tili muddati barcha o'qituvchilar bilan barobardir. O'quvchilar soni 500 gacha bo'lgan maktablarda 1 shtat birligi psixolog ishlashi zarur. Kasb-hunar kollejlarida o'quvchilar soni 250 ta bo'lsa, 1 shtat birligi psixolog ishlashi kerak. Bog'chalarda har 2 bog'chada 1 psixolog ishlashi maqsadga muvofiq.

Oliy va o'rta maxsus, xalq ta'limi tizimidagi psixologlarning faoliyati, psixologik maslahat va muammolarning ijtimoiy-psixologik faol usullari, psixokorreksion, psixotashxis, ijtimoiy, pedagogik, bolalar psixologiyasi sohalari bo'yicha umum psixologik tayyorgarlik olgan, psixologik ixtisosga ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

### **1.3. Psixolog maslahati**

Psixologik xizmat faoliyati o'quvchilar aqliy taraqqiyoti va shaxsiy xususiyatlarini tashxis qilishga, ta'lim-tarbiyadagi xatoliklarning psixologik sabablarini aniqlashga qaratilmasdan, balki bunday xato va kamchiliklarni yo'qotish va oldini olishga qaratiladi. Bundan psixologning aniqlangan chetlashishlarni korreksiya qilishda faol ishtirok etish zarurligi kelib chiqadi.

Psixologik xizmat faoliyati bolalar, yosh va pedagogik psixologiya, psixokorreksiya, psixologik maslahat sohasida

umumiy psixologik va maxsus psixologik bilimlar olgan mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Psixologik xizmatga jalb qilingan pedagoglar bu mutaxassislikni olish uchun maxsus qayta tayyorgarlikdan o'tishlari lozim.

Psixologning maslahat berish rejasida quyidagi ishlar o'z aksini topishi zarur:

1. Bolalar, o'qituvchilar, talabalar ta'lim va tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi barcha shaxslarga, jumladan, ma'muriyat (direktor, rektor, mudir) o'qituvchilar, murabbiylar, ota-onalar, ijtimoiy va jamoatchilik tashkilotlari xodimlariga aniq, yaqqol maslahatlar berish.

2. Ta'lim, taraqqiyot, tarbiya, kasb tanlash va turmush qurish, o'zaro munosabat, muomala va muloqot sirlari, tengdoshlar va voyaga yetmaganlar munosabati, masalan, dunyo-qarash, qobiliyat, iqtidor muammolari yuzasidan individual, guruhiy, jamoaviy tarzda maslahatlar uyushtirish.

3. Ma'muriyat, bolalar, o'quvchilar hamda talabalar va ota-onalarga ularning ruhiy o'sishi xususiyatlariga oid ma'lumotlar berishi, farzand asrab olish, onalik va otalikdan mahrum qilish ishlarida qatnashish, tashkilotlarning g'amxo'rlik va vasiylik to'g'risidagi qabul qilgan qarorlariga munosabat bildirishi lozim.

4. Ota-onalarga bolaning ruhiy rivojlanishi xususiyatlarini shaxs sifatida shakllanishi, o'zaro munosabat maqomlari, bunda farzandlarning yoshi, jinsi, individual-tipologik xususiyatlari muammosi bo'yicha ilmiy-amaliy maslahatlar beradi.

5. Maktab o'quvchilari, o'rta maxsus va kasb-hunar kolleji hamda akademik litsey talabalariga ularning imkoniyati, istiqboli to'g'risida ilmiy-amaliy xususiyatga molik maslahatlar berish: yoshlarni saralash, tanlash, kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash, tanlov komissiyasida maslahatchi sifatida ishtirok etish.

Mazkur ishlar o'quvchilarni maktab, kollej va litseylarda o'qitish davomida psixologik-pedagogik jihatdan chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning individual xususiyatlarini, ta'lim-tarbiyadagi nuqsonlarning sabablarini

aniqlashga mo'ljallangandir. Tashxis ishlari guruhiy yoki individual tarzda o'tkaziladi. Bu asnoda amaliy psixolog quyidagi vazifalarni bajaradi.

Yosh davr taraqqiyoti mezonlariga muvofiqligini aniqlash maqsadida psixolog bolalar, o'quvchilar, maxsus maktab o'quvchilarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurti talabalarini psixologik tekshiruvdan o'tkazadi, ularning bilim saviyalarini belgilaydi. O'quvchilarning kasbiy yaroqliligini tashxis qiladi, ularning shaxs xislatlari, irodaviy sifatlari, his-tuyg'ulari, o'zini-o'zi boshqarish imkoniyati, intellektual darajasini tekshiradi.

Maslahat berish ishlari-amaliyotchi psixologning asosiy faoliyat turlaridan biridir. Maslahat berish ishlari o'qituvchilar, o'quvchilar, ota-onalar uchun olib boriladi. Maslahat berish ishlari individual va guruhiy bo'lishi mumkin. Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilar ko'pincha psixologga quyidagi muammolar: turli fanlar bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar, bolalarning o'qiy olmasligi va o'qishni istamasligi, guruhda nizoli vaziyatlar, shaxsiy pedagogik ta'sirning natija bermasligi, har xil yoshdagi bolalarning tengdoshlari orasida oila muloqoti va bolalar jamoasining shakllanishi, kasbiy malakalarini oshirish yo'llari, o'quvchilarning qobiliyatlari, layoqatlari, qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish yo'llari, o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish bo'yicha murojaat qiladilar.

Amaliyotchi psixologga o'qituvchilar ham murojaat qiladilar:


— kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatni yaxshilash masalalari, o'z-o'zini tarbiyalash, kasbiy va shaxsiy o'z-o'zini bilish, aqliy mehnat va xulq-atvor madaniyati va boshqa muammolar bo'yicha maslahat so'raydilar.

Psixolog o'quvchilar bilan bevosita aloqada ularda vujudga kelgan muammolarni hal qiladilar. Bu to'g'ridan to'g'ri maslahat berish deb ataladi. Ba'zan o'quvchilarga va ota-onalarga o'qituvchilarning u yoki bu muammolari bo'yicha

maslahat beradi, bu bavo-sita maslahat berishdir, bunda ma'lum qoidalariga amal qilishga to'g'ri keladi. Maslahat berish markazida har doim psixolog va maslahat berilayotgan shaxsning o'zaro ta'sir jarayoni, ular orasida ishonchli o'zaro munosabatni o'rnatish yotadi. Bunda psixolog — maslahat beruvchi, o'qituvchi, ota-ona — maslahat beriluvchi, o'quvchi mijoz roliga bo'ladi.

Maslahat berish — psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Lekin psixologik maslahat o'zi nimaligi haqida yagona tushuncha yo'q. Kollejlardagi yoki akademik litseylardagi psixolog ishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Psixolog aniq o'quv muassasadagi o'qituvchilar va o'quvchilar orasidagi munosabatning ijobiy va salbiy tomonlarining, rivojlanadigan ijtimoiy muhitning ichida bo'ladi. U har bir o'quvchi yoki o'qituvchining o'ziningina emas, shaxslararo munosabatning murakkab tizimini ham ko'radi, boshqa ish turlari bilan birgalikda vaziyatni hal qiladi.

Maslahat berish ishini chizmada quyidagicha tasvirlash mumkin.



Yuqoridagi usulda ish olib borganda psixolog va o'qituvchi o'z sohasini yaxshi biluvchi mutaxassislar sifatida namoyon bo'ladi.

1. O'quvchi muammolari bo'yicha ularning hamkorligi bilimlarining birikuviga imkon beradi va muammolarni hal qilish uchun keng ijodiy imkoniyatlar yaratadi. Maslahat berishning asosiy ahamiyati ana shunda.

2. Psixolog o'quvchilar va talabalarining psixologik xususiyatlari, ularning qiziqishi, mayli, ilk iqtidori kabilarni o'rganadi, mutaxassis va yetuk shaxs sifatida shakllanishiga yordam ko'rsatadi.

3. Maktabgacha yoshdagi bolalar, o'quvchilar, hunar bilim yurti tinglovchilari yangi tipdagi maktab, oliy o'quv yurti talabalarida uchraydigan o'quv malakalari va ko'nikmalarini egallashdagi nuqsonlar, xulq-atvordagi kamchiliklar, intellektual taraqqiyot va shaxs fazilatlaridagi muammolarni tashxis qiladi.

4. Boshqa sohaning mutaxassislari bilan birgalikda psixik rivojlanishdagi nuqsonlar xilma-xilligini hisobga olgan holda differensial tashxisni amalga oshiradi. Nuqsonlarning tibbiy va defektologik tabiatini aniqlaydi. Assotsial xulq-atvor sabablarini va shakllarini belgilaydi. Giyohvandlik va taksikomanlik, alkogolizm, o'g'irlik, daydilikning ijtimoiy psixologik ildizlarini tekshiradi, omillarni tahlil qiladi.

5. Iqtidorli talabalar, yosh mutaxassislarni tanlashda ishtirok qilish, ilmiy psixologik tavsiyalar ishlab chiqish va unga asoslanib, ularga nafaqalar belgilashda ishtirok etadi.

#### **1.4. Psixologning rivojlantiruvchi va korreksion ishlari**

Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishi psixologdan inson shaxsi va individualligini tarkib toptirish jarayonida faol ishtirok etishni taqozo qiladi. Xalq ta'limi tizimidagi psixologning vazifasi psixologik xizmatni muayyan holda mezonga asoslanib tashkil qilishdan iborat bo'lib, yosh, davr xususiyatlariga binoan psixikaning rivojlanishi, shaxsning shakllanishi qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etadi, o'qituvchilar jamoasiga bolalar, o'quvchilar va talabalar ta'lim va tarbiyasini individuallashtirishda yordamlashish, ularning qobiliyati, maylini o'sish darajasiga qarab o'qituvchilarga korreksion ishlarni amalga oshirishda ko'rsatmalar beradi. Psixologik xizmatning ushbu yo'nalishida alohida ahamiyat kasb etadigan narsa bu bolalar, o'quvchilar, talabalar o'sishida kechikish, ularda xulqning buzilishi, ta'limda o'zlashtirishning yomonlashuvi kabilarni o'rganish hisoblanadi.

Amaliy psixolog bolalar, o'quvchilar, talabalarning psixik taraqqiyotdagi, xulq-atvor muomalasidagi nuqsonlar va hamda

kamchiliklarni asta-sekin tuzatish, korreksiya qilish dasturini ishlab chiqaradi va amaliyotga uni tatbiq etadi. Buning uchun ular bilan maxsus mashg'ulotlar o'tkazadi, ijodiy qobiliyatlarni o'stirish maqsadida treninglar olib boradi.

Korreksion faoliyatning psixologik qismi mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Mazkur ishning pedagogik jihati esa psixologning pedagoglar, ota-onalar bilan hamkorligida o'tkaziladi va butun mas'uliyat uning zimmasiga tushadi.

Rivojlantiruvchi va korreksion ishlar psixolog tomonidan har xil shakllarda, vaziyatlarda hal qilinadi:

a) amaliy psixologning maxsus ishi;

b) mashg'ulot ayrim bolalar, o'quvchilar, talabalar guruhiga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yo'naltirilgan bo'ladi;

d) ota-onalar pedagogik jamoa ishtirokida tarbiyaviy tadbirlar tarzida mashg'ulotlar olib borish nazarda tutiladi.

Rivojlantiruvchi psixokorreksion ishlar dasturini shunday tuzish kerakki, unda korreksion ishga jalb qilinuvchilar guruhining qadriyatga yo'nalganligi, etnopsixologik va etnomadaniyat xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

## **1.5. Psixologning psixoprofilaktik ishlari**

Amaliyotchi psixologlar ish tajribasini tahlil qilib, biz psixologik xizmat doirasida alohida diagnostik ish, alohida korreksion ish haqida gapirish mumkin emas degan xulosaga keldik. Psixologik xizmatda diagnostik — rivojlantiruvchi yo'nalishlar ishning yagona yo'nalishlaridir. D.B. Elkoninning ta'kidlashicha, bolalarni tanlash uchun, aniqlangan chetlashishlarni tuzatish maqsadida psixik taraqqiyotni nazorat qilishga yo'naltirilgan maxsus tashxis zarur. Taraqqiyotda bo'lishi mumkin bo'lgan chetlashishlarni ertaroq tuzatish uchun psixik taraqqiyotni nazorat qilish kerak. Amaliyotchi psixolog faqatgina tashxis qo'yish bilan cheklanmasdan, keyingi rivojlanish dasturini ishlab chiqadi, o'zi bergan tavsiyalarning bajarilishini nazorat qiladi, korreksion va rivojlantiruvchi ishlarni o'zi ham olib boradi.

Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion ishi murakkab faoliyat turlaridan biri bo'lib, maxsus psixologik tayyorgarlikni talab qiladi. Amaliyotchi psixologning diagnostik-korreksion faoliyati murakkab, javobgarlikni talab qilishi bilan birga kam ishlangandir. Bu jarayon birinchi bo'lib, tarbiyasi qiyin va normal bolalarni o'rganishga bag'ishlangan pedagogik tadqiqotlarda L.S.Vigotskiy tomonidan qo'llangan. I.Shvansara shaxs taraqqiyotini tashxis qilishning bosqichli eksperimental-psixologik nuqtayi nazarini taklif etadi.

Bu bosqichlar quyidagilar: 1. Psixologga rasmiy iltimos. 2. Psixologik muammoni aniqlash. 3. Tadqiqot metodini tanlash. 4. Psixologik tashxis qo'yish. 5. Amaliy tavsiyalar.

Psixologning rasmiy iltimosga javob tarzidagi ishini birinchi nuqtayi nazar sifatida psixologning yoki bu tarbiyasi qiyin o'quvchiga nibatan o'qituvchining ma'lum ijtimoiy talabiga javobini ko'rsatish mumkin. Bu holda o'quvchiga «tarbiyasi qiyin» tashxisi (diagnozi) o'qituvchilar, tibbiyot xodimlari, voyaga yetmaganlar ishi bo'yicha nazorat xodimlari tomonidan qo'yilgan bo'ladi. Psixologning vazifasi — qiyinchiliklarning sabablarini aniqlash va ularga mos tuzatish (korreksiya) metodlarini topishdan iborat.

Psixoprofilaktik ish — amaliyotchi psixologning eng kam ishlangan faoliyat turlaridan biri hisoblanadi. Psixoprofilaktika muammolari ko'proq Amerika adabiyotlarida aks etgan.

### **Psixoprofilaktikada uch bosqich ajratib ko'rsatiladi.**

*Birinchi bosqich* dastlabki profilaktika deb ataladi. Bu bosqichda psixolog sog'lom bolalar bilan ishlaydi yoki maktabdagi barcha o'quvchilarni qamrab oladi. Ko'pchilik mualliflarning ta'kidlashicha, maktab ruhiy sog'liq profilaktikasi uchun qulay hisoblanadi. Ular maktab psixologlarini dastlabki profilaktikani o'tkazadigan mutaxassislar deb tan oladilar.

*Ikkinchi bosqich* profilaktika muammolari mavjud bolalarga qaratiladi. Uning maqsadi — bolaning o'qishi va xulq-atvoridagi qiyinchiliklarni iloji boricha ertaroq aniqlab, ularni yo'qotishdan iboratdir. Ikkinchi bosqich ota-onalar va o'qituvchilarga maslahat berishni ham o'z ichiga oladi (bolaning o'qishi o'zgarishi uchun ta'lim uslubini o'zgartirish).

*Uchinchi bosqich.* Psixolog o'qishdagi va xulq-atvordagi yaqqol ko'rinib turadigan muammolari bor bolalarga o'z diqqatini qaratadi. Profilaktikaning dastlabki maqsadi — jiddiy psixologik qiyinchiliklarni va muammolarni yo'qotish va tuzatishdan iborat. Psixolog bola bilan alohida ishlaydi. Maktab psixologining asosiy kuchi uchinchi bosqichga, ya'ni «tarbiyasi qiyin» bolalarga qaratiladi va o'quvchilarning asosiy qismi psixolog e'tiboridan chetda qolib ketadi.

Hozirgi Amerika psixologlari maktablardagi psixologik xizmatni ruhiy sog'liq xizmati sifatida faoliyat ko'rsatishning tarafdori bo'lib chiqmoqdalar.

Psixoprofilaktika amaliyotchi psixolog faoliyatining maxsus turi bo'lib, maktabdagi barcha o'quvchilar uchun shart-sharoitlarni yaratishdan iborat.

Shunday qilib, *psixolog profilaktik ishining asosiy vazifalari quyidagilar.*

1. Har bir yosh bosqichida insonning shaxs sifatida shakllanishi, aqlan barkamollikni ta'minlashning oqilona shart-sharoitlarini yaratish;

2. Shaxs kamoloti va intellektual taraqqiyoti bo'sag'asida vujudga kelishi mumkin bo'lgan psixologik nuqson va muammolarni o'z vaqtida oldini olish hisoblanadi.

## **1.6. Psixologik xizmat mahsulдорligining sharoitlari**

Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarga individual yondashuv zarurligi hamma tomonidan tan olingan, lekin undan amalda kam foydalaniladi. Bunga maktabda o'qituvchilarning bola haqida ko'p gapirishlari dalil bo'ladi. Chunki maktabda o'quvchining qobiliyatlari, shaxsning asosiy xislatlari haqida chuqur va har tomonlama ma'lumot beradigan mutaxassis yo'q.

Ta'lim-tarbiyadagi individual yondashuv, bolani boshqalardan ajratib alohida o'qitishni bildirmaydi, balki shaxsning u yoki bu xislatlarining shakllanishida maxsus sharoitlarni hisobga olish, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushunishni anglatadi.



Psixologiyada shaxsning individual xususiyatlari deganda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan farqlaydigan xususiyatlar tushuniladi.

Individual yondashuvning vazifasi — rivojlanishning individual usullarini aniqlash, bolaning imkoniyatlarini har bir shaxsning faolligini ta'minlashdan iborat. Bu nuqtayi nazardan olganda individual yondashuv faqatgina «tarbiyasi qiyin» bolalarga emas, barcha o'quvchilarga ham zarurligi tushunarli bo'ladi. Kollej psixologlari bu usulni u yoki bu shaklda qo'llaydilar, chunki bu ko'zga tashlanib turgan qiyinchiliklar bilan birgalikda, bola shaxsiy taraqqiyotining ba'zi yashirin nuqsonlarini ham topishga yordam beradi.

Bunday diagnostik ishning asosiy maqsadi — o'quvchi psixik taraqqiyotining umumiy holatini bilishdan iborat. Bunday ko'p qirrali va to'liq tashxis natijalari psixolog uchun ham, ota-onalar, o'qituvchilar uchun ham «tarbiyasi qiyin» bola bilan olib boriladigan tuzatish va rivojlantirish ishlarining yo'llarini aniqlash imkonini beradi. Bu usul yutuqlar bilan birga kamchiliklarga ham ega.

Bu usulni qo'llash juda ko'p vaqtni olganligi uchun, uni amalga oshirishning har doim ham iloji bo'lmaydi. Negaki, uzoq vaqt davomida nafaqat psixolog, balki «tarbiyasi qiyin» o'quvchi ham charchaydi, tekshiruvda ishtirok etishdan bosh tortadi, topshiriqlarni o'zi sezmaganda holda nomiga bajaradi. Tajribadan ma'lum bo'lishicha, ayniqsa, og'zaki metodikalar qanchalik to'liq bo'lmasin, qiyinchilik tug'diradi. Bundan tashqari bunday metodikalar shaxsni to'liq xarakterlash uchun yetarli bo'lmaydi.

Rasmiy iltimosga qanday munosabatda bo'lish kerak? Kollej psixologi javob beradigan birinchi savol mana shu. Rasmiy iltimosga ikki xil munosabat, ikki xilma-xil ish uslubi mavjud.

Birinchisi, rasmiy iltimosga o'ziga xos bo'lmagan javob qaytarishdir. Bu ikki usul bilan amalga oshiriladi.

Birinchidan, rasmiy talabga javob tarzida (uning mazmuniga bog'liq bo'lmagan holda) psixodiagnostik metodlar to'plami qo'llaniladi.

Ikkinchidan, rasmiy talabga o'ziga xos javob qaytarishning usuli bo'lib, mashhur amerikalik psixolog K.Rodjers psixologiya fani va amaliyotiga kiritgan psixologik ish to'g'ri hisoblanadi. Uning fikricha, «tarbiyasi qiyin» bola bilan ishlash uchun, rasmiy talabning mazmuni qiyinchiliklar sabablarini tushunishga teng, lekin bu muhim ahamiyatga ega emas. Bola shaxsini rivojlantiradigan shunday sharoit yaratish kerakki, bu sharoit uni xulq-atvorning salbiy shakllaridan voz kechishga va yangi ijobiy shakllarini yaratishga majbur qilsin.

Rasmiy iltimosga o'ziga xos bo'lmagan javob qaytarishga teskari uslub — bu rasmiy talabga qat'iy mos tushadigan diagnostik metodikalarni tanlashdan iborat: masalan, yomon o'zlashtirish haqida shikoyat tushganda, birinchi navbatda bilish jarayonlarining taraqqiyoti tahlil qilinadi. Bunday tashxis o'zlashtirmaslik sabablarini aniqlay olmasagina, boshqa ko'rsatkichlar qaraladi. Tashxis natijalariga mos ravishda, ko'pincha trening turida amalga oshiriladigan tuzatish ishlari olib boriladi. Masalan, xotira kuchsiz rivojlanganda, uni maxsus mashq qildirish maqsadga muvofiq, ixtiyoriylik yetarli darajada rivojlanmaganda, uni shakllantirishning maxsus dasturlari kiritiladi.

## 1.7. Psixologik — pedagogik konsilium

Psixoprofilaktik ishlarning usullaridan biri pedagogik psixologik konsiliumni tashkil etishdir. Yu.K.Babanskiyning ta'kidlashicha, o'quvchilarni o'rganishni yaxshi yo'lga qo'yish uchun, to'liq yozma tavsifnomalar yozishdan ko'ra sinf o'qituvchilarining o'quvchilar haqidagi fikrlarini jamoa bo'lib muhokama qilish, sinfga va o'quvchilarga individual yondashuv rejalarini ishlab chiqish yaxshi natijalar beradi. Bunday jamoa bo'lib, muhokama qilishlarni shartli ravishda **pedagogik-psixologik konsilium** deb ataladi. Psixologik-pedagogik konsilium o'qishda orqada qolish sabablarini yoki xulq-atvordagi kamchilik natijalarini muhokama qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Pedagogik konsiliumda psixologning vazifasi — o‘quvchi intellektual taraqqiyotini baholashda o‘qituvchilarga har xil tomondan yondoshuvga yordamlashishdan iborat. Pedagogik konsilium imkoniyatlarini baholashda sub’yektivizmdan holi bo‘lishga, ularni obyektiv baholash imkonini beradi.

Lekin, shuni ta’kidlash lozimki, o‘qituvchilarda u yoki bu o‘quvchi haqida o‘z fikri bo‘ladi, bu fikrlarni o‘zgartirish juda qiyin. Shuning uchun konsilium natijasi foydali bo‘lishi uchun psixolog unga jiddiy tayyorlanishi kerak. Psixolog konsiliumda ishtirok etib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

1. Pedagogik jamoa o‘quvchi psixik va shaxsiy xarakteristikalarini turli tomondan ko‘rsatish, bunda albatta ijobiy kuchli tomonlarni ta’kidlash joiz. Kuzatish, suhbat, psixotashxis natijalariga asoslanib, o‘quvchi muammolarining kelib chiqishi haqida isbotlangan farazlarni keltirish zarur.

2. Har bir o‘qituvchida o‘quvchiga nisbatan munosabatni o‘zgartirishga erishish zarur. Bu juda qiyin vazifa bo‘lib, uni ehtiyotkorlik bilan hal qilish zarur, konsilium o‘tkazguncha sekin-asta boshlash kerak. Ko‘pincha o‘qituvchi o‘quvchiga nisbatan fikrini o‘zgartirgisi kelmaydi. O‘qituvchi bunda psixolog nima haqida gapirayotganini tushunmaganligi uchun emas, balki ongli ravishda o‘z hayotini murakkablashtirgisi kelmayganligi uchun shunday qiladi.

3. Barcha o‘qituvchilarning o‘quvchi muammolarini, uning shaxsi mohiyatini jamoa bo‘lib, tushunishlariga erishish. Faqat ana shu holda o‘quvchi foydasiga o‘zaro harakat qilishlariga ishonish mumkin.

Shunday qilib, psixologik-pedagogik konsilium psixoprofilaktik ishning muhim bosqichi hisoblanadi. Yuqori darajada tayyorlangan konsilium — o‘quvchilar, o‘qituvchilar va butun jamoaning rivojlanishiga yordam beradi.

## **1.8. Psixologik xizmat tuzilishi va uni boshqarish**

Psixologik xizmatning asosiy vazifasi — tadqiqot ishlari, amaliy ishlar va tashviqot ishlaridan iboratdir.

Ilmiy tadqiqot vazifalari — o‘quvchilar shaxsini shakllantirishning muhim muammolarini, ta’lim va tarbiyaning psixologik asoslarini o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar, maktab psixologlari, psixologlar bilan o‘qituvchilar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni hamda psixologning odobini o‘z ichiga oladi.

Amaliy vazifalar — psixologik tadqiqot natijalarini amalda psixologik xizmat ishida qo‘llab, bolalarning maktab ta’limiga tayyorligini aniqlash, o‘quvchilarning o‘qish faoliyatini osonlashtirish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama kamol toptirish, o‘quvchilarning qobiliyat va moyilliklarini aniqlash va rivojlantirish, talabalar bilan hunarga, kasbga oid suhbat, maslahat ishlarini olib borish, turli xildagi «qiyin» bolalar bilan ish olib borish kabi asosiy vazifani hal qilishdan iboratdir.

Tashviqot ishlari — psixologik bilimlarni, psixologik umumta’limni targ‘ib qilib, o‘quvchilarning psixologik bilimlarini oshirish, ota-onalar uchun seminarlar, ma’ruzalar va suhbatlar uyushtirish, anjumanlar o‘tkazishdan iborat.

Bu sharoitlarning barchasiga alohida to‘xtalamiz.

Kichik maktab yoshida insonning maqsadli yo‘nalishi — ta’lim va tarbiyasi amalga oshiriladi. Xuddi shu yosh psixik jarayonlarning ixtiyoriyligi, harakatning ichki rejasi, faol aqliy faoliyatga ehtiyoj, o‘quv ko‘nikma va malakalarini egallash uchun juda qulay yoki senzitiv yosh hisoblanadi. Boshqacha aytganda, kichik maktab yoshining oxiriga kelib bola o‘qiy olishi va o‘qishni istashi kerak. Ta’limning keyingi bosqichlarida vujudga keladigan barcha muammolar (o‘zlashtira olmaslik, maktabga borishni istamaslik) yoki bolaning o‘qiy olmasligiga, o‘qishga qiziqmasligiga bog‘liq bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarning oxirida u yoki predmetga qiziqish borliqqa, bilish jarayonlariga faol munosabatini belgilaydi. Faqat bir predmetga chuqur qiziqish ham o‘quvchilarning umumiy rivojlanishiga turtki bo‘ladi. Agar boshlang‘ich sinflarda o‘qishga qiziqish shakllantirilmagan bo‘lsa, undan keyingi yosh davrlarida bu juda qiyin bo‘ladi, ikkinchidan yetarli darajada shakllantirilmagan o‘quv faoliyati o‘smirlik davrida yangi tuzilmalarning paydo bo‘lishiga to‘siq bo‘ladi.

Maxsus o'tkazilgan tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarida yorqin individual farqlarni ko'rish mumkin. Bu ular o'quv faoliyatida ko'zga tashlanadi. O'quv faoliyatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy va maxsus qobiliyatlari birinchi o'rinda turadi. Tajriba o'tkazilgan bolalarning 80 %ida qandaydir muvaffaqiyatga erishilgan.

Shunday qilib, maxsus qobiliyatlarni o'quvchilar individual farqlarining asosi sifatida qarab, o'quv-tarbiya ishlarida ularni hisobga olish zarur. O'quvchilarning shaxsiy va psixik rivojlanishida umumiy maxsus qobiliyatlar muhim omil hisoblanadi. O'quvchi qiziqishlari va qobiliyatlarini anglashi, ularning qanchalik rivojlanganligidan qat'iy nazar umuman shaxsning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Bolaning rivojlanishi uchun qulay psixologik iqlim yaratish ham psixologik xizmat mahsuldorligining omillaridan biridir. Bunday iqlim yaratishda bolalarning kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti muhim hisoblanadi. O'smirlarning tengdoshlari va kattalar bilan muloqoti ular shaxsining shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Muloqotdagi muvaffaqiyatsizlik, shunday ichki noqulaylikka, o'zini yomon his qilishga olib keladi-ki, uning o'rnini hayotning boshqa sohalaridagi hech qanday ko'rsatkichlar bosa olmaydi. Muloqot o'smirlar tomonidan muhim jarayon sifatida qabul qilinadi; bu haqida ular muloqot shakllariga e'tibor berishni, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilishlarini, ularni tushunishga urinishlarini misol qilib keltirish mumkin. O'smirde xuddi shu tengdoshlari bilan muloqotda shaxs ijtimoiy yetukligining muhim ko'rsatkichi bo'lmish qadriyatlar shakllana boshlaydi.

Ularda asosan muloqot — qadriyatlar mazmunini belgilaydi. Bu yosh tengdoshlari orasida o'zini ko'rsatishga, o'zini va suhbatdoshini yaxshiroq bilishga intilish, atrof-muhitni bilish kabi muloqot motivlari jamoa tomonidan tan olinishi, o'ziga ishonish, xatti-harakatlarining mustahkamligi va yuksak umumiy madaniyat, o'z fikriga ega bo'lish, mustahkam iroda,

**o'z-o'zini nazorat qilish, halollik, ko'ngilchanlik kabi qadriyatlar tizimining yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.**

**Psixologik tashviqot ishlari teleko'rsatuv va radio orqali eshittirish qilish, yakkama-yakka maslahatlar tashkil etish, muloqot treninglari uyushtirishdan iboratdir.**

**Psixologik xizmatning uchala vazifasi o'zaro chambarchas bog'liq, ularning birgalikda olib borilishi maqsadga muvofiq.**

**Maktabdagi psixologik xizmat O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Respublika Tashxis markazi tomonidan tashkil etilib, quyidagi tartib va darajaga egadir:**


**1. Yuqori darajada — psixologik xizmat vazifalarini aniqlash, uning hujjatlarini tartibga keltirish Respublika xalq ta'limi vazirligi qoshidagi psixologik xizmat markazining buyurtmasiga binoan yuqori malakali psixologlar (pedagogika institutlari, universitetlarining psixologiya kafedralari) tomonidan amalga oshiriladi.**

**2. O'rta darajada — mazkur hujjatlar tomonidan hali hisobga olinmagan yangi masalalarni amaliy ravishda hal etish — psixolog mutaxassislar (Xalq ta'lim vazirligi qoshidagi viloyat, tuman, shahar tashxis markazi) tomonidan amalga oshiriladi.**

**3. Asosiy ommaviy darajada — psixologik xizmatning kundalik vazifalarini, amaliy psixologik xizmat haqidagi qonun va qoidalarga binoan psixologik jihatdan to'g'ri hal qilish. Bu ish amaliyotchi psixologlar (maktab psixologi), viloyat xalq ta'limi boshqarmasi qoshidagi psixologik xizmat bo'limlari, tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlari qoshidagi psixologik xizmat (bo'limlar) xonalari, maktab, maktabgacha tarbiya muassasalari, kasb-hunar kollejlaridagi amaliyotchi psixologlar tomonidan amalga oshiriladi.**

**Maktab psixologi maxsus tayyorgarlikka ega (pedagogika institutlarining amaliyotchi psixologlar tayyorlaydigan maxsus kurslarini, universitet va institutlarning psixologiya fakultetlarini bitirgan) bo'lishlari kerak.**

**Psixologik xizmatning tuzilishini quyidagi sxema tarzida tavsifiya etish mumkin (1- sxemaga qarang).**



1- sxema. Psixologik xizmat tuzilishi.

Kollej, litseydagi psixologlar direktorga va boshqarmaga bo'ysunadi. Biroq kollej, litsey direktorlariga psixologik xizmat haqidagi qonunda ko'rsatilgan vazifalar bilan bog'liq bo'lmagan ishlarni psixologga topshiriq yo'nalishida berishlariga ruxsat etilmaydi. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi qoshidagi psixologik xizmatni tashkil etish va boshqarishning muvofiqlashtirilgan Respublika tashxis markazi tariqasida xizmat qiladi. Bu markazning psixologlar, pedagoglar va tibbiy xodimlardan iborat 3 — 5 kishilik doimiy ishlaydigan xodimlari bo'lishlari zarur.

Viloyat o'rta maxsus ta'lim boshqarmalari, Qoraqalpog'iston o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Toshkent shahar o'rta maxsus ta'lim boshqarmasi qoshidagi tuman tashxis markazlari o'z hududlaridagi psixologik xizmatni tashkil etish va ularni nazorat qilish vazifalarini bajaradi.

Bu bo'limlar 2 — 3 kishilik xizmat xodimlariga ega bo'lishi kerak. O'quvchilar soni 500 gacha bo'lgan maktablarda 1 ta psixolog lavozimi belgilanadi. O'quvchilari 500 kishidan ortiq kontingentdagi maktablarda har 500 o'quvchi uchun ikkinchi psixolog lavozimi belgilanadi. Maktabgacha tarbiya muassasalaridagi har bir bolalar muassasasida 1 shtat birligida bolalar psixologi lavozimi belgilanadi.

Kollej va litseylarda har 250 o'quvchi uchun shtatli psixolog lavozimi tayinlanadi. O'quvchilar soni 250 kishidan yuqori kontingentli hollarda har 250 ta o'quvchi uchun qo'shimcha psixolog shtati belgilanadi. Bu shtat birligi haqida ma'lumotlar 1996 yilgi Nizomdan olingan.

## **1.9. Psixolog ishining bolalar muassasalariga ko'ra xususiyatlari**

Psixologlarning ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatib kelayotganlariga ancha bo'ldi. Biroq hozirgacha ham ko'pchilik bu soha mutaxassislari ishiga biroz shubha bilan qarashmoqda. Bunga ma'lum ma'noda psixologlarning o'zlari ham aybdor. Ular o'z faoliyatlarining, o'z yordamining qanchalik muhimligini, yosh avlodni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda ularning ishtiroki juda zarur ekanligini ko'rsatib, ifodalab bera olmayaptilar. Buning asosiy sabablaridan biri, bizning fikrimizcha, psixologlarning o'z faoliyatida ta'lim-tarbiya muassasalari xarakterli xususiyatlariga yetarlicha e'tibor bermayotganliklari, muassasaning o'ziga xos xususiyatlariga moslasha olmayotganliklaridadir.

Turli yoshdagi, jinsdagi ma'lumot va e'tiqod darajasidagi odamlar bilan psixolog bir xil usulda ishlab bo'ladimi? Turli muassasa bu turlicha sharoit, turli muassasa — bu rivojlanishi jihatdan turlicha bo'lgan bolalar. Buning ustiga har xil shart-sharoitdagi muassasalarda psixolog yagona qolipga solingan yo'ldan borishi mumkinmi? Bizningcha, mumkin emas. Shundan kelib chiqib, turli bolalar muassasalarida psixolog olib boradigan ishning bir-biridan farqi, o'ziga xos va takrorlanmas xususiyatlariga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Biz



qisqacha tarzda psixologning maktabgacha tarbiya muassasalarida olib boradigan ishlari, umumiy o'rta ta'lim maktablarida va mehribonlik uylarining tarbiyalanuvchilari bilan amalga oshiradigan ishlarning ayrim jihatlari haqida to'xtalib o'tamiz.

## **Psixologning maktabgacha tarbiya muassasalaridagi o'rni va vazifasi**

Maktabgacha tarbiya muassasalarining tarbiyachilari psixolog yordamiga muhtojmi?

So'nggi yillarda maktabgacha tarbiya muassasalarimizda psixologik xizmat ommalashib bormoqda. Ayni vaqtda maktabgacha maxsus tarbiya muassasalaridagina emas, balki oddiy tuman bolalar bog'chalarida ham amaliy psixologlar faoliyat ko'rsatmoqdalar. Yurtboshimizning tashabbusi bilan ishlab chiqilgan «Sog'lom avlod Davlat dasturi» da 1 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarning salomatligini mustahkamlash, tarbiyasini to'g'ri tashkil qilish masalasiga ko'proq ahamiyat berish zarurligining ta'kidlanishi maktabgacha tarbiya muassasalarida psixologning o'rni va rolini oshiradi. Zero, salomatlik tushunchasi nafaqat jismoniy, balki ayni bir vaqtda ruhiy salomatlik birligini anglatadi. Prezidentimiz I.A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Sog'lom avlod deganda shaxsan men, eng avvalo, sog'lom naslni, nafaqat jismonan baquvvat, shu bilan birga ruhi, fikri sog', imon-e'tiqodi butun, bilimi, ma'naviyati yuksak, mard va jasur, vatanparvar avlodni tushunaman».

Yaqin-yaqinlargacha bog'cha psixologi o'ziga xos noyob hodisalardan biri edi. Psixologning bir turdagi muassasalardagi vazifa va faoliyat yo'nalishi aniq ko'rsatilmagan edi. Eng muhimi, psixologlarning o'zi uchun ham bu tarmoqda qanday hodisa va muammolarga duch kelish mumkinligini aniq tasavvur etishga qiynalar edilar. Shuning uchun, hatto ularning o'zlarida ham «O'zi psixologga zarurat bormikan?» degan gumon paydo bo'lardi. Hozir ham ayrim bog'cha psixologlari muassasada o'z o'rinlarini topolmay qiynalayaptilar. Shuning uchun ular bog'chadagi

**o'z** faoliyatlarining dastlabki bosqichini odatda metodikalar orqali **bolalarni** tashxis qilishdan boshlaydilar. Shubhasiz, bu juda **ammarali** faoliyat yo'nalishi. Bunda bolalarning umumiy rivojlanish **darajasi** aniqlanadi va mavjud muammolar ko'zga tashlana boshlaydi. Biroq tashxis va uning natijalarini qayta ishlash ancha **ko'p** vaqt talab qilingani uchun bolalarning muammolari bilan **shug'ullanishga** vaqt deyarli qolmaydi.

Shuning uchun mutaxassislar maktabgacha tarbiya muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan psixologlarga ishni dastlab unga yordam so'rab murojaat qilgan ota-ona va tarbiyachilarning murojaatini o'rganishdan boshlashni tavsiya etadilar. Maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalari va tarbiyachilarining psixologga qiladigan murojaatlari uning mazmuni va xarakteri xususida risolamizning navbatdagi bo'limida batafsil to'xtalamiz. Ishonamiz, ushbu murojaatlarni o'rganib, ularga o'z vaqtida javob berishi bilan psixologlar o'zini qanchalik kerakligini isbotlay oladilar.

### **Ota-onalar va tarbiyachilarning psixologga murojaati**

So'nggi yillarda mutaxassislar shunday fikrdaki, ota-onalarning psixologga qiladigan murojaati biroz o'zgarib, aniqroq xarakter kasb etdi. Oxirgi paytlarda ota-onalarning amaliy psixolog yordamiga bo'lgan qiziqishi ancha ortdi. Psixologning oldiga maslahat uchun keladigan ota-onalar sonining ortishi buni isbotlab turibdi. Ehtimol, ota-onalar sekin-asta bola xulq-atvoridagi ko'p narsalarga o'zlari sababchi ekanliklarini tushuna boshlaganliklari tufayli ularda psixologik xizmatga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Balki psixologik xizmatning xalq ta'lim tizimida ommalashishi va ilmiy ommabop adabiyotlarning ko'payib borayotgani ularni o'z farzandiga boshqacharoq qarashga majbur qilayotgandir? Xullas, aytish mumkinki, psixologning yordamiga bo'lgan ongli ehtiyoj asta-sekin bo'lsa ham o'sib bormoqda.

Maktabgacha tarbiya muassasalarining psixologlari amaliyotida asosan ota-onalarning quyidagi bir necha guruhdagi murojaati uchraydi:

1. Birinchi guruh murojaatlari «muammoli murojaat» emas. Ular bilish xarakteriga ega. Ota-ona bolaning psixik rivojlanishini nazorat qilish kerakligini tushunib, psixologga farzandlarining psixik va aqliy rivojlanish darajasini aniqlab berish iltimosi bilan murojaat qiladilar.

Bunday murojaatlarning ko'payishiga shubhasiz, birinchidan, so'nggi yillarda respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalar muammolariga, umuman bolalarning salomatligiga alohida e'tibor bilan qaralayotgani; ikkinchidan, maktabgacha yoshdagi bolalikning inson shaxsi shakllanishi va aqliy rivojlanishidagi ahamiyati haqidagi ilmiy ommabop kitoblar, gazeta-jurnallar maqolalari, maxsus ko'rsatuvlarning ko'payib borayotganligi sababdir.

Ota-onalar ko'pincha psixologdan bola normal rivojlanayotganligini bilish uchun keladilar. Shuning uchun ular psixologning ta'kidlarini, maslahatlarini odatda e'tibordan chetda qoldiradilar. Ota-onalarning o'z bolalari psixik rivojlanish darajasini aniqlashga bo'lgan ishtiyoqi ortishining yana bir sababi ta'lim tizimining murakkablashishi, turli o'quv muassasalari — litseylar, gimnaziyalarning paydo bo'lishidir. Ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'sirida ko'plab ota-onalar farzandlarini ta'limga ancha erta tayyorlab borish kerakligini anglay boshladilar. Shu tufayli bo'lsa kerak, bolani 6 yoshdan maktabga berish muammosi bilan murojaat qiluvchi ota-onalar ancha ortdi. Psixologning bola 6 yoshdan maktabga borishi uchun uning qaysi bilish jarayonlarini rivojlantirish kerakligi haqida bergan maslahat va ko'rsatmalari ota-onalar tomonidan ancha katta e'tibor bilan qabul qilinmoqda.

2. Ikkinchi guruh murojaatlari bolalarning qobiliyatlarini aniqlab berish yuzasidan bo'ladigan iltimoslaridan iborat. Xilma-xil qiziqarli to'garaklar (musiqa, rasm chizish, ingliz tili va h.k)ning mavjudligi, buning ustiga ba'zi adabiyotlarda bolalarning qobiliyatlari 3 — 4 yoshdayoq malum bo'ladi, degan malumotlar ota-onalarni psixolog huzuriga yetaklamoqda. Psixologning vazifasi bolani bu yoshda biror sohaga masalan, musiqa yoki matematikaga majburan intensiv o'qitishning salbiy oqibatlarini tushuntirib, bola uchun ayni damda har

**tomonlama rivojlanish muhimligini ota-ona ongiga yetkaza bilishga qaratilishi kerak. Biroq ayni vaqtda psixolog maktabgacha tarbiya muassasasida biror faoliyatga layoqati — qobiliyat nishonalari unib chiqayotgan bolalarni aniqlashga, ularning rivojlanishini kuzatishga, maxsus dastur asosida Individual ish olib borishga o'z e'tiborini qaratishi lozim.**

3. Uchinchi guruh murojaatlariga bola xulqidagi salbiy xislatlar tufayli paydo bo'lgan xavotirlar kiradi. Bunda otalar asosan bolalarning tajavuzkorligi, tortinchoqligi, xayolparastligi, his-hayajonga beqarorligi, asabiylashuvchanligi yuzasidan murojaat qiladilar. Bir narsa kishini tashvishga soladiki, bunday murojaatlar soni tobora ortib bormoqda. Bolalar xulqidagi og'ishishlar asosida yotgan sabablarni psixologlar 3 turkumga ajratadilar:

a) ota-onalarning bola ruhiy rivojlanish qonuniyatlarini bilmasligi. Rivojlanish qonuniyatlarini bilmaslik oqibatida otalar bolalarga ularning yoshiga mos bo'lmagan talablarni qo'yadilar, «beboshlik» davrlaridagi xususiyatlarni esa xulq-atvordagi og'ishish deb baholaydilar. Bunday holda psixolog bola ruhiy rivojlanish xususiyatlarini yotig'i bilan ota-onalarga tushuntirib qo'yishi, ularga bola bilan bo'lgan muloqot uslubini o'zgartirish, unga qo'yayotgan talablarga e'tiborliroq bo'lishini tavsiya etishi lozim bo'ladi; b) bola xulq-atvoridagi og'ishishlarga asab buzilishlarning ham ta'siri. Ular nevrozlar, psixosomatik kasalliklar, ruhiy rivojlanishda orqada qolish asoratlari bo'lishi mumkin. Bu holda psixolog qo'ldan kelgan yordamini ko'rsatib, mutaxassis-psixonevrolog, nevropatolog, psixiatrga murojaat qilishni maslahat berishi kerak; d) bolaning xulq-atvoridagi og'ishishlariga noto'g'ri oilaviy tarbiya sabab bo'lishi ham mumkin.

Haddan tashqari ko'p erkalatish, qo'rqitish, og'ir jismoniy jazolar, befarqlik kabi ota-onalarning tarbiya bobidagi xatolari bola xulqidagi normadan chetga chiqishning sababiga aylanishi mumkin. Bunday holda bir marotaba beriladigan maslahat bilan chegaralanib bo'lmaydi. Ota-onalar bilan muntazam tushuntirish ishlari olib borishga to'g'ri keladi. Shunisi ayanchlik, noto'g'ri tarbiya oqibatlari haqida so'nggi paytlarda qancha ko'p gapirilsa, tarbiyasida jiddiy kamchiliklarga yo'l

qo'yilgan bolalar soni shunchalik ko'payib bormoqda. Shu tufayli profilaktika maqsadida maktabgacha tarbiya muassasa psixologi ota-onalar bilan olib boriladigan targ'ibot tashviqot ishlarini yaxshi yo'lga qo'yishi kerak. Bu borada o'ziga xos «Ota-onalar klubi»ni tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir.

Tarbiyachilar ham psixologga nisbatan kamroq bo'lsa-da murojaat qiladilar. Ularning murojaati aniq xarakter kasb etadi. Ko'pchilik tarbiyachilarni asosan tajavuzkor yoki yomon o'zlashtiruvchi bolalar tashvishga soladi, chunki har ikki toifadagi bolalar bog'chadagi tarbiyaviy jarayonni qiyinlashtiradilar. Haddan tashqari tortinchoq, o'ziga ishonmaydigan bolalar tarbiyachilarning alohida e'tiborini talab qiladi, shuning uchun tarbiyachilarni asosan boladagi u yoki bu xususiyatning psixologik mexanizmi rivojlantiruvchi mashq va o'yinlar, o'yincholarni tanlashda nimaga ko'proq e'tibor berish haqidagi psixolog maslahati qiziqtiradi. Albatta, ota-onalar kabi tarbiyachilarni ham u yoki bu bolaning psixik rivojlanish darajasi qiziqtiradi. Zero, bunday ma'lumotlar tarbiyachilarga bolalar bilan ishlashda yordam beradi.

### **Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan rivojlantiruvchi ishlar muammosi**

Ko'plab tadqiqotlar maktabgacha yoshdagi bolalar juda egiluvchan va ta'sirga beriluvchan ekanligini tasdiqlaydi. Bu davrda bolalar juda ko'p narsani o'zlashtirishi mumkin ekan. Ammo bolaning imkoniyatlari cheksiz emas, bola imkoniyatlari yosh va psixofiziologik xususiyatlar bilan chegaralangan. Avvalo shuni unutmaslik kerakki, bola bu davrda tez o'sayotgan bo'ladi. Bolalar bilan ishlash dasturi ishlab chiqilar ekan, albatta, biror narsani qilish uchun ular qancha asab — psixik kuch sarf qilishini ham inobatga olish kerak.

Masalan, 3 — 7 yoshli bolalarga erkin harakatlanish imkoniyati berilsa, u ko'p harakatlar qilishi mumkin. Biroq u aniq harakatni bajarishga majbur etilsa, u tez toliqib qoladi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishning muhim sharti ular bilan ishlash

**ohog**‘ida qo‘llanayotgan usul va tarbiya shakllarining bolalar **psixofiziologik** xususiyatlariga mos bo‘lishidir. Ta‘lim-tarbiya **jarayoni** asosan didaktik o‘yinlar, turli xil amaliy va tasviriy **faoliyat** shakllarida o‘tkazilishi maqsadga muvofiqdir. Bolalar **bilan** an‘anaviy maktab darsi shaklida aslo ishlab bo‘lmaydi. **Bolalar** bog‘chada ta‘lim olishlari uchun bu jarayon ularning **tabiiy** rivojlanishi bilan uyg‘un bo‘lishi kerak. **Psixolog** mashg‘ulotidan maqsad bilim va ko‘nikma bilan qurollantirish emas, rivojlantirish ekanini unutmashligi kerak.

Psixolog rivojlantiruvchi ishlarining mohiyati shundaki, **ular** yordamida bolaning turli tuman bilish jarayonlari va **shaxsiy** xususiyatlari rivojlanishiga ijobiy turtki beriladi, ular **takomillashtiriladi**.

Psixolog ishining natijalari darhol namoyon bo‘lmaydi. **Shu** tufayli ko‘pincha tarbiyachi va ota-onalarning hafsalasi **pir** bo‘lib ketadi. Shuning uchun ota-ona va bog‘cha tarbiyachisi **ongiga** shuni yetkazish kerakki, psixologning ishi o‘qitish emas, **balki** rivojlantirish. Rivojlanish esa asta-sekin yuz beradi. **Shu** sababli bolaning rivojlanish jarayoni sezilmay o‘tadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan **rivojlantiruvchi** ishlarning asosiy shakli o‘yindir, chunki o‘yin ushbu davrdagi yetakchi faoliyat sifatida bolaning psixik rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Ayni vaqtda bola o‘yin davomida yangi bilimlarni egallab boradi.

## **1.10. Maktab psixologi ishining o‘ziga xos tomonlari**

Psixolog ishini nimadan boshlashi kerak?

Bugungi kunda ko‘pchilik umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘zining psixologlariga ega. Biroq shunga qaramay rahbar va o‘qituvchilar ko‘pincha psixologning qo‘lidan nima kelishi mumkinligini yaxshi tasavvur etolmaydilar. Ularga psixolog hamma muammolarini bir zumda hal qilib beradigandek tuyuladi. Ammo psixologning maktabda ish boshlaganidan keyin maktabda tashqi jihatdan hech narsa o‘zgarmaganini ko‘rishgach, ularda «Maktab psixologining o‘zi nima keragi bor?» degan savollar tug‘iladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, maktabdagi amaliy ish uchun psixolog o'rgangan nazariy bilimlar yetmay qoladi. Maktabga kelgach, psixologlar ko'pincha amaliyotning ular oldiga qo'ygan muammolaridan dovdirab qoladilar. Shunday ahvolga tushib qolmasligi uchun psixolog avvalo maktabga nima maqsadda borayotganligini aniqlashtirib olishi kerak. Psixologik xizmatning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, psixolog umumiy o'rta ta'lim maktabida quyidagi vazifalarni bajarishi talab etiladi:

1. Bolalarning har bir yosh bosqichida shaxs sifatida va intellektual jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, ularda o'z-o'zini tarbiyalash va rivojlantirish qobiliyatini shakllantirish.

2. Har bir bolaga individual yondashuvni va uning psixologik-pedagogik o'rganilishini ta'minlash.

3. Bolaning intellektual jihatdan va shaxs sifatida rivojlanish jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan chetga chiqishlarni profilaktika qilish.

Shunday qilib, psixolog maktabga avvalo bolalar uchun keladi. Lekin bu psixolog o'qituvchilar bilan ishlamaydi, degani emas.

Psixolog maktabda yengib o'tishi kerak bo'lgan birinchi to'siq — bu maktabning pedagogik jamoasiga qo'shila olishdir. Bordi-yu, psixolog bu murakkab organizmga qo'shilib keta olmasa, o'z ishida muvaffaqiyatga erishishi juda qiyin kechadi.

Bunga esa bir necha omil sabab bo'ladi. Ko'pincha o'qituvchilar psixologni bolalarni qanday qilib tarbiyalashni, qanday yashashni o'rgatuvchi inson sifatida ko'rib, dastlabki kezlardayoq unga nisbatan salbiy tushunchani shakllantirib oladilar. O'z-o'ziga ishonchi sust bo'lgan o'qituvchilar psixologni go'yo uning kamchiliklarini oshkor etuvchi shaxs sifatida idrok etib, uni qandaydir inspektor sifatida qabul qiladilar. Bular esa psixologning mavjud sharoitga tez ko'nikib, maktab hayotiga chuqur singib ketishga halaqit beradi.

Buning oldini olish uchun psixolog o'qituvchilar bilan o'zaro teng munosabatlarga kirishishi, ikkala taraf ham o'zini

bilag'on qilib ko'rsatmasligi, eng muhimi bir-birini raqib deb hisoblamasligi zarur. Shunga erishish kerak-ki, o'qituvchilar psixologni ularga yordam bera oladigan boshqa mutaxassis sifatida qabul qilsinlar.

Maktabdagi ilk qadamlardan oq psixolog ma'muriyatga ularning faoliyat doirasiga nimalar kirmasligini, mo'jizalar ko'rsatish uning qo'lidan kelmasligini tushuntirishi lozim.

O'qituvchi bilan bo'lgan suhbatda u yoki bu bolaning muammosi psixologik muammo bo'lmagani uchun u bo'yicha hech narsa qila olmasligini tan olishdan qo'rqmaslik kerak. Dastlabki qadamlarni qo'yishda ota-onalar bilan aloqa o'rnatish juda muhim. Dastlabki aloqa ixtiyoriy xarakterda bo'lishi va o'zi murojaat qilgan ota-onalar bilan amalga oshirilishi kerak. Buning uchun psixolog alohida kun va soatlarni ajratishi lozim.

Demak, umumiy o'rta ta'lim maktabida ishni boshlashdan avval psixolog:

— o'zining pedagoglar jamoasi va maktab ma'muriyati bilan bo'lgan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yishi;

— o'z ishining asosiy maqsadi — bu bolaning optimal rivojlanishini ta'minlash ekanini doim yodda saqlashi;

— o'zining faoliyatida profilaktik ishga u bilan bevosita bog'liq bo'lgan diagnostik va rivojlantiruvchi ishga alohida e'tibor bilan qarashi lozim bo'ladi.

### **O'qituvchi psixologning mijozi va yaqin hamkori**

O'qituvchilar ham alohida e'tibor talab qiladigan obyektidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, odatda o'qituvchilar psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyor bo'ladilar. Hamma gap psixolog o'zini qanday tutishiga borib taqaladi. Bunda psixologning o'qituvchilarga nisbatan egallaydigan pozitsiyasi juda muhim rol o'ynaydi.

Psixolog pozitsiyasining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

a) pedagog bilan munosabat;

b) pedagogni qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish;



d) sub'yekt — sub'yekt munosabatlaridan iborat tenglik va hamkorlik.

Mana shunday holat pedagoglar bilan bo'lgan ijobiy hamkorlikni ta'minlay oladi.

Dastlabki kezlarda psixolog o'qituvchilarga o'z yordamini haddan tashqari faollik bilan tiqishtirmasligi zarur. Kamtarona ravishda, agar zarur bo'lsa, yordam berishga tayyorligini ma'lum qilsa, shuning o'zi kifoya. Kimdir darrov hamkorlikka shoshiladi, kimdir birozdan so'ng, kimgadir umuman psixolog yordami kerak bo'lmaydi. O'qituvchilar bilan ishlashda bolada ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarga asosan o'qituvchi sababchi bo'layotganini ta'kidlab turishi kerak. Psixologning ishi «soyada» qolishi kerak. Shunda u pedagoglar orasida tan olinadi. O'qituvchilar bilan olib boriladigan individual ishlardan tashqari ular bilan seminarlar shaklida psixologik targ'ibot ishlarini olib borish maqsadga muvoviqdir.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad kimgadir o'z bilimlarini ko'z-ko'z qilish emas, balki pedagoglarning psixologik madaniyatini oshirishdir. Ushbu mashg'ulotlarni shunday tashkillashtirish kerakki, o'qituvchilar passiv tinglovchi bo'lib qolmasinlar. Buning uchun har bir psixologik ma'lumotga ularni o'z tajribalaridan misollar keltirishga undash kerak. Oxirida esa biror bir hazil aralash testni bajarish hammaga yaxshi kayfiyat baxsh etadi.

Har qaysi maktab psixologi oldidagi savol shuki «O'zim yordamimni taklif qilaymi yoki o'qituvchilar murojaat qilishini kutaymi?» Mayli bu savolga har kim o'z vaziyatidan kelib chiqib javob bera qolsin. Lekin psixolog bir narsani unutmasinki, o'qituvchilarning unga murojaat qilishi ularning pedagogik staji va tajribasiga bog'liq emas. Bu ko'proq ularning shaxsiy fazilatlariga: muloqotga kirishuvchanlik darajasi, xavotirlanuvchanlik, qiziquvchanligi, yangilikka ochiqligi va boshqalarga bog'liq. O'qituvchilar bolalar haqida har qanday uzoq muddatli psixologik tadqiqotlar natijalaridan ko'ra ko'proq narsa biladi. Ular bolalar bilan har kuni muloqotga kirishadilar va tabiiyki, ularga ta'sir etish uchun ko'proq imkoniyatga egalar.

Demak, shunday ekan, psixolog o'qituvchining yaqin hamkori va yordamchisi bo'lishi kerak. Psixologlar shuni unutmasinlarki, maktab hayotini o'ziga xos sahna asari deb tasavvur qilsak, undagi rollar quyidagicha taqsimlangan bo'ladi:

1. Bolalar. 2. O'qituvchi. 3. Psixolog. 4. Hisobchi. 5. Oshpaz. Hurmatli psixologlarga birinchi rol ajratilgan.

## **1.11. Psixologning mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari bilan olib boradigan ishlari**

Psixologning mehribonlik uylarida olib boradigan ishlarining o'ziga xosligi 1987-yildan boshlab bolalar uylari (hozirgi mehribonlik uylari) va maktab internatlarda psixolog shtati joriy etildi.

Shu narsa ma'lumki, ilk bolalik davridanoq (1–3 yosh) internatlarda tarbiyalanayotgan bolalar bir qancha psixologik xususiyatlari bilan oilada tarbiyalanuvchi bolalardan farqlanadilar: ba'zi xususiyatlarda ushbu masalalarda tarbiyalanuvchi bolalar oddiy maktabdagi bolalar bilan barobar va hatto, ulardan ustunroq bo'lsa, ayrim xususiyatlari bilan ulardan hatto o'zidan kichik yoshdagi o'quvchilardan ham orqada qoladilar. Afsuski, bunday holat butun maktab yoshi davrida saqlanib qoladi.

Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, psixologik rivojlanishda orqada qolish ancha barvaqt, maktabgacha yosh davridayoq vujudga keladi. Uni bartaraf etish ishi maxsus muassasalarda yetarli darajada olib borilmasligi oqibatida ular keyingi yosh bosqichlarida yanada chuqurlashib ketadi.

Mehribonlik uylari yoki maktab-internatlarda ishlay boshlar ekan, psixolog me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilganidek, quyidagilarni amalga oshirish talab etiladi: ota-onalar qaramog'isiz qolgan bolalar bilan mehribonlik uylari hamda internat tipidagi muassasalarda olib boriladigan psixolog ishi ushbu muassasalar tarbiyalanuvchilarining psixologik jihatdan to'laqonli rivojlanishini ta'minlash, shaxs sifatida va intellektual rivojlanish xususiyatlarini, ta'lim-tarbiya jarayonidagi buzilishlarning psixologik sabablarini tashxis

qilish va bunday buzilishlarni bartaraf etish uchun profilaktik tadbirlar o'tkazishga yo'naltirishi kerak. Psixolog bola hayotidagi ro'y bergan fojيانing bola psixik rivojlanishiga ta'sir etishini susaytirish va tegishli psixologik metodlarni o'tkazish orqali bola shaxsi shakllanishini ta'minlashi lozim.

## **SOS — bolalar qishloqchasining ish tajribasidan**

SOS — bolalar qishloqchasi — bu etim qolgan yoki ota-ona qarovsiz qolgan bolalar bilan ishlashning o'ziga xos usuli. Bu usulga avstriyalik pedagog German Gmayner asos solgan. Bugungi kunda u dunyoning 124 mamlakatida keng qo'llanib kelmoqda.

SOS — bolalar qishloqchasi bir necha kottedj-uylardan iborat. Ularning har birida «ona» va 6 — 8 ta bola yashaydi. Bu bolalar yoki ota-onasidan etim qolgan yoki ularning ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan. Qishloqda hech kim ulardan haqiqiy hayotlarini va ularga «onalik» qilayotgan odam aslida onalari emasligini yashirmaydi. Bolalar qishloqchasidagi alohida uylarda onalarning yordamchilari — «xolalari» ham yashaydi. Ular dam olish kunlari, «ona» kasal bo'lib qolganda yoki biror ish bilan uydan ketganda «ona» ning o'rmini bosadilar. Qishloqchani direktor boshqaradi. U qishloqchadagi alohida uyda oilasi bilan birga yashaydi. Direktorlik vazifasidan tashqari u qishloqchadagi barcha bolalarga ota va erkak kishining namunasidir. Albatta, qishloqchada boshqa erkak kishilar:

— direktor o'rinbosari, usta, haydovchi, xavfsizlikni ta'minlash xodimi ham bo'ladi. Shu bilan birga qishloqchanning faoliyat ko'rsatishida psixologning ishiga alohida e'tibor beriladi. Psixolog ham bolalarga, ham «ona» larga, ham xodimlarga yaqindan yordam ko'rsatadi.

## **Mehribonlik uylari psixologinig shaxsiy fazilatlarini**

Mehribonlik uylari shunday tarbiyaviy muassasadir-ki, ularda ishlaydigan psixolog chuqur bilimlari bilan bir qatorda

ma'lum bir shaxsiy sifat va transportlarga ega bo'lmog'i lozim. Bunday xususiyatlar qatorida quyidagilar asosiy o'rin tutadi:

1. Bolani sevish.
2. Odamlarga bo'lgan qiziqish.
3. Psixologik muvozanatni saqlay olish.
4. Qiyinchiliklarga bardosh berish.
5. Jamiyatda yashashni, ilm o'rganib, bilim berishni bilish.
6. O'rganishni bilish.
7. Realizm, hamma narsaga reallik nuqtayi nazaridan qarash.
8. Bolalarga yoqishni bilish.
9. O'z-o'zini yaxshi anglash va his etish.
10. Ichki kuch-quvvatga ega bo'lish.
11. Kirishimli bo'lish.
12. Yaxshi salomatlikka ega bo'lish.
13. Bag'rikeng va hazilkash bo'lish.

Ota-onasi mehridan mahrum bo'lgan bolalar bilan ishlashga kirishishdan oldin psixolog o'zidan ana shu sifatlarni qidirib ko'rmog'i lozim. Topsa — yaxshi! Topolmasa-chi? Unda izlansin. Albatta, ota-onaning chin mehriga bo'lgan chanqoqni hech qanday sun'iy yo'l bilan qondirib bo'lmaydi. Biroq psixolog bolalarning psixologik jihatdan normal rivojlanishini ta'minlashi kerak.

Turli tuman bolalar muassasalarida psixolog olib boradigan ishlarning mazmuni, ularga xos xususiyatlarning qisqa tahlili shuni tasdiqlaydiki, haqiqatdan ham psixolog faoliyati muassasa turiga ko'ra farqlanadi.

## **II BOB. AMALIY PSIXOLOG — MAKTABDA**

### **2.1. Maktabga qanday psixolog kerak?**

— *Nazariy psixologiyadan amaliy psixologiyagacha bir qadam, lekin uni amalga oshirish juda qiyin.*

*(Ikki nazariy psixologlarning suhbatidan).*

Haqiqatdan ham maktabga qanday psixolog kerak? Qiziq savol. «Har xil» psixologlar mavjudmi?

Ha albatta! Har xil kasblar, ularga mos har xil psixologlar mavjud. Maktabda o'zlarini psixolog deb hisoblaydigan shaxslar oldiga borganingizda, har xil insonlarni uchratasiz. Sizning ko'z oldingizda kam gap, hech kimga qo'shilmaydigan, uncha

o'ziga tortmaydigan inson namoyon bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, hamma bilan chiqishib ketadigan, xushchaqchaq, sergap, chiroyli inson gavdalanishi ham mumkin. Natijada siz har xil kutilmagan taassurotlar olasiz.

Biroq shu narsa qiziqki, barcha insonlar turlicha kasbga, bilimga va kasbiy xulq-atvorlariga ega bo'lsalar-da, o'zlarini psixolog deb sanaydilar. Ba'zan «Qancha insonlar mavjud bo'lsa, shuncha psixologlar mavjud», — degan gapni eshitib qolamiz. Biroq psixologiya — mualliflik kasbi bo'lib, unda insonning individualligi, ichki ruhiy dunyosini bilish qobiliyati namoyon bo'ladi.

Bulardan tashqari, har bir psixologning individual kasbiy stilistika muammosi mavjud. U qanday mavzuni tanlaydi? Kasbidagi uning qiziqishlari qanday? Umuman, u nima uchun psixologiyaga kelgan? U nima bilan shug'ullanishni istaydi? Ishida qanday usulni afzal ko'radi? Qaysi yoshdagi mijozlar bilan ishlash afzal?

Har xil psixologlarning ishdagi farqi, ularning shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib qolmay, «psixologiya» deb nomlangan umumiy kasbiy sohadagi: **nazariy psixologiya, eksperimental psixologiya, amaliy psixologiya va psixokorreksiya** kabi kasblar bilan ham bog'liqdir.

**Nazariy psixologiyada** amaliy psixologiya bilan bog'liq bo'lmagan fikrlar kurashi davom etadi: eski nazariyalarning barbod bo'lishi va yangilarining shakllanishi, g'oyalar, ilmiy maktablar va yo'nalishlarning bir-biriga qarshi chiqishi, tafakkurning yangi usullari va mantiqning vujudga kelishi, taraqqiyotning eski qonunlari ochilishi. Nazariy psixologiyada inson psixikasi anatomic kesimlarda o'rganiladi, ya'ni psixologik ko'rinishining jarayonlari, funksiyalari turlari sifatida o'rganiladi.

Nazariy psixologiya maktab amaliyoti ehtiyojlarini qondirishga bevosita xizmat qilmasa-da, u jamiyatga shuning uchun kerakki, unda inson tafakkuri kuchlarining o'ziga xos o'yini sodir bo'ladi. Nazariy psixologiya maktabga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatmasa-da, «maktab g'oyalari»ning shaklla-

nishiga ta'sir etadi: o'quvchiga munosabat, ta'lim va tarbiya konsepsiyalarini ishlab chiqish, maktabning boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorligi maktab ta'limi rivojlanadigan yo'nalish bo'yicha jamiyatning diniy va milliy qadriyatlar tizimini ishlab chiqish.

**Eksperimental psixologiya** akademik institutlarda ko'proq insonning ruhiy hayoti haqidagi fikrlarni yig'ish va umumlashtirishga yo'nalgan. Umuman, eksperimental psixologiyadagi faktlarni yig'ish faqat amaliy ehtiyojlar uchungina emas, balki nazariy psixologiyaning rivojlanishi uchun ham xizmat qiladi. Eksperimental psixologiya hayot va amaliyotdan uzoq bo'lgan laboratoriya sharoitida o'rganiladi va nazariy g'oyalarni tasdiqlash uchun xizmat qiladi. Nazariy va eksperimental psixologiyada amaliyotdan uzoq bo'lgan, fanga qiziqqan, aqli va xarakteri o'ziga xos bo'lgan insonlar ishlaydi.

**Amaliy psixologiya** bo'lsa inson mehnat faoliyatining har xil sohalariga xizmat qiladi, jumladan tibbiyot psixologiyasi, pedagogik psixologiya, biznes psixologiyasi va hokazo. Amaliy psixologiyaning har bir yo'nalishida o'ziga xos usullari mavjud. U yoki bu mehnat turida ish olib boruvchi psixolog uning o'ziga xosligi va atamallari bilan tanish bo'lishi kerak. Masalan, pedagogik psixologiya sohasida ishlaydigan psixolog maktab o'qituvchisi mehnatidan chuqur xabardor bo'lishi, qiyinchiliklari va muammolarini bilishi, maktab hayotini, o'quvchilarni yaxshi bilishi zarur. Amaliy psixologning muvaffaqiyatli ish olib borishida pedagogik jamoaga qo'shila olishi va ular tomonidan ijobiy qabul qilinishi muhim omil hisoblanadi.

Psixologiyadagi psixopraktika yo'nalishi hayotimizda har doim mavjud bo'lgan, so'nggi vaqtlarda bu yo'nalishga qiziqish ortdi. Bu insonning ruhiy holatini boshqarishga, uning ruhiy kuchlarini takomillashtirishga va rivojlantirishga psixotexnik mashqlar tizimi bilan bog'liq. Respublikamizda sharq psixopraktikasi hamda g'arbda yaratilgan va moslashtirilgan psixoterapevtik dasturlar (geshtalterapiya, psixodramma, transaktahlili, neyrolingvistik dasturlash va boshqalar) keng tarqalgan.

Psixopraktika har bir turining asosida inson hayotiga yaqin bo'lgan holat ma'lum konseptual tamoyillar tizimi yotadi va ular muallifning shaxslararo munosabati va hayotni kuzatishlari asosida sodda shaklda bayon etiladi.

Asosiy muammo bo'lmish «Maktabga qanday psixologiya kerak?» degan savolga to'xtalamiz. Psixolog maktabga ko'proq foyda keltirishi va murakkab, hayotiy vaziyatlarda o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalarga yordam bera olishi uchun qanday kasbiy pozitsiyani egallashi kerak?

Bu haqda birgalikda o'ylab ko'ramiz. Tasavvur qiling, maktabga nazariyotchi, akademik psixolog yoki tadqiqotchi psixolog keldi. Qanday holat yuz beradi? Nazariyotchi psixolog ta'lim va tarbiyaning mavhum, nazariyaga asoslangan konsepsiyasini yaratadi, maktabda seminarlar tashkil qiladi, har bir o'qituvchiga o'qib chiqish uchun ilmiy adabiyotlarning uzun ro'yxatini tavsiya etadi, pedagogik jamoaga murakkab nazariy ma'ruzalar o'qiydi. Ko'p o'tmasdan nazariyotchi psixolog «oliy psixologiya»ga befarq bo'lganligidan o'qituvchilardan xafa bo'ladi, o'qituvchilar bo'lsa sekin asta psixolog bilan muloqotdan qocha boshlaydi, chunki ular bu «oliy psixologiya» o'qituvchi mehnatiga tegishli emasligini tushunadilar. Nazariyotchi psixologning maktabni kichik psixologiya institutiga aylantirishga urinishi muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

O'qituvchilar maktabga psixologiya kerak emas, degan xulosaga keladilar. Psixologlar bo'lsa psixologik g'oyalarni targ'ib qilishga hali maktab tayyor emas, degan xulosa chiqaradilar.

Bu vaziyatda nazariy psixologiya va maktab o'rtasida bog'lanish bo'ladi. Boshqa vaziyatni qarab chiqamiz.

Maktabga psixolog ishlash uchun keldi. U o'zining «ishchi muammosini» tanlaydi, tadqiqot obyektini aniqlaydi, tajriba qiladi, murakkab diagnostik metodikalarni va boshqa metodikalarini qo'llaydi, eksperimental material yig'adi, ularni qayta ishlaydi va jurnalga maqola yozadi. Ko'pincha o'quvchilar va o'qituvchilar ishtirok etgan tadqiqot ishlari haqida ma'lumot berilmaydi. Agar psixolog tadqiqot natijalari bo'yicha maktabda ma'ruza qilsa-da, ko'proq «taraqqiyot darajalari, tadqiqot

metodlari», «korreksion bog‘lanishlar» haqida to‘xtalib o‘tadi. Bunday tahlilda o‘qituvchilar o‘zlari haqida hech narsa bilib olmaydilar.

Psixolog o‘qituvchilar va o‘quvchilar bilan shaxsiy aloqa o‘rnatmaydi. Natijada o‘quvchilar va o‘qituvchilar turli tadqiqotlarda ishtirok etishdan qocha boshlaydilar, chunki ular bularning bari o‘quvchilarga yoki maktab ma‘muriyatiga kerakligini tushunadilar. Ular: «Biz inson sifatida psixologga kerak emasmiz. Biz unga faqat tajriba o‘tkazish uchun kerakmiz»,— deya boshlaydilar. Keyin nima bo‘lishi mumkin? Oxirida psixolog bu maktabdan ketadi, eksperiment o‘tkazishga qulayroq boshqa maktabni izlaydi: uning faoliyati kengayib boradi, maktablar bo‘yicha qiyosiy tahlil qilish uchun imkoniyatlar kengayadi. Maktabga qanday psixolog kerakligi haqidagi savol hamon ochiq qolmoqda. Eksperimental psixologiya ham, sof nazariy psixologiya ham maktabga kerak emas.

Qanday psixologiya maktabda «yashab» ketadi? Qanday psixologiyani maktab o‘zining yaxshi yordamchisi sifatida quloq ochib kutib oladi?

Maktabga pedagogik professional sohaga xizmat qiladigan amaliy psixologiya yo‘nalishi hisoblanmish, amaliy pedagogik psixologiya kerak. Psixologiya tavsiyalari, yordami, qo‘llab-quvatlashi bilan o‘qituvchilar va o‘quvchilarning hayotiga to‘liq kirib borishi kerak. Sinflarning bo‘linishi, dars jadvalini tuzish, o‘quvchilarga individual yondashuv, ta‘lim, o‘quvchi va o‘qituvchilarning shaxsiy muloqoti, bolalarning qobiliyatlarini baholash, korreksion ishlar, maktabdagi nizolar va ularni boshqarish, ota-onalar bilan suhbat va boshqa ko‘pgina savollarni psixolog hal qilishi lozim. Bulardan tashqari, o‘qituvchi mehnatining juda og‘irligi va o‘quvchilarda ma‘lum his-tuyg‘ularning mavjudligi sababli maktabda psixopraktikaning u yoki bu texnikasi — o‘qituvchilar va o‘quvchilarning ish qobiliyatini oshirishi uchun, reaksiya (charchoq va qo‘rqinch holatlarini yo‘qotish) mashqlarini qo‘llash darkor.



Maktab psixologi — bu o'qituvchilar bilan chiqisha oladigan, pedagogik jamoa tomonidan tan olingan, ota-onalar va o'quvchilar orasida kasbiy obro'ga ega bo'lgan psixolog amaliyotchidir. Unga maktab hayoti yaqin va tushunarli, u ko'pgina psixologik-pedagogik jamoalar bilan shug'ullanishga, psixodiagnostik va psixokorreksion ish usullarini egallashga tayyor. Boshqacha aytganda, maktab psixologi bu har tomonlama etuk va bilimli inson.

Agar psixolog nazariyotchi — psixologlarning seminarlariga doimo qatnashib, turli xil psixologik assotsiatsiyalarga a'zo bo'lsa, bularning bari uning mutaxassis sifatida o'sishiga, maktab hayotidagi odatiy faktlarga yangicha qarashning shakllanishiga olib keladi. Maktab psixologi nashr qilingan ishlarni o'qib, eksperimental tadqiqot natijalari bilan qiziqib tanishishi mumkin. Maktab amaliyotiga yaqin faktlarni bilish dunyoqarashni kengaytiradi, maktabdagi ishlarni va o'z muvaffaqiyatlarini to'g'ri baholash imkoniyatini beradi.

Shunday qilib, psixologiya maktabga kerak. Qanday psixologiya degan savol tug'iladi? Turli psixologiya sohalaridan maktabda amaliy psixologiya va psixopraktika ko'proq kerak. Nazariy va eksperimental psixologiya maktabga emas, maktab psixologiga mutaxassis sifatida o'sishi uchun kerak.

## **2.2. Kasbga yo'l: maktab psixologining mahorati**

Siz qanday psixologga borar edingiz? Ko'p kitoblarda maktab psixologi egallashi zarur bo'lgan xislatlar bayon etilgan. Bu barcha xislatlar — xarakter, aql, iroda bir kishida mujassamlashsa, hech kimga xos bo'lmagan mavhum ideal hosil bo'ladi. Natijada o'ziga ishonmaslik yuzaga keladi: «Yo'q, men hech qachon bunday bo'la olmayman». Ichki ishonchsizlik psixologga halaqit beradi. Qandaydir taklif bilan qat'iy chiqishga qo'rqadi, o'zini aybdor his qila boshlaydi. Buning natijasida uning mutaxassis sifatida o'sishi sekinlashadi.

Biz kitoblarda yozilganiday emas, balki o'zimizning — shaxsiy istak, xohish ehtiyojlarimizdan kelib chiqib harakatlanamiz. O'zimizga shunday savol bilan murojaat qilamiz: «O'zimni qiynagan muammo bo'yicha qanday psixologga borar edim».

«Men tanladim» mashqi. Sizning oldingizda maktab psixologlari portretlari turibdi. Ular hayotdagidek, xilma xil. Qaysinisini yoqtirishingizni ayting: o‘z muammoingiz bo‘yicha ularning qaysisiga murojaat qilgan bo‘lar edingiz?

**1- portret.** Maktabda yosh qiz psixolog bo‘lib ishlaydi. U ko‘zoynak taqadi, aqlli, bilimli, o‘ziga ishonadi. U erkin, qat‘iy, rasmiy murojaat qiladi. Hamma narsani biladi va qila oladi. O‘qituvchilarning savollariga «Bunday qilish kerak, siz bo‘lsangiz hammasini noto‘g‘ri qilasiz?..» — deb javob beradi.

**2- portret.** Maktab psixologi — 30 yoshlardagi sekin harakat qiladigan yigit. U doim jinsi va uzun svitrda yuradi. Maktabda ko‘pchilik bilan gaplashmaydi, o‘z xonasida jim o‘tirib ishlaydi. Ko‘zlari ma‘yus, o‘ziga tegishli nima haqidadir o‘ylaydi. O‘qituvchilarning savollariga o‘ylanib: «E-e-e, Bilasizmi, bu murakkab muammo»,— deb javob beradi. Uzoq davom etgan suhbatdan so‘ng sekin asta ko‘p narsa tushunarli bo‘lib boradi.

**3- portret.** Maktabda sobiq o‘qituvchi K.L. psixolog bo‘lib ishlay boshladi. U psixologik kursni bitirib kelgan. Maktabda psixolog nima ishlar qilishi kerakligini hali aniq bilmaydi. U o‘z kuchiga ishonmaydi. Lekin u ochiq ko‘ngil, mehribon, hayotiy tajribaga boy.

**4- portret.** 35 yoshli erkak kishi psixolog bo‘lib ishlaydi. Psixologiya fakultetini sirdan tugatib, ikki yil oldin maktabga keldi. Ilgari qaysidir ilmiy tekshirish institutida injener bo‘lib ishlagan. Gapga chechan va kirishimli, hazilkash maktabga kelgan kundan boshlab o‘rta va yuqori sinf o‘quvchilari u bilan do‘stlashib olishdi, milliy kurash bo‘yicha to‘garak tashkil qilishdi, turistik sayohatlarga borishdi. O‘qituvchilar hayron: tanaffus va darslardan so‘ng psixolog xonasi oldida bolalar gavjum. Nima haqdadir bahslashishadi, musiqa tinglashadi. U hech kimni ataylab chiqarmaydi, o‘zi ham qiziqib bahslashadi, ko‘pchilik unga intiladi.

**Siz kimni tanlashingizni aniqladingiz?** Bo‘sh kvadrat ichiga muammoingiz bo‘yicha qaysi psixologga murojaat qilishingiz mumkin bo‘lsa, o‘sha psixolog portreti raqamini yozing.



Nima uchun aynan shu psixologni tanlaganingizni muhokama qilamiz?

Psixologik maslahatdan qoniqish hosil qiladigan sizning rasmiy iltimosingiz nima? Siz maktab psixologidan nima kutasiz?

Agar siz maktab psixologi sifatida yosh qizni (1- portret) tanlasangiz qanday bajarish, qanday harakat qilish, qanday qaror qabul qilish haqida maslahat berishga muhtoj. Sizning muammoingizni hal qilib, uni tahlil qilib, sizga yo'l ko'rsatishlarini xohlaysiz.

Muammoingizni mustaqil hal qila olmaysiz, bunga yetarli kuch va ishonchni his qilmaysiz, xato qilishdan qo'rqasiz.

Agar siz 2- portretda tasvirlangan psixologni tanlasangiz, muammoingizni qanday yechishni ko'rsatishlarini emas, uni muhokama qilishni xohlaysiz. Siz muammoli vaziyatning barcha nozik tomonlarini va qiyinchiliklarni hisobga olgan holda tahlil qilishni xohlaysiz. Sizga qiyinchiliklaringizning obyektiv tahlili kerak, qarorni mustaqil qabul qilasiz.

Siz 3- portretda tasvirlangan psixologni tanladingiz. Sizga faqat hamdard bo'lishlarini xohlaysiz. Sizni begonalashtirmasdan tinglashlariga umid qilasiz. Faqat tinglab, bosh chayqab qo'yish emas, balki chin ko'ngildan eshitib ruhan tushunib, yordam berishlarini his qilasiz.

Siz 4- portretda tasvirlangan psixologni tanladingiz. Sizning muammoingiz o'smir o'g'lingizni tarbiyalash qiyinchiliklari bilan bog'liq. Siz psixolog bilan quyidagilarni maslahatlashmoqchisiz: farzandingiz bilan qanday qilib yaxshi munosabat o'rnatish mumkin, unga qanday qilib ta'sir qilish mumkin? Quyidagi savollarga javob izlaysiz: nima uchun psixolog bolalar bilan kirishib ketgan, ular psixologning fikrini qadrlashadi va unga intilishadi? Nima uchun sizning farzandingiz bilan munosabatingiz «boshi berk ko'chaga» kirib qoldi?

Shunday qilib, siz muammoingiz bo'yicha qaysi psixologga murojaat qilishni aniqlab oldingiz. Bu yerda maktab psixologlarining 4 portretigina tasvirlandi, hayotda ular xarakteri, kasbiy mahorati bo'yicha juda ko'p. Siz qaysi psixologni maktabga chin dildan qabul qilasiz, qiyin hayotiy yoki kasbiy vaziyatlarda ishonch bilan murojaat qilishingiz mumkin? Bu haqda o'ylab ko'rsa arziydi.

**«Mening kasbiy obrazim» mashqi.** Maktab psixologi qanday bo'lishi kerakligi haqida har birimizning shaxsiy tasavvurimiz mavjud. Men sizga o'z tasavvuringiz bilan ishlashni taklif qilaman. Toza qog'oz oling. Maktab psixologi bo'lib ishlash mumkin bo'lgan mutaxassisning ichki va tashqi obrazini tasvirlang:

- yosh va jinsdagi afzalliklarni ko'rsating (sizningcha);
  - uning urinishi? Kiyinishi? Maktabda o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar bilan o'zini qanday tutadi?
  - bu insonning xarakteri qanday?
  - muloqotchan, kamgap, serharakat, o'zini tutib olgan, qat'iy, yumshoq, prinsipial yoki yon bosuvchi;
  - ishda qanday kasbiy bilim va ko'nikmalarga ega?
- Maktabda nima ish qiladi? Birinchi navbatda nima bilan shug'ullanadi?

— maktab psixologining yana qaysi shaxsiy va kasbiy xususiyatlarini ta'kidlagan bo'lar edingiz?

Maktab psixologining hosil bo'lgan «psixologik portretini» o'qib chiqing. Xayolomizda o'zingiz yaratgan psixologga o'xshashga harakat qiling. Sizda hammasi amalga oshadi, chunki o'z professional — psixolog idealingizni o'zingiz yaratdingiz. Siz yaratgan portretida sizning xarakteringiz va tashqi ko'rinishingiz belgilari mavjud. Sizning kasbiy intilishlaringiz va maqsadlaringiz aks etgan. O'z ustingizda tinmay ishlang!

Kasbiy mahoratingizni oshirishga yordam beradigan mashqlarni taklif etamiz.

**«Ular kimni tanlashadi?» mashqi.** Sizga maktab amaliyotidan olingan 3 ta misol taklif etiladi. Bu yerda maktab psixologiga murojaat qilgan insonlarning so'zlari va monologlari

keltirilgan. Agar tanlash imkoniyati mavjud bo'lsa, ular yuqorida tavsiflangan qaysi psixologni tanlashardi.

«— Men boshlang'ich sinf o'qituvchisiman. Turmush o'rtog'im bilan kelishmovchilik paydo bo'lguncha, menda hammasi yaxshi edi. Mening doimo bolalar haqida qayg'urishimni, turmush o'rtog'im yoqtirmasdi. Ba'zan nima qilishni, maktabga borishni ham, uyda qolishni ham, umuman yashashni ham istamayman».

Bu ayol qaysi psixologni tanlagan bo'lar edi (psixologik portret raqamini ko'rsating)? U nima uchun aynan shu psixologni tanlaganini tushuntirib bering? O'z fikringizni asoslang.

«— Mening ismim Sarvar, 7 «A» sinfda o'qiyman. O'qituvchi meni yomon ko'radi? Men Sardorga o'girildim! Daftaram bilan Ozodani turtdim! Uy vazifalarini bajarmadim! Kundalik daftaramni uyda unutilib qoldiribman. Sinfda hamma kundalik daftarini qoldirgan, u faqat mendan so'raydi! Meni doimo ahmoq deb ataydi! Hammasi jonga tegdi! Darsga borgim kelmaydi».

Bu yigit o'z xohishiga ko'ra qaysi psixologga boradi? (ixtiyoriy, sinf rahbarining ko'rsatmasini kutmasdan) Sizningcha nima uchun? «Gulmira aqlli va juda chiroyli qiz! U hamma ishni bajara oladi: toza qilib supuradi, dazmol qiladi, darslarini qiladi. Ota-onasi so'zini ikki qilmaydi.

O'qituvchisi bo'lsa, uni yoqtirmaydi! Turmushga chiqmagan o'qituvchi Gulmiraga yomon baholar qo'yadi! Biz hatto turmush o'rtog'im bilan direktorga ham bordik, nafi bo'lmadi. Endi bunday davom etishi mumkin emas. Qizimni boshqa maktabga o'tkazishga qaror qildik!».

Bu ota-onalar qaysi psixologni tanlaydilar?

Sizningcha, ular qaysi psixologga maslahat uchun murojaat qilishsa, foydali bo'lardi?

Siz nima uchun shunday deb o'ylaysiz? Fikringizni asoslang.

Shunday qilib, psixologning o'z kasbidagi mahorati, ishni boshlashda va keyin davom ettirishda eng asosiy muammo

hisoblanadi. Psixologning maktabdagi faoliyatining muvaffaqiyati shaxsiy va kasbiy o'zini aniqlashiga bog'liq: kasbiy yordamning mahsuldorligi maktabda kasbiy obro'ga ega bo'lishga hamda o'zining maktabga, o'qituvchilarga, bolalarga, ota-onalarga kerakli ekanligini his qilishga bog'liq.

Amaliy psixologning shaxsiy va kasbiy o'zini aniqlashi yillar davomida hayotiy va kasbiy tajribaning to'planishi, o'z imkoniyatlarini sinab ko'rish, ichki yetuklik va yutuqlar bilan quvonish, xato va kamchiliklardan o'kinish hissi bilan amalga oshadi.

«Psixologiya qirq yoshlilarning kasbi!» — deb bejiz aytishmaydi.

**Maktab psixologining kasbiy psixogigienasi.** Maktab psixologlari o'z kasblarida ko'pincha insonlar hayotidagi qiyin daqiqalarda ish olib boradilar. Psixologga xavotirlanish, qo'rqish, muammolar, afsuslanish, xatolar, kulfatlar bilan murojaat qiladilar. Bularga qanday munosabatda bo'lish kerak? Psixolog bunday vaqtlarda o'zini qanday tutishi zarur, shaxsiy muammolar va mijozlar muammolari ta'siriga berilmaslik, optimist bo'lish, ichki faol tonusni qanday ushlab turish mumkin?

Tasavvur qiling: sizning oldingizga o'quvchilardan birining onasi kelib o'zining shaxsiy muammosi — ko'p yillik, baxtsiz, javobsiz sevgisi haqida gapirib berdi. Bu sevgi uning hayotini barbod qilgan. U ko'z yoshlarini to'kar, toshdek qotib, hayotga befarqlik haqida gapirardi. Sizga ham (Siz psixolog bo'lsangiz-da) ruhan qiyin: yaqin kishingiz uydan ketib qolgan. Bunday vaqtlarda sizning ham yashagingiz kelmaydi, bunday vaqtda yana maslahat ham berish kerak.

Maktabdagi xonaningizda — dunyo ko'ziga qorong'u ko'ringan yuqori sinf o'quvchisi, yangi mijoz o'tiribdi. Uning yuzlari ko'kimtir, tamakini ketma-ket chekardi, oilasi, qizi, o'zi haqida bafurja, batafsil gapirmoqda. U sizning yordam berishingizni juda xohlaydi. Siz bor kuchingiz ila yigit bilan muloqotga kirishasiz. U tinchlanib uyiga ketadi. Siz o'zingizni juda charchagan his qilasiz, shaxsiy tashvishingiz sizga kuchli

ta'sir qiladi: uyingizda ko'p oylardan beri, og'ir dard chekayotgan otangiz yotibdi.

Nima qilish kerak? Boshqa odamlarni qo'llab-quvvatlash uchun qayerdan kuch topish mumkin, agar sizning o'zingiz yordamga muhtoj bo'lsangiz?

Aniq ishlab chiqilgan reseptlar bu yerda yo'q, bo'lishi ham mumkin emas. Har bir inson, tabiiy har bir psixolog — bu individuallikdir. Bir insonni dushdagi sovuq suv o'ziga keltirishi mumkin, boshqa birovni deraza oldidagi gulning chiroyli ochilib turishi ruhiyatini ko'rsatishi mumkin.

Ma'lum bo'lishicha, maktab va amaliy psixologiya kasbiy psixologik himoya vositalarisiz faoliyat ko'rsata olmaydi.

Sahnaga chiqayotgan aktyorday, psixolog ham o'z hissiyotlarini ifodalab, yomon rol o'ynash mumkin emasligini bilishi lozim. Kuchli, har doim yordamga tayyor, kasbiy formada bo'lishi kerak.

Bunga qanday erishish mumkin?

Tajribali psixologlar o'zlarini qanday tutadilar?

Bu savollarga psixologlar har xil javob beradilar.

«Ishga ketayotib, uyimning eshigini qulflaganimda, fikran o'zinga o'zim shunday deyman: «Mening hamma muammolarim uyda. Ishda men kuchli, faol, yaxshi kayfiyatda bo'lishim kerak».

Men uchun eshikni yopish — bu chiziq. Bu chiziq ortida — mening uydagi muammolarim. Oldinda — mening ishim, unda shaxsiy muammolarimga o'rin yo'q».

*(Ayol psixolog bilan suhbatdan).*

«— Men kasalxonaga borayotganimda xalat kiyaman, kalitni cho'ntagimga solaman. Men bu ishlarni bajarganimda, boshqacha bo'lib qolaman. Men xalat kiyib kasalxonaga borayotganimni anglayman.

Ikki kishi: kasal va mendan men sog'lomroq bo'lishim kerak. Bu mening umuman sog'lig'imni, menda xafalik, afsuslanish, kasallik alomatlari yo'qligini bildirmaydi. Lekin ma'lum bo'lishicha, unga qiyin, u menga muhtoj.

Men mutaxassisman, men sog' bo'lishim kerak. Shaxs sifatida ruhan men undan kuchli bo'lishim zarur. Bo'lmasa, men xalatni kiymasligim, ishga bormasligim kerak. Tushunasizmi?»

*(Psixologiya fanlari doktori B. Bratus.)*

**«Mening yaxshi kayfiyatim» mashqi.** Kayfiyatingizni ko'tarish, qo'rqinchli fikrlardan xolos bo'lish, ishga psixologik tayyorlanish uchun nima ishlar qilasiz?

Ikkita toza qog'oz oling. Birinchi qog'ozga sizni bo'shashtiradigan, kuchsizlantiradigan, kayfiyatingizni tushiradigan, ishga tayyor emasdek his qiladigan harakatlar, mashg'ulotlarni yozing. Hozir qancha yozolsangiz, barchasini yozing.

Masalan, siz faqat ikki harakatni yozdingiz. Hayotingizdagi qiyin harakat ikkitagina bo'lsin.

Ikkinchi qog'ozni olib, insonlar bilan muloqotda eng yoqimli bo'ladigan 10 ta holatni yozing. Kim bilan bo'lish sizga juda yoqadi, kim bilan birga bo'lish yaxshi? Kim bilan birga bo'lish qiziq, kim bilan birga bo'lish quvonchli?

Siz dam oladigan 10 ta faoliyat turini ham yozib chiqing. Masalan: xonaki gullarni o'stirasiz, rasm chizasiz, to'qiyisiz va hokazo.

Quyidagi savollarga javob bering.

— Sizga ichki qoniqish hissini beradigan mashg'ulot bilan ko'pincha shug'ullanasizmi?

— Agar yo'q desangiz, nima uchun?

— Sizga yoqimli bo'lgan ichki energiyangizni, hayotiy tonusingizni ko'taradigan mashg'ulot bilan shug'ullanishga nima halaqit beradi?

O'zingizga xulosa chiqaring, kasbingizda muvaffaqiyatli ishlashga tayyor bo'ladigan, sizni faol kuchli bo'lishingizga yordamlashadigan individual usullaringizni aniqlang. Shuni yodda tutish lozimki, psixologik o'ziga-o'zi yordam berish mahsuldorligi o'zimizga bog'liq.



## 2.3. Psixologik kasbda qanday qilib o‘z o‘rnini topish mumkin?

Psixologiya fakulteti talabalari va endigina maktabga kelgan psixologlarga ko‘p muhim savollar berishadi, bu savollarga bir xil javob berish mumkin emas.

Psixologiyada individual maslahat berish yoki guruhiiy treninglar o‘tkazish bilan shug‘ullanish yaxshimi?

— Ota-onalar o‘qituvchi va o‘quvchilar bilan muloqotda yumshoq bo‘lgani yaxshimi yoki qat’iy turgani yaxshimi?

— Menga ko‘proq qaysi psixotexnika to‘g‘ri keladi: «geshtaltterapiyasi, psixodrammami yoki tana terapiyasi?

— Qaysi yosh davri bilan shug‘ullanganim yaxshi: kichik maktab o‘quvchilari, o‘smirlar, o‘spirinlar?

— Qaysi muammoni tanlaganim yaxshi?

— O‘zim bir necha marta turmushga chiqib, hozir ajrashib, yolg‘iz yashayotgan bo‘lsam, oilaviy juftlarga maslahat bera olamanmi?

— O‘zimning bolalarim yo‘q bo‘la turib (bo‘lmasa ham kerak), ota-onalarga farzandlar tarbiyasi bo‘yicha maslahatlar bera olamanmi?

— Agar uyda turmush o‘rtog‘im bilan doimo urishib, shaxsiy muammolarni to‘g‘ri hal qilishni bilmasdan turib, o‘qituvchi va o‘quvchilar orasidagi nizolar bo‘yicha maslahatlar bera olamanmi?

— Sizda uyingizda, ishingizda hammasi joyidami?

Hozirgi vaqtda psixologlar kam bo‘lganligi uchun maktab psixologi universal mutaxassis bo‘lishi va barcha ishlarni bajara olishi kerak. Har bir psixolog o‘zining qobiliyatlari va individual psixologik xususiyatlari negizida o‘zini kasbiy va shaxsiy aniqlashi, individual tanlash muammosini hal qilishi mumkin.

Tabiat va taqdir har bir insonga va har bir psixologga yuz, tana, ovoz, ruh, aql, hissiyot, xarakter, kuch ato qilganki, ularning bari har bir insonning «rang, tovush, ta‘m va hid»ini, uning psixoenergetik muhitini tashkil qiladi. Psixolog

foydali va muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'zini «qo'l ostidagi ish quroliday» bilishi kerak.

**Maktab psixologining individual yoki guruhiy ish usulini tanlashi.** Albatta, maktabda ikkala usul bilan ham ishlashga to'g'ri keladi, lekin tanlash imkoniyati mavjud bo'lsa, sizning individualligingiz uchun qaysi usul ko'proq mos keladi, siz qaysi usulda kuchli ekanligingizni qanday tushunish mumkin.

30 yoshlardagi maktab psixologi o'qituvchilar va o'quvchilar bilan guruhiy treninglar o'tkazadi. Umuman treninglar muvaffaqiyatli o'tadi, lekin mashg'ulotlardan so'ng kuchli charchoq sezadi, kasal bo'lib qoladi. Uning fikricha, o'zini yomon his qilishi ishi bilan bog'liq. Nima uchun?

Haqiqatdan ham ayol psixologning fikri to'g'ri bo'lib, unda hayotiy me'yorning pasayib ketishi u ko'p shug'ullanadigan psixologik ish usuli bilan bog'liq. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, «inson — inson» sohasida ishlaydigan mutaxassislarda, psixologiya ham ana shu fanlar sohasiga kiradi, individual yoki guruhiy ish usuliga layoqat mavjud bo'ladi.

Agar siz tabiatan guruhiy ishlarni yoqtirsangiz, charchamasdan a'lo darajada ma'ruzalar o'qiysiz, uzoq davom etadigan seminar va treninglar o'tkazasiz, individual maslahatlar bo'lsa, sizda bir muncha qiyin kechadi, ko'p energiya kuch talab qiladi. Agar siz individual ishga layoqatli bo'lsangiz, faoliyatning guruhiy turlarini uncha yoqtirmaysiz. Mijozingiz bilan individual munosabatda bo'lishni afzal ko'rasiz.

**«Sizning individualligingiz» mashqi.** «Psixolog-individual» va «psixolog guruhchilar» qanday xususiyatlarga ega degan savolga javob beramiz?

Guruhiy treninglarda muvaffaqiyat qozonasiz, agar siz:

- ochiq, serharakat inson bo'lsangiz;
- nutqingiz yaxshi, o'z fikrlaringizni oson va aniq bayon eta olsangiz, savollarni to'g'ri tushunib, ularga tez javob topa olsangiz;
- vaziyatni tez va aniq his qilsangiz, tez moslasha olsangiz, tez qaror qabul qila olsangiz;
- yuqori quvvatga ega bo'lsangiz, auditoriyani qiziqтира olsangiz, aktyorlik qobiliyatingiz mavjud bo'lsa;

— guruh bilan besh kun qatorasiga 8 soatlab ishlay olasiz va bu sizni charchatmaydi, aksincha kundan-kunga «yonib», ishlashdan «huzur olasiz»;

— agar siz o‘zingizni sevsangiz, o‘zingiz haqingizda bemalol gapirsangiz, har qanday qiyin savolga javob bera-yotganda ham o‘zingizga qat’iy ishonsangiz, bahsga jon deb kirishib, unda har doim yengib chiqasiz;

— agar siz tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lsangiz va odamlarni orqangizdan ergashtira olsangiz.

Individual maslahatlarni yaxshi o‘tkazasiz, agar siz:

— xotirjam, muvozanatli inson bo‘lsangiz;

— sekin, muloyim gapirsangiz;

— suhbatdoshingiz kayfiyatidagi arzimas o‘zgarishni seza olsangiz, o‘zingizni «ikkinchi darajali» deb hisoblab, uning individualligiga moslasha olsangiz;

— ishonch qozona oladigan, ochiq ko‘ngil, mehribon, «davolovchi» ko‘rinishingiz bo‘lsa;

— insonlar bilan suhbatlashganda, yaqinlik hissini yarata olsangiz. Bunda eng muhimi:

— shoshmaysiz, hamdard bo‘lib, jimgina tinglaysiz.

**Maktab psixologining individual uslubi.** Psixolog maktabda o‘zini qanday tutishi kerak: qattiq qo‘lmi yoki yumshoqmi?

Vaziyatga bog‘liq ravishda, o‘zining va sherigining maqsadiga ko‘ra psixolog qattiq qo‘l va yumshoq bo‘lgan turli uslublarni egallashi lozim. Psixolog tanlash imkoniyatiga ega bo‘lganda, o‘z individualligidan kelib chiqib, ish tutishi kerak.

**«O‘zingizni tanlang» mashqi.** Agar siz yumshoq, ko‘nikuvchan, uyatchan bo‘lsangiz, vaziyat buni talab qilsada, qattiq qo‘l bo‘lishingiz qiyin kechadi. Sizga bu yoqmaydi. Natijada siz ta’sir qilishning kuch ishlatish usulidan foydalanganingiz uchun o‘zingizni aybdor hisoblaysiz va ko‘p charchaysiz. Sizga o‘zini ko‘rsatishning to‘g‘ridan to‘g‘ri kuch ishlatish usullari emas, yumshoq, diplomatik, kelishuvchan, «ayyor» usublari mos keladi. Shuni yodda tutish kerakki, faqat yumshoq uslubni qo‘llasangiz, guruh ta’siriga beriluvchanlik «xavfi» paydo bo‘ladi.

Agar siz to'g'ri, kuchli, hukmron inson bo'lsangiz, sizga kuch ishlatish uslubi ko'proq mos keladi. Siz har qanday vaziyatda yengib chiqasiz, vaqtida o'zingizni to'xtatishni bilasiz. Birinchidan, siz insonga ta'sir qilib, unga «psixologik zarba» berishingiz mumkin. Ikkinchidan, muloqot bo'yicha kuchli suhbatdoshni uchratsangiz, siz yanada kuchli bo'lishga harakat qilasiz. Shuni ham ta'kidlash joizki, qattiq qo'llik uslubi guruh ishtirokchilarining ijodini pasaytiradi, o'zini ko'rsatish erkinligini susaytiradi.

**«Ish texnikasini tanlash haqida».** Ish texnikasini tanlash haqidagi savol bir muncha murakkab bo'lib, har qanday psixoterapevtik texnikada o'z uslubini aniqlash mumkin va o'z kasbiy qobiliyatlari, qiziqishlarini ifodalash mumkin.

O'z ish uslubini tanlash haqida gap ketganda, ikki omilni hisobga olish darkor. Birinchidan, g'arb psixoterapevtik uslublari bizda endi tarqala boshladi, shuning uchun u yoki bu yo'nalishdagi amaliyotchi psixologlarning yuqori kasbiy mahorati haqida gapirish erta.

Ikkinchidan, psixopraktika shunchalik ko'p qirrali va har xilki yosh psixoterapevt mijozning muammolaridan kelib chiqib, har xil uslublarni birgalikda qo'llaydi.

O'z ishida psixotahlilni yoqtiradigan psixologlar transakt tahlil bo'yicha unchalik yaxshi ishlamaydi, psixodrammaga qiziqadiganlar muloqot treningi guruhlarini zo'r-bazo'r o'tkazadilar. Urinib ko'rish va xato orqali «o'z uslubini» topish mumkin. O'zingizni kuchli va bo'sh jihatlarigizni o'rganing, imkoni bo'lsa, psixologik seminarlarga qatnashing, «bu meniki» deb his qiladigan vaqt keldi.

**Asosan qaysi yoshdagilar bilan ishlash afzal.** Maktabda asosan qaysi yoshdagilar bilan ishlashni tanlash ham muammo. Maktab psixologi maktabda o'qituvchilar bilan ham, barcha yoshdagi o'quvchilar bilan ham ishlaydi. Lekin kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, ba'zi psixologlar boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan suhbatlashishni yoqtirishadi, boshqa birlari o'spirinlarning «tilini tez topadi», uchinchi birlari yuqori sinflarga kirib «yo'qolib ketadilar», to'rtinchilari o'qituvchilar bilan suhbatlashishni qoyillatadilar.

Psixolog o'zining ichki psixologik yoshiga mos bolalar bilan muloqot qilishga intiladi. Psixologiyada insonning haqiqiy yoshi (pasport yoshi) va psixologik yosh farqlanadi. Insondagi bu ikki yosh ko'pincha bir-biriga mos kelmaydi.

«— Men 16 yoshman «Ruh haqidagi fanda» yosh hissi tushunchasi meni doim hayron qoldiradi, Men ko'pincha yoshimni esdan chiqarib qo'yaman, bu savolga javob berish uchun doimo bu yil nechanchi yil ekanligini so'rayman, o'zim tug'ilgan yilni eslayman va arifmetik hisoblashlar bilan shug'ullanaman.

Sizning yoshingiz nechada?»

*A. Kronik (35 – 40 yoshlardan oshgan)*

A. Kronik va uning xodimlari 21 dan 44 yoshgacha bo'lgan 83 nafar insonlar bilan maxsus tadqiqot o'tkazdilar. So'rovda qatnashganlarning taxminan 55 % o'zlarini yosh deb, 20 % o'zlarini katta deb hisobladilar, faqat 25% esa o'z yoshini pasport yoshi bilan bir xil ko'rsatdilar.

Sizning psixologik yoshingiz nechada? Uni «psixologik yosh» testi yordamida aniqlashga urinib ko'ring. Ushbu metodika o'z hayotiy imkoniyatingizni qanchalik to'liq amalga oshirganingizni baholaydi.

**«Psixologik yosh» testi.** O'tmish, hozirgi, kelajak, hayotingizni tasavvur qiling.

Qaysi yili tug'ildingiz?

Necha yoshgacha yashamoqchisiz? (*haqiqiy baho berishga harakat qiling*).

1- jadval yordamida hayotingizdagi har besh yilga baho bering, bunda sog'lingiz: muhim jamoat topshiriqlari, yaqin kishilar, do'stlar bilan muloqot, shaxsiy va kasbiy faoliyat bilan baholanadi. Har besh yil 10 balli sistemada baholanadi: 10 ball — maksimal baho:

1- minimal baho. Esingizda tuting, har besh yil faqat bir baho bilan baholanishi mumkin, unga «+» belgisini qo'yishingiz mumkin, masalan:

21 — 25 yoshlar orasidagi besh yillik 6 ball bilan baholanadi, deylik. Gorizontal chiziq bo'yicha «21 — 25» orasiga hamda vertikal bo'yicha 6 chiziq orasiga «+» belgisini qo'yasiz.

Agar siz jadvalni to'ldirgan bo'lsangiz hisoblab chiqing.

1. O'tmish va kelajakdagi besh yilliklar bo'yicha umumiy ballni toping.

2. O'tmishdagi besh yilliklar uchun necha ball qo'yganingizni hisoblang.

— Agar siz 30 yoshda bo'lsangiz «1 — 5» dan to «26 — 30» gacha bo'lgan besh yilliklarni hisoblash kerak.

— Agar siz 31 yoshda bo'lsangiz «1 — 5» dan «26 — 30» gacha bo'lgan 5 yilliklarni oling. «31 — 35» oraliqdagi 5 yillikdan qo'ygan ballingizning  $1/5$  qismini oling.

— Agar siz 32 yoshda bo'lsangiz «31 — 35» orasidagi 5 yillikdan qo'ygan ballning  $2/5$  qismini oling va h.k.

3. O'tmishdagi 5 yilliklarda olgan ballingizni barcha besh yilliklarda kelajakdagi ham qo'shgandagi ballga bo'ling. Olingan natija — hayotning ro'yobga chiqish ko'rsatkichi hisoblanadi (uni foizlarda tasavvur qilish qulay).

Masalan, men 42 yoshdaman. O'tmishdagi besh yilliklarga qo'ygan ball 56,6 ni tashkil qildi, barcha besh yilliklar bo'yicha umumiy ball 108 ga teng. Hayotimning ro'yobga chiqarish ko'rsatkichi 0,524 ga yoki 52,4 foizga teng. Hozirgi vaqtgacha o'z imkoniyatlarimning yarmisidan sal ko'pini ro'yobga chiqaribman.

4. Psixologik yoshni bilish uchun hayotni ro'yobga chiqarish ko'rsatkichiga siz kelajakda yashamoqchi bo'lgan yoshni ko'paytiriladi. Hosil bo'lgan son sizning ruhiy yoshingiz hisoblanadi.

Masalan, hayotni ro'yobga chiqarish ko'rsatkichi 0,691 ga teng. Inson 80 yoshgacha yashashni rejalashtirgan. Uning psixologik yoshi 55 ga teng.

Albatta, hayotdagi fakt va hodisalar amaliy psixologiyadagi voqea va hodisalar bilan bir chiziq orqali bog'lanmagan.


Agar sizning psixologik yoshingiz 55 yosh bo'lib, pasport yoshingiz 37 da bo'lsa, sizning tinglovchi va mijozlaringiz 55 yoshlardagi buvilar, ota-onalar va o'qituvchilardir. 55 psixologik yoshda bo'la turib, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga intilishingiz, ularga g'amxo'rlik qilish va qo'llab quvvatlash ehtiyojini amalga oshirishingiz mumkin. Shu bilan birga yuqori sinf o'quvchilari bilan suhbatga shoshilsangiz ham bo'ladi, chunki shaxsiy hayotiy tajribangizni ular bilan o'rtoqlashishni chin dildan xohlaysiz (1- jadvalga qarang).

**1- jadval. Hayot yo'lini baholash**

Hayot besh yilliklar;	Muhim voqealar bilan to'lalilik darajasi									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1—5										
6—10										
11—15										
16—20										
21—25										
26—30										
31—35										
36—40										
46—50										
54—55										
56—60										
61—65										
66—70										
71—75										
76—80										
81—85										
86—90										

Sizning o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ota-onalar bilan kasbiy va insoniy munosabatingiz bir xil psixologik yoshga asoslangan teng psixologik (1- shakl) yoki «translir» bo‘lishi mumkin (2- shakl).


**1- shakl.** Teng psixologik yoshga asoslangan o‘quvchi va o‘qituvchining teng munosabati:



11 psixologik yoshdagi psixolog

3- sinf o‘quvchisi


**2- shakl.** Psixologning o‘smirga nisbatan «translir» munosabati.



55 psixologik yoshga ega bo‘lgan psixolog

10 sinf o‘quvchisi

**3- shakl.** Maktab psixologining manipulyativ uslubi.



11 psixologik yoshdagi psixolog

Yuqori sinf o‘quvchisi yoki katta psixologik yoshdagi ota-ona



Ishingizdagi vaziyatlarda tinglovchilaringiz uchun «mijoz» bo‘lib qolmaslikka harakat qiling: o‘zingizni ko‘rsatishga harakat qiling, o‘zingizni yuqori baholashga intiling. Kasbiy faoliyatingizda psixomanipulyativ vositalardan foydalanmang (3- shaklga qarang).

Agar ota-onalar va o‘quvchilar bilan ishlaganda 3- shakldagidek munosabatlarga kirishsangiz, anglangan va anglanmagan muammolaringiz ustida ishlashingiz zarur. Psixolog doimo o‘z ruhini «tozalab» turishi kerak, chunki psixologning ruhi — bu uning ish «quroli» hisoblanadi.

Qanday muammo bilan shug‘ullangan afzal?

Psixologlarga maktabda turli muammolar bilan shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi. Lekin har bir psixologning maktabda sevimli mavzusi yoki muammosi bo‘ladi. Uni tanlash ko‘p sabablarga: amaliy psixologning qiziqishlariga, mutaxassislik bo‘yicha o‘qilgan kitobga, kasbiy muloqot darajasiga, psixolog ishlaydigan maktab ehtiyojlariga, ma‘muriyat, o‘qituvchilarning buyurtmasiga bog‘liq.

«O‘z muammosini» tanlashning ko‘p omillarga bog‘liqligiga qaramasdan, umumiy qonuniyatlar kuzatiladi. Psixologlar «o‘z mavzularini» tanlashda ikki asosiy shartga amal qiladilar. Ko‘pincha ular xarakterida va individual — psixologik portretida ortiqcha bo‘lgan psixologik fenomenni o‘rganishga intiladilar.

To‘g‘ri fikrlaydigan universitet bitiruvchisi tadqiqot predmeti sifatida o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini tanlaydi (masalan, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda iste‘dodni shakllantirish, o‘smirlarning aqliy faoliyatini faollashtirish va boshqalar). Shu bilan birga ko‘pchilik psixologlar shaxsiy individualligini, xarakterini, shaxsini qiziqtiradigan muammolar bilan shug‘ullanishga intiladilar.

Bo‘sh, ziyoli, ko‘ngilchan, qat‘iyatsiz o‘spirin-maktab psixologi o‘z qiziqishlarining predmeti sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida irodaviy mexanizmlarni shakllantirishni tanlaydi. Bu nimadan dalolat beradi? Aniq maslahat berish qiyin. "O‘z muammoingizni" tanlash haqida o‘ylang va bir qarorga keling.

## 2.4. Psixologning huquqlari

Amaliyotchi psixologning o'qituvchilar, o'quvchilar, otanalar hayoti bo'yicha muammolariga shaxsiy tajribasi bo'lmay turib, maslahat berishga haqqi bormi? Bu muammo birinchi navbatda oilaviy hayot va oilada bolalarni tarbiyalash masalalariga tegishlidir. Bu masalani muhokama qilishda psixologlar anchadan beri bahslashadilar va hali umumiy qarorga kelishmadi.

Ba'zilar bu savol xirurg haqidagi: «Biror marta operatsiya stoliga yotmasdan, operatsiya qilishga haqqi bormi?» — degan savolga o'xshaydi, deyishadi. Ma'lumki, tibbiyotda bunday savol tug'ilmaydi. Shuning uchun, psixologlarning birinchi guruhi, mutaxassis, amaliyotchi sifatida har xil yoshdagi insonlar bilan turli muammolar bo'yicha ishlashni bilishi kerak, deb hisoblaydilar.

Psixologning shaxsiy hayoti va shaxsiy tajribasining mavjudligi yoki yo'qligi katta ahamiyatga ega emas: muhimi bu kasbiy mahorat (professionalizm).

Boshqa psixologlarning fikricha, amaliyotchi psixologning shaxsiy hayotiy tajribasi muhim ahamiyatga ega, hech qanday eng yuksak kasbiy mahorat va bilimlar bilan ham almashtirish mumkin emas. Ularning fikricha, nizolar va ularni boshqarish usullari haqida o'n soatlik ma'ruzani eshitish mumkin, lekin agar siz yaqin kishingiz bilan bo'lgan nizoni boshdan kechirmagan bo'lsangiz, munosabatlarni buzmasdan amaliy hal qila olmagan bo'lsangiz, ish joyingizda nizolarni boshqarishga kirishmang. Bunda sizda faqat texnika va faqat kasbiy mahorat namoyon bo'ladi, sizning ichki dunyongiz, ruhingiz, sizning boshdan kechirganlaringiz, sizning dardingiz bo'lmaydi. Shunday qilib, kasbiy ishda texnika yoki shaxsiy tajriba bilan boshdan kechirayotgan ichki dunyo, ruh — ikkisidan biri bo'lishi kerak.

Nima uchun «va» so'zini emas, yoki so'zini ishlatish kerak? Bizningcha, amaliyotchi psixologning kasbiy ishi — bu kasbiy bilimlar va hayotiy tajribasidir. Birini ikkinchisidan ajratish mumkin emas. Psixologik kasbda kasbiy bilimlar va shaxsiy tajribasiz ish olib borish qiyin.

**Psixolog, sizning hayotingizda hammasi joyidami?** Maktab psixologlari, umuman amaliy sohadagi ishlaydigan psixologlarga atrofdagilar boshqacha munosabatda bo'ladilar. Men oramizda nima bo'layotganiga tushunmayman? «Siz psixologsiz-ku, hammasini tushunishingiz va tushuntirishingiz kerak»,— deyishadi.

Yuqori sinfda o'qiydigan qizi onasiga: «Oyi, siz nimadir qiling, psixologsiz-ku», deydi.

Maslahatga kelgan mijoz: «Siz psixologsiz, biz birga yashashimiz yoki yashamasligimizni, o'zingiz hal qiling», deydi. Psixologlar ko'pincha boshqalarga oilaviy nizolar bo'yicha maslahat berishadi-yu, lekin ba'zan o'zlarining oilalarida hammasi joyida bo'lmasligi ham mumkin. Bunga ko'pincha ularning oila psixologiyasi bo'yicha hamma narsani bilganliklari tufayli, oilada haddan tashqari yumshoq bo'lishlari ham sabab bo'lishi mumkin. Ishda professional psixolog bo'lib, uyda bo'lsa professional rolni chetga qo'yib, xuddi ish kiyimingizni yechib, uy xalati kiyganday, o'zimizni erkin tabiiy his qilishimiz zarur.

Oilada er-xotinlar orasida sovuqlik nima uchun tushganligi noma'lum bo'lganda, oilaviy o'zaro munosabatlar amaliyotida foydalanish mumkin bo'lgan bir necha o'yinlar mavjud.

**«Men sizga yoqamanmi?» o'yini.** Er va xotin, qaysi birlari psixolog bo'lishlaridan qa'iy nazar oralaridan iliq hissiy munosabat yo'qolayotganda, bir-birlariga tushuntirish o'rniga ana shu o'yinni o'ynashlari mumkin.

Har bir oila a'zosi ikkitadan toza qog'oz tayyorlaydilar. Ular alohida o'tirib, keyin birga muhokama qilish uchun o'z materiallarini tayyorlaydilar. Birinchi qog'ozga er-xotin bir-birining rasmini chizadi. Hech qanday cheklanishlarga amal qilmasdan, erkin chizishi mumkin. Yaqin kishisining rasmini realizm uslubida, yoki nimagadir o'xshatib chizish mumkin. Rasmni rangli qilib chizing. Rasmda turmush o'rtog'ingizni qanday tasavvur qilsangiz, shunday chizishga harakat qiling.

Ikkinchi qog'ozga ikki qatorga 10 tadan gap yozasiz. Birinchi qatorda «Hozir menga sizning nimangiz yoqmaydi?»,— deb sarlavha qo'yasiz va 10 ta xislat nima uchun yoqmasligini tushuntirib yozasiz. Qog'ozning ikkinchi qatoriga: «Hozir sizning

**nimangiz yoqadi?»** deb sarlavha qo‘yasiz va o‘rtog‘ingizning **sizga** yoqadigan 10 ta xislatini sanab o‘tasiz. Keyin er-xotin bir-**birlari** bilan rasmlar va so‘zlar qatori bilan almashadilar. Dastlab **siz** hayron qolish, kelishmovchilikni ifodalaysiz yoki kulimsiraysiz. **Asosiysi**, muhokamani darrov boshlamang. 15 daqiqagacha **tanaffus** saqlash kerak. Yaqin kishingiz nima uchun shunday **chizganligini** tushunishga harakat qiling. Keyin ikkinchi qog‘ozlarni olib o‘qing va muhokama qiling.

Bu o‘yinning maqsadi odatda oilada muhokama qilinmaydigan er-xotinlarning xulq-atvor va xarakterining ayrim jihatlari tahlil qilinadi, bu jihatlari o‘zaro bir-biridan qoniqmaslikka, jahlini chiqarishga, natijada bir-biridan uzoqlashishga olib kelishi mumkin. Bir-biridan hissiyotlarini yashirmaslik muhim, o‘yinda do‘stona shaklda birgalikda muhokama qiling, bunda har bir turmush o‘rtoq bir-biridan nimani xohlashini vujudga kelgan begonalashishni yo‘qotish uchun o‘zini qanday o‘zgartirish zarurligini tushunish muhim. Muhokamani eringiz (xotiningiz)ning xulq atvori va xarakteridan sizga yoqadigan jihatlarni tahlil qilish bilan tugatasiz. Har bir turmush o‘rtoq quyidagilarni aytadi: «Bizda ba’zi kelishmovchiliklar bo‘lishiga qaramay, siz erkaklar ichida eng yaxshisiz, chunki ... ». Yoki erkak: «Siz ayollar ichida eng yaxshisiz, chunki ... ».

«**Muammo o‘yini**». Agar oilaviy munosabatlar inqiroz holatiga tushib qolgan bo‘lsa, «Ajrashish kerakmi yoki birga yashash?», «Yashash kerakmi yoki yashash kerak emasmi?» degan muammoni hal qilishga shoshilmang. Bunday vaziyatda birinchi navbatda to‘xtash va yaxshilab, obdan o‘ylab ko‘rish muhim. Muammoni yolg‘izlik orqali, ajrashish orqali yechish mumkin, deb o‘ylamang. «Bir-biridan dam olishning» boshqa yo‘llari: masalan sayohat, biror haftaga ota-onanikiga borish, ertalabdan kechgacha ishda qolib ketish ham mumkin. Umuman vaqtni cho‘zish muhim. Muammoingiz bir-biringizdan charchaganligingizning, umumiy hayotiy qoniqmaslikning, oilaviy hayotning bir xilligining natijasi ham bo‘lishi mumkin.

Faqatgina «bir-birlaridan dam olibgina qolmay» oilaviy o‘yinlarni o‘ynashlari ham mumkin. Bunday o‘yinlar turmush o‘rtoqlariga ularni yoqimli qiladigan yangi jihatlarini ko‘rish imkonini beradi.

Qog‘oz olib rangli qalam yoki flamaster bilan alohida o‘tirib chap qo‘l bilan, aniq syujetsiz «Bizning muammo» degan rasmni chizing. «Chiroyli chizishga» harakat qilmang, muhimi muammoni qanday tushunganingizni, bu haqda qayg‘urayotganingizni yetkazish muhim. Rasmlar tayyor bo‘lganda, birgalikda o‘tirib, ularni muhokama qiling.

— Rasmingizda nimani ifodalamoqchi edingiz?

— Rasmning qayerida o‘z «meningiz» va turmush o‘rtog‘ingiz "menini" joylashtirasiz?

— Nima uchun boshqa ranglarni emas, xuddi shu ranglarni tanladingiz?

— Muammoni tushunishda qanday farqlar mavjud?

— Ikkingiz ham muammoning qanday umumiy xususiyatlarini aniqladingiz?

— Bir-biringiz chizgan rasmda muammoni yechish bo‘yicha qanday ijobiy intilishlarni sezdingiz?

**«Oilaviy kelishuv o‘yini».** Tajribali oilaviy juftliklar ko‘p urinib ko‘rish va xato qilish yo‘li bilan, ko‘p janjallar va yarashishlar natijasida bir-biri bilan kelishish muhimligini anglashgan. Kelishuv vaziyati davlatlar orasida ham, er-xotin munosabatlarida ham urishga qaraganda yaxshiroq.

«Kelishuv» o‘yini uch bosqichdan iborat.

Birinchi bosqichda muhim muammo muhokama qilinadi. Muammoni obyektiv jihatdan umumiy ko‘rish muhim (Siz aybdor emassiz, bizda ana shunday muammo mavjud).

Ikkinchi bosqichda xonaning ikki burchagiga o‘tirib quyidagi mavzular bo‘yicha 7 holatni yozib chiqiladi. «Bu muammoni yechish uchun turmush o‘rtog‘imning nima qilishini xohlayman». Turmush o‘rtog‘ingizga qo‘yiladigan talab iloji boricha aniq bo‘lishi kerak. Bunday ifodalardan qochishga harakat qiling: «U menga yaxshiroq munosabatda bo‘lishini xohlayman», «Munosabatlarimiz yaxshilanishini xohlayman», «Menga ko‘proq e‘tibor berishini xohlayman» va hokazo.

Sizning fikrlaringiz taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin: «Har kuni ertalab menga «Assalomu alaykum» deyishini xohlayman», yoki «Menga yoqadigan, sochlari tabiiy rangda bo'lishini xohlayman».

Uchinchi bosqichda yonma-yon o'tirib 8 holatdan iborat umumiy kelishuvga keling. Bunda dastlabki to'rttasi erning xotinigga talablarini, keyingi to'rtta holat ayolning eriga bo'lgan talablarini aks ettiradi. Aksincha bo'lishi ham mumkin. Umumiy kelishuvni xonaning eng ko'rinadigan joyiga, masalan oshxonada ovqatlanish stolining tepasiga osib qo'ying. Bu kelishuvni tez-tez o'qib turing, muhokama qiling va u haqda o'ylang.

Bunday kelishuv o'rtacha 3 — 4 oy devorda osig'lig' turishi mumkin.

**Maktabda o'z-o'zini qanday «topish» mumkin?** Hozirgi vaqtda maktablarda, litsey va kollejlarda ikki yo'l bilan amaliy psixologiyaga kelgan psixologlar ishlashadi. Birinchilari universitetlarning psixologiya fakultetini bitirgan va ikkinchilari maktabda ma'lum vaqt o'qituvchi bo'lib ishlab, keyin amaliyotchi psixologlar fakultetini bitirgach, yana o'z maktablariga psixolog sifatida qaytib kelganlar.

Bu ikki psixologlar guruhining qaysi biri mahsuldorroq degan savol tug'iladi. Asosiy ma'lumotli psixologlar yaxshi kasbiy bilimga egalar, psixologik metodlarni yaxshi biladilar. Lekin ular maktab hayotidagi ishning barcha xususiyatlaridan xabardor emaslar.

Ikkinchi mutaxassislikni egallagan o'qituvchi psixologlar aksincha maktab va pedagogik amaliyot bilan yaxshi tanishlar, lekin psixologik bilimlar va psixologik ish ko'nikmalari yetishmasligini his qiladilar.

**Psixologlar duch keladigan muammolar.** Psixologning shaxsiy va kasbiy moslashuvi. Psixolog bitiruvchilar dastlab maktabga borganda, o'zlarini himoyasiz sezadilar, birinchi navbatda nima qilish kerakligini bilmaydilar, o'zini qanday tutishni, kim bilan qanday gaplashishni bilmaydilar. Ular maktabda muammolarga ko'milib ketadilar, hammasini birdan bajarib, maktabga kerakli shaxs ekanligini ko'rsatishga urina-

dilar, maktabda har kuni, dam olish kunlari, hatto kechalari ham qolib ketadilar. Natijada — zo‘riqish, charchash, ish qobiliyatining pasayishi ko‘zda tutiladi.

### **Psixologning pedagogik jamoaga kirishishi muammosi.**

Psixologlar o‘qituvchilar bilan ijobiy munosabat o‘rnatib, hamkorlik qilishga intiladilar, lekin buni qanday amalga oshirishni bilmaydilar: o‘qituvchilar bilan do‘stlashish kerakmi yoki ular bilan ma‘lum masofani saqlash ma‘qulligini bilmay boshlari qotadi. Yosh mutaxassislar nizoli vaziyatlarda ba‘zan o‘ziga ishonmaslikni his qiladilar, maktabda mavjud u yoki bu o‘qituvchilar guruhining ta‘siriga beriladilar.

### **Maktab ma‘muriyatiga ta‘sir ko‘rsatadigan qiyinchiliklar.**

Psixolog mutaxassislar mustaqil bo‘lishga, maktab ma‘muriyati bilan hech qanday muammo bo‘lmasligiga intilishadi. Bu ishning muvaffaqiyati faqatgina kasbiy bilimlarning mavjudligiga, yosh mutaxassislarda yetishmaydigan boy hayotiy tajribaga ham bog‘liq. O‘quvchilar bilan muloqot o‘rnatishda «tarbiyasi qiyin» o‘smirlar va yuqori sinf o‘quvchilari bilan qiyinchiliklar mavjud bo‘ladi. Bundan tashqari o‘quvchilarning otanalariga ta‘sir ko‘rsatishida qulay holatni tanlash ham murakkab muammo hisoblanadi, chunki bu yerda faqatgina maktab bilan bog‘liq muammolar bilan emas, oilaviy masalalar bilan ham shug‘ullanishga to‘g‘ri keladi.

**«Kasbiy yolg‘izlikni» his qilish.** «Kasbiy yolg‘izlikni» his qilish psixologning o‘z kasbiy jamiyatidan ajralishi, unga o‘xshab fikrlaydigan, o‘qituvchilarga qaraganda umumiy tilni tez topish mumkin bo‘lgan hamkasblaridan uzoqlashishdir. Kasbiy aloqalarni yo‘qotish yoki mutaxassisga agar u psixolog sifatida bir o‘zi maktabda ishlayotgan bo‘lsa qattiq ta‘sir qiladi.

Shaxsiy «yetuklik» muammosi, talabalik hayotidan tubdan farq qiluvchi «kattalar hayoti»dagi munosabatlarda tajriba to‘plash ham yosh mutaxassis hayotida qiyinchilik bilan kechadi.

**Vaqtning tashkil qilish muammosi.** Yosh mutaxassis «kattalar hayotiga» kirib maktab hayotidagi ishlar yoki turmushda erxotin, ota-ona majburiyatlari orasida vaqt va kuchni har doim ham muvaffaqiyatli taqsimlay olmaydi. Natijada yosh mutaxassis

hayotining u yoki bu sohasi jabrlanishi mumkin: u ishga to'liq kirishish qobiliyatini yo'qotadi, yoxud uning oilasida turli muammolar boshlanadi.

### **Psixolog kasbini o'zlashtirib maktabga qaytib kelgan o'qituvchilar duch keladigan muammo va qiyinchiliklar.**

Kasbiy rolning o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan sub'yektiv qiyinchiliklar. Maktabga psixolog bo'lib qaytib kelgan o'qituvchilar ichki yo'nalishlarini o'zgartirishlari pedagogik roldan psixologik rolga almashishlari zarur. Bu ikki rol nimasi bilan farq qiladi? (2- jadvalga qarang).

*2- jadval. O'qituvchi va maktab psixologining kasbiy qarashlaridagi farqlar*

	O'qituvchining kasbiy roli	Psixologning kasbiy roli
Kasbiy bilimlarning mazmuni	Umumiy pedagogik bilimlar. O'z fanini o'qitish metodikasini bilish.	Umumiy pedagogik bilimlar. O'qituvchilarning yosh va individual psixologik xususiyatlari. Psixodiagnostika, psixokorreksiya
O'quvchiga munosabat	O'rganuvchi, nazorat qiluvchi, baholovchi	Tushunuvchi, yordam beruvchi
O'qituvchilar bilan munosabat	Ish bo'yicha ham kasblarning o'zaro munosabati	Turli mutaxassislarning hamkorligiga asoslangan o'zaro munosabatlar
Ma'muriyatga munosabat	Boshliqlarga bo'ysunish	Mustaqillik va hamkorlikka intilish
Tashqi belgilar	O'ziga ishonish o'quvchilarga hukmronlik qilish, qat'iylik, "o'qituvchilik ovozi"	Hamdardlik, insoniy munosabatlarga tayyorgarlik, xulq-atvorda yumshoqlik

**Maktab ma'muriyati bilan o'zaro ta'sirlarni qayta qurish muammosi.** Ko'pgina maktab direktorlari eng yaxshi o'qituvchini amaliyotchi psixologlar tayyorlash fakultetiga o'qishga jo'natadi, lekin u diplomli mutaxassis bo'lib qaytganda



anchagacha unga bo'lgan munosabatini o'zgartira olmaydi. Direktor sobiq o'qituvchining unga bo'ysinini talab qiladi, ish haqida hisobotlar so'raydi, maslahat berish yoki psixodagnostik tadqiqot natijalari bo'yicha to'liq xabardor bo'lishini so'raydi. Agar psixolog tadqiqot natijalari haqida to'liq axborot bera olmasligini va yashirin ma'lumot mijoz va psixolog orasida qolishini ma'lum qilsa, ya'ni birinchi bor nisbatan mustaqilligini e'lon qilsa, psixolog va direktor orasida keskin nizolar paydo bo'lishi mumkin. Bunday vaziyatlarda psixolog sabrtoqat bilan, munosabatlarni o'zgartirishi zarur (bo'ysunuvchi holatdan teng huquqli hamkorlik holatiga o'tishi lozim).

**O'quvchilar va ularning ota-onalari bilan yangi munosabatlarni o'rnatish.** O'quvchilar va ularning ota-onalari bilan yangi munosabatlarni o'rnatish uzoq jarayon hisoblanadi. Ko'pincha pedagogik faoliyat ko'nikmalari namoyon bo'ladi va psixolog maslahat berayotganda, suhbat vaqtida treninglarda o'qituvchi pozitsiyasida o'zini namoyon qiladi. Bunday hollarda psixolog bo'lgan o'qituvchi psixolog kasbiy pozitsiyasining xususiyatlarini o'zlashtirib o'z ustida ishlashi darkor. Bu vazifa amaliyotchi psixologlar fakultetida psixologik bilimlarni olish bilan hal qilinmaydi.

Maxsus psixologik treninglarda ishtirok etish, tajribali psixologlar bilan doimiy muloqotda bo'lish, o'quvchilar va ota-onalar bilan munosabatlarni mustaqil o'zgartirishga intilish zarur.

**Oilaviy muammolar.** Psixolog kasbini egallagan sobiq o'qituvchining oilaviy munosabatlarni qayta qurishda qiyinchiliklar bo'lishi mumkin. Ko'pincha ayol turmush o'rtog'idan uning obro'sini tan olishini, ko'proq e'tibor berishlarini xohlaydi, uning aqliy va shaxsiy taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatishga intiladi. Agar erkak oilaviy munosabatlarni o'zgartirishga tayyor bo'lmasa, oiladagi munosabatlar yomonlashishi mumkin.

## **2.5. Maktab psixologdan nimalarni kutadi?**

Psixologlar maktabga kelgach, ular boshdan kechiradigan muammolar va qiyinchiliklar yanada chuqurlashadi, chunki

**maktab psixologga o'z talablarini qo'ya boshlaydi.** Ilgari agar psixolog qanday vazifalarni bajarishni bilmasalar, hozirda vaziyat tubdan o'zgardi. Psixolog kasbi mashhur va obro'li kasblardan biri bo'lib qoldi, u haqda maktabda hamma biladi va psixologdan ko'p narsa kutadi. Maktab amaliy psixologga qanday talablar qo'yadi va undan nimalarni kutishi haqida to'xtalib o'taylik.

**Maktab «sehrigar — psixolog»ni kutadi.** O'qituvchilar va ma'muriyat psixolog maktabga kelishi bilan hamma narsa yaxshi bo'lib qoladi, deb o'ylaydilar: o'quvchilar qiziqib o'qiy boshlaydilar, dars qoldirishni to'xtatadilar, o'qituvchilarni haqorat qilish va tanaffuslarda qochib ketishlarni to'xtatadilar, degan fikrga boradilar. O'qituvchilar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanadilar. Maktabdagi nizolar, har qanday noma'qulchiliklar yo'qoladi. Ma'muriyat pedagogik jamoa bilan iliq munosabatlar o'rnatadilar. Ota-onalar bo'lsa, maktab va xususan, o'qituvchilardan minnatdor bo'ladi.

**Maktab psixologni «vazirlikning kuchli vakili» sifatida kutadi.** Psixolog maktabga kelgach, o'qituvchilar va ota-onalar butun sinfni buzayotgan to'polonchi o'quvchilar bilan, doimo norozi bo'lib yuqori tashkilotlarga shikoyat qiladigan ota-onalar bilan, bolalarga nisbatan salbiy munosabatda bo'ladigan o'qituvchilar bilan, hech kimni tan olishni istamaydigan, uning dastidan barcha iqtidorli o'qituvchilar maktabdan ketayotgan avtoritar direktor bilan shug'ullaning, «Nimadir qiling» deb murojaat qila boshlaydilar.

**Maktab psixologni «sudya» sifatida kutadi.** Bu «psixolog kelgach, nima to'g'ri, nima noto'g'riligini, kim aybdor, kim aybdor emasligini aytadi», degan fikrlarda ifodalanadi. Bunday vaziyatlarda psixologga turli iltimos va imkoniyatlar tushadi: aqlan orqada qolgan bolalar ro'yxatini berib, ularni tekshirib, boshqa maktabga o'tkazishni so'rashadi, o'qituvchilar nizoli guruhlarining peshqadamlari murojaat qilib, o'zlari tomonga og'dirmoqchi bo'ladilar; psixologga direktor ham o'zining «o'ng qo'li» qilish maqsadida yaqinlashadi; psixologga farzandlarini xafa qilgan o'qituvchilar ustidan shikoyat qilib, ota-onalar murojaat qiladilar.

**Maktab psixologni «gigienani saqlaydigan mutaxassis» sifatida kutadi.** Maktab psixologi barcha muammolarni «tugatib», ularni ham tuzatishini kutadi. Bunday hollarda asosan psixologga o'quv tarbiya jarayonining mazmunini qayta o'zgartirish haqida g'oyalari mavjud pedagoglar ham murojaat qiladilar. Ular ta'lim-tarbiyaning turli innovatsion konsepsiyalari bilan tanishlar, maktab ma'muriyati ularni qo'llab-quvvatlashmagan. Psixolog oldida bu kabi muammolarda «nima qilish kerak?» degan doimiy savol turadi. Maktabda o'z o'rmini qanday topish mumkin? Qanday qilib kasbiy obro'ga erishish mumkin, qanday qilib psixologlar maktabga kerakligini isbotlashi, shaxsiy o'rnak ko'rsatishi mumkin?

### **Psixolog, siz o'zingizni kim deb his qilasiz?**

Maktab psixologlari xulq-atvorining turli usullarini taqqoslab, psixologlar namoyon qiladigan 8 xil xulq-atvor usullarini yoki ijtimoiy rollarni tavsiflash mumkin.

Psixolog — vositachi maktabda neytral holatni egallashga harakat qiladi. U o'z vazifasini urishib qolgan va nizolashayotganlarini yarashtirish, o'qituvchiga o'quvchisi nima uchun yomon o'qishi yoki dars qoldirishining obyektiv va subyektiv sabablarini tushuntirishga harakat qiladi: ota-onalarga o'qituvchilar bilan gaplashishni yoki direktor ta'sir ko'rsatishini va'da beradi. Murakkab vaziyatdagi har qanday holatda u vositachi uchinchi shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Agar maktab hayoti kuchli nizoli muhitdan iborat bo'lsa, psixologning vositachi rolini bajarishi mahsuldor bo'ladi.

Maktab psixologining vositachilik yarashtiruvchilik funksiyasini bajarishda «barchasi yaxshi» qabilida bo'lmasdan, vositachilik texnikalarining madaniyatli usullarini qo'llash yagona talab hisoblanadi.

**Psixolog — advokat,** barcha xafa bo'lgan kishilarga achinadi, ularni himoya qilishga intiladi: adolatli baho qo'ymagan o'qituvchidan o'quvchini, farzandini maktabdan haydash bilan qo'rqitayotgan o'qituvchidan ota-onalarni, hukmron, qattiqqo'l direktordan o'qituvchini, aksincha o'zlarini «yulduzlar» deb

hisoblovchi va ma'muriyatdan turli yangiliklarni talab qilayotgan o'zaro nizolashayotgan o'qituvchilardan direktorni himoya qiladi. Maktabda ko'pchilik xafa bo'lgan insonlarni himoya qilish mumkin, lekin har doim hamma shikoyat qiluvchilarni himoya qilish kerak emas. Avvalo, ota-onalar, o'quvchilar oldida uyaliq qolmaslik uchun vaziyatni sinchiklab o'rganib chiqish zarur.

**Psixolog — do'st**, hamma bilan do'stlashadi, insoniy iliq munosabatlar o'rnatadi. Unga yordam uchun, hamdardlik, maslahat va gaplashish uchun murojaat qiladilar. U hammani birday qabul qiladi, u hamma bilan baxtli. Bunday psixolog maktabda hissiy peshqadam hisoblanadi.

Psixolog — do'st maktabda hammani o'ziga jalb qiladi. Ayniqsa, o'smirlar va ilk o'spirinlar va kattalar bilan do'stlashishga intilishadi. Ko'pincha bunday psixolog ish faoliyatida do'stlar to'garagi, keyinchalik yoshlar klubi tashkil etiladi. Psixolog xonasiga qiziqarli bo'lganligi, ya'ni uchrashuvlar, aloqalar o'rnatish mumkin bo'lganligi uchun tashrif buyurishadi.

**Psixolog — o't o'chiruvchi**, maktabdagi «yonayotgan» nuqtalar bilan shug'ullanadi, bir yong'indan ikkinchisiga yuguradi. O'quvchi noto'g'ri ijtimoiy harakati uchun militsiya-ning voyaga yetmaganlar bo'limiga tushib qoladi — psixolog bir qancha vaqt faqat shu hodisa bilan shug'ullanadi. Ikkinchi sinf o'quvchisining avtomobil halokatidan onasi olamdan o'tdi, psixolog uning yonida bo'lib qayg'uni engishga harakat qiladi. O'smir ota-onasining qattiq kaltaklaridan iztirob chekadi, psixolog uning oilasiga borib, oila boshlig'iga qattiq «tarbiyaviy ta'sir»ning salbiy oqibatlarini tushuntiradi. Psixolog bunday vazifalarni bajarishi zarur. Lekin psixologning o'zi tezda charchaydi, uning ruhiy kuchlari qolmaydi. Shuning uchun unda yo'qotgan energiyasini to'ldirish, qayta tiklash uchun «kasbiy gigiena» usullarini yaxshi bilish lozim. Bu muammoni hal qilish ham mumkin: psixolog maktabda maxsus «o't o'chiruvchi» komandani tashkil qilishi mumkin. Bunday komandaga boshiga og'ir ish tushganlarga yordam berishni istovchi o'qituvchilar kiritiladi.

**Psixolog — tashxis qo'yuvchi**, maktabda psixodiagnostik metodlarga qiziqadi. U doim turli sinf o'quvchilarida test

sinovlarini o'tkazadi, har bir o'quvchiga individual karta to'ldiradi, unda test natijalarini aks ettiradi hamda o'quvchining o'sish dinamikasini tasvirlaydi.

Shuni ta'kidlash joizki, psixodiagnostik ish doimo rivojlantiruvchi va psixokorreksion ishlar bilan to'ldirilishi lozim. Agar maktabda ikki psixolog ishlasa, nur ustiga nur. Ulardan biri diagnostik ishlar bilan, ikkinchisi korreksion ishlar bilan shug'ullanadi. Birinchi psixolog olgan natijalar, ikkinchi psixologning tuzatish ishlari uchun negiz bo'ladi, ikkinchi psixologning psixokorreksiya natijalari diagnostik materialni to'ldiradi.

**Psixolog — erudit**, maktabda psixologik seminarlar o'tkazish va ma'ruzalar o'qish bilan shug'ullanadi. U o'qituvchilar orasida psixologik bilimlarni ommalashtirish bo'yicha ishlar olib boradi.

Albatta, bunday ish maktab uchun zarur, faqat bu bilan chegaralanib qolmaslik kerak. Ma'ruza va seminar ishlari psixodiagnostik tadqiqotlar va korreksion mashg'ulotlar bilan to'ldirilishi lozim.

**Psixolog — novator**, maktabga o'zining ta'lim va tarbiya haqidagi nazariyasi bilan keladi. Maktabni qayta qurish, ta'limning innovatsion dasturlarini tatbiq qilish bilan shug'ullanadi. Ko'p o'tmasdan novatorlik faoliyatiga layoqatli o'qituvchilar darslarini tabiat qo'ynida dialog yoki bahs shaklida o'tkaza boshlaydilar. Maktabda o'qituvchilar va o'quvchilar o'z ma'ruzalari bilan chiqadigan ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etiladi, o'quvchilar uchun ularning qiziqishlari bo'yicha turli klublar tashkil qilinadi. Natijada qayta tug'ilgan va yangilangan maktabda jo'shqin va qiziqarli hayot boshlanadi.

Lekin ta'limning an'anaviy shakliga o'rganib qolgan o'qituvchilar psixolog novatorning faoliyatiga qarshi chiqadilar. Psixolog novator qat'iy xarakter, maqsadga intiluvchanlik qobiliyatlarini namoyon qilishi zarur.

**Psixolog — ijodkor**, «qanday yangilik kerakligini» hamмага o'rgatadi, yangi hayotiy qadriyatlar uchun kurashadi. U qandaydir falsafiy yoki diniy yo'nalishga qiziqadi va o'zini boshqa insonlar uchun hayot o'qituvchisi deb hisoblaydi. Sekin-

**asta** uning fikriga qo'shiladigan o'qituvchilar va o'quvchilar **chiqadi**. Bunday g'oyalarga berilgan psixolog o'zini g'amxo'r **deb** hisoblaydi, xatto o'zini yuqori tutadi. Agar direktor bunday **psixologning** fikrlarini qo'llab quvatlamasa, maktabda uni **yoqtirishmasligi** mumkin.

**Maktabda ishni nimadan boshlash kerak?** Pedagogik **xodimlar** psixologiyadan xabardor bo'lganliklari uchun psixologga **o'z** talablari va iltimoslarini yetkazadilar. Psixologning vazifasi **shundan** iboratki, o'quvchilar ota-onalar guruhlari psixologdan **nimani** xohlashini o'rganib maktabning ijtimoiy-psixologik **kutilmalari** kartasini tuzishi zarur. Bunda psixologga nisbatan u **yoki** bu kutilmalarni bayon etgan guruhlar va shaxslarni ajratish mumkin. Bu maqsad anketa va intervyu shaklida maxsus **ijtimoiy-psixologik** tadqiqot o'tkazish zarur. Anketa usulini **qo'llaganda**, psixolog tarqatgan barcha anketalarni qaytarib olmasligini hisobga olish zarur (ba'zilar anketani uyda qoldirib keladi, ba'zilar javob berishdan bosh tortadilar). Sotsiologlarning kuzatishlaricha, anketalarni tarqatganda ularni qaytarish hajmi 30% dan 92 — 98% gacha o'zgarib turadi.

Maktab kutilmalarini ijtimoiy-psixologik tadqiqot qilish natijalari psixologning o'z ishi uchun materialdir, ularni tarqatish, maktab ma'muriyatiga qayta ishlanmagan ochiq holda berish mumkin emas. Maktab ma'muriyati psixologdan qilingan ishlarning hisobotini olishi mumkin. Hisobotda aniq familiyalar ko'rsatilmasdan olingan natijalarning umumiy tahlili aks etadi.

Maktab ma'muriyati, o'qituvchilar va ularning ota-onalari bilan maktabda intervyu o'tkazish mahsuldor usul hisoblanadi. Vaqt va kuch ketish bo'yicha psixolog ishining aralash varianti mahsuldor hisoblanadi (3- jadvalga qarang).

Masalan, boshlang'ich sinflarning 8 nafar o'qituvchisi psixologga quyidagicha kutilmani bildirishadi: birinchi sinf o'quvchilarining maktab hayotiga tezroq moslashtirish uchun yordamlashish zarurligi ta'kidlanadi. Bu maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilari jami 11 ta. Psixolog gorizontal bo'yicha bo'sh joyga: «Boshlang'ich sinf o'quvchilarining moslashishlariga yordam» deb belgilab, to'g'risiga 72,7% deb yozib qo'yadi.

**3- jadval. Maktab kutilmalarini o'rganishni  
ijtimoiy-psixologik tashkil etish**

Maktab xodimlari	Ijtimoiy psixologik ma'lumotlarni yig'ish metodlari
Direktor, ilmiy bo'lim mudiri	Alohida har bir inson bilan individual intervyu
Maktab o'quvchilari	Har bir o'quvchi bilan individual intervyu
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar	Guruhiy intervyu (tayanch savollar bo'yicha har bir sihf bilan alohida gaplashish)
O'rta sinf o'quvchilari	Guruhiy intervyu (sinflarda tayanch savollar bo'yicha bahs), o'quvchilarga individual maslahatlar
Yuqori sinf o'quvchilari	Guruhiy intervyu, psixolog bilan alohida suhbatlashishni xohlagan o'spiringa individual maslahat
Barcha o'quvchilarning ota-onalari	Anketa o'tkazish (ota-onalar majlisida psixolog tarqatadi va anketa maqsadini hamda olingan natijalar qayerlarda ishlatilishi tushuntiriladi. Psixolog bilan alohida suhbatlashishni xohlagan ota-onalarga individual maslahat

Maktab kutilmalari haqida ijtimoiy psixologik ma'lumotlarni yig'ish olingan ma'lumotlarni komp'yuter yordamida qayta ishlash tajribalarning ko'rsatishicha, 3 — 3,5 oy vaqt oladi. Maktab kutilmalarini quyidagi jadval asosida o'rganish mumkin (4- jadvalga qarang).

Maktab kutilmalarini ijtimoiy-psixologik tadqiqot qilish natijasida maktab psixologi qanday natijalar oladi?

1. U maktabdagi vaziyatlarda yo'nalish topish uchun o'ziga ishonch hosil qiladi. Psixolog maktab ma'muriyati, o'qituvchilar va ularning ota-onalari undan nima xohlashlarini, kutishlarini aniq biladi.

2. Maktab kutilmalari va rasmiy iltimoslar tuzilishini tahlil qilib, psixolog maktab jamoasi, ma'muriyati va o'qituvchilar orasidagi munosabat, turli yoshdagi o'quvchilarning holati, o'quvchilar va o'qituvchilar orasidagi munosabat haqida umumiy tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Ota-onalarning maktabga va o'qituvchilarga munosabatini ham aniqlash mumkin.

4- jadval. Maktab kutilmalarini o'rganish jadvali

Holatlar	Maktab					
Maktab direktori						
O'quv ishlari bo'yicha mudir						
Ilmiy ishlar bo'yicha mudir						
.....						
O'quvchilar						
Guruhlar						
Guruhlar						
O'quvchilar						
Boshlang'ich sinf o'quvchilari						
O'rta sinf o'quvchilari						
Guruhlar						
Guruhlar						
Yuqori sinf o'quvchilari						
Guruhlar						
Guruhlar						
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ota-onalari						
Guruhlar						
Guruhlar						
O'smirlarning ota-onalari						
Guruhlar						
Guruhlar						
Yuqori sinf o'quvchilarining ota-onalari						
Guruhlar						



3. Ijtimoiy-psixologik so'rovnomma va anketa intervyu o'tkazish jarayonida psixolog ko'p insonlar bilan tanishadi. Psixolog bu insonlar haqida o'zining ijobiy va salbiy taassurotlarini tuzatadi. Bu esa kelajakda qaysi insonlarga suyanish mumkinligini tushunish imkonini beradi.

Shunday qilib, maktab kutilmalarini ijtimoiy-psixologik tadqiq qilish natijasida psixolog nafaqat maktabdagi turli fikrlar, qarashlar, baholar haqida emas, balki maktab psixologiyasiga, xususan psixologga munosabati haqida bilib oladi.

## **2.6. Psixolog tanlovni amalga oshirishi**

Psixolog maktab kutilmalarini ijtimoiy-psixologik tadqiq qilgandan so'ng psixolog o'z ishi uchun qanday metodikalardan foydalanishi, qanday yosh davri bilan ishlashni tanlaydi. Bunday hal qiluvchi qarorni qabul qilish uchun psixolog quyidagi harakatlarni amalga oshiradi.

1. Bildirilgan maktab kutilmalarining qaysi biri haqiqiy va asosiy hisoblanadi, qaysilari yo'q, degan savolga javob topishi zarur.

Birinchi guruhga psixolog kasbi imkoniyatlari haqida tasavvurdan kelib chiqib, kutilmalarni kiritadi. Ikkinchi guruhga boshqa kasblar bilan qoniqtiriladigan kutilmalar kiradi.

2. Psixolog kasb imkoniyatlari bilan hal qilinadigan birinchi guruh kutilmalarini tahlil qilib, psixolog 2 ta ro'yxat tuzadi, ro'yxatda kutilmalar ahamiyatiga ko'ra saralanadi.

Birinchi ro'yxatda maktab kutilmalari maktabning obyektiv ehtiyojlariga ko'ra tuziladi. Bunda maktabda birinchi navbatda hal qilinishi zarur bo'lgan muammolar ro'yxat boshida turadi, ikkinchi ro'yxat u hal qila oladigan muammolardan boshlanib, hal qilinishiga ko'zi yetmaydigan muammolar bilan tugallanadi.

3. Tuzilgan ikki ro'yxatni o'z oldingizga qo'ying. Maktabni qiziqtiradigan va siz hal qila oladigan muammoni toping. Bu muammo ikki talabga javob berishi lozim: uning hal qilinishi maktab uchun zarur hamda siz psixolog sifatida muvaffaqiyatli hal qilinishiga ishonch hosil qilishingiz zarur.

*Qoida:* maktabda ishni obyektiv qiyin hal qilishga yillar kerak bo'ladigan, bir psixologning kuchi yetmaydigan, balki mutaxassislar guruhi hal qiladigan muammolardan boshlamang. O'zingiz hal qilishingizga ishonmaydigan muammolardan boshlamang. Maktab uchun zarur bo'ladigan, o'z mahoratingizni, o'zingizga ishonchni hamda muvaffaqiyatlaringizni namoyon qila oladigan muammolardan boshlang. Bu xislatlar sizning ijtimoiy boyligingiz bo'lib qoladi va u doim sizni himoya qiladi.

Ushbu qoidaning qat'iyiligi psixologning maktabdagi faoliyatida boshlang'ich davr ma'suliyatli hisoblanadi.

Dastlab ish boshlaganda siz xato qilishga yoki qurbingiz yetmaydigan katta muammoni hal qilishga kirishganligingiz uchun muvaffaqiyatga erisha olmaganligingizni sabab qilishga haqqingiz yo'q.

Sizga berilgan dastlabki baho uzoq vaqt esda qoladi. Vaqt o'tishi bilan sizning o'zingizga ishonmasligingiz, xatoga yo'l qo'yishingiz yo'qoladi tajriba to'playsiz, muvaffaqiyatga erishasiz, lekin maktabga kelganingizdagi baho, soyangizdek orqangizdan anchagacha ergashib yuradi.

4. Maktab kutilmalarini ijtimoiy psixologik tadqiq qilish jarayonida psixolog odamlarning psixologiya haqida nimalarni o'ylashi, psixologning maktabdagi ishi haqida hamma ma'lumot oladi.

Odamlarni ikki guruhga bo'ling. Birinchi guruhga psixologga ijobiy yondashadigan, uning maktabdagi rolini to'g'ri tushunadigan o'qituvchilar, ota-onalarni kiriting. Bu guruh psixologik bilimlar olishga, psixologik mashg'ulotlarda ishtirok etishga ichdan tayyorlar.

Ikkinchi guruhga psixologiyaga tanqidiy yondashadigan o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar kiradi. Bu guruhga psixologiyaga befarq qaraydigan yoki psixologiyani boshqa kasblar (vrach, narkolog, ruhoniy va boshqa kasb) bilan almashtiradigan kishilar kiradi.

*Qoida.* Ish faoliyatingizni birinchi guruh orasida boshlang. O'z kuchingizga to'liq ishonganingizda, maktabda siz haqingizda ijobiy fikr paydo bo'lgandagina ikkinchi guruh vakillari bilan ham shug'ullanishingiz mumkin. Bu qoidaning

muhimligi quyidagicha tushuntiriladi. Birinchidan, maktabda dastlab ish boshlashingizda, psixolog sifatida o'z kuchingizga to'liq ishonmaganingizda boshqa odamlarning qarshiligini engish bilan bog'liq ortiqcha hissiyotga berilmang.

Ikkinchidan, psixologni ijobiy qabul qiladigan birinchi guruh sizni psixologik jihatdan qo'llab-quvatlaydilar. Siz o'zingizning foydangizni his qilasiz, o'z kuchingizga ishonch hosil qilasiz.

Uchinchidan, ishingiz haqidagi birinchi guruh ishtirokchilari tarqatadigan ijobiy taqrizlar psixologning ijobiy ko'rinishini shakllantiradi, bu esa albatta ikkinchi guruhdagi insonlarning fikriga ta'sir qiladi, ularning psixologiyaga qarashlarini salbiydan ijobiyga o'zgarishiga olib keladi.

**Maktabda pedagogik klub: uni qanday tashkil etish mumkin?** Maktabda psixologiya va psixologlar haqida ancha xabardor bo'lishlariga qaramay, psixolog va o'qituvchilarning kasbiy hamkorligi muammo sifatida qolmoqda. Ko'pincha psixolog o'qituvchilarni «oliy psixologiyaga» o'rgatmoqchi bo'ladi, o'qituvchi bo'lsa psixologiya bilan tanishgan, an'anaviy pedagogik jarayonga qaytadi, to'polonchi o'quvchilarga eski, sinalgan yo'lni yana qo'llaydi: ikki baho qo'yadi, o'quvchini yoki ota-onasini o'qituvchilar majlisiga chaqiradi. Psixolog o'z kasbi ichida qolib ketadi. O'qituvchi esa psixologiyaga yaxshi narsa haqida orzu qilish mumkin bo'lgan, lekin hozircha maktablarda amalga oshirib bo'lmaydigan «san'at uchun san'at» sifatida munosabatda bo'ladi. Psixologning tasavvurida ham, psixologning ish uslubida ham muhim o'zgarishlar ro'y bermaydi.

O'qituvchi va psixolog orasida shaxslararo munosabat va ijodiy hamkorlik o'rnatish uchun mahsuldor tashkiliy usul bu klublardir. Klub tashkilotining afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Klubda norasmiy shaxslararo munosabatlarni shakllantirish va mustahkamlash imkoniyati vujudga keladi. Bunga tinch holat, majburlamasdan erkin ishtirok etish sharoiti, umumiy qiziqishlarni hisobga olgan holda muhokama uchun mavzu tanlash, muloqotning an'anaviy klub shakllari: choy tashkil etish, tug'ilgan kunlarni bayram qilish va hokazolar imkon beradi.

2. O'quvchi va kattalarni klubdagi hissiy iliq muhit tortadi. Klubda hayotiy tajriba va fikr almashiniladi.

3. Bunday pedagogik klubda psixolog peshqadam sifatida o'zini ko'rsatishi maqsadga muvofiq. Klubning ish dasturi psixolog, o'qituvchilar, ota-onalarning o'zaro ta'siri natijasida, ularning qiziqishlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Har bir mashg'ulotdan so'ng ishtirokchilar keyingi mashg'ulotda qaysi muammoni hal qilishlarini muhokama qilishlari mumkin.

4. Klub doimiy mazmunli uchrashuvlarni tashkil etish uchun sharoit yaratadi, shuning uchun klubdagi har bir mashg'ulot ishtirokchilar bilan kelishilgan holda aniq mavzuda bo'lishi maqsadga muvofiq.

5. O'zaro ta'sirning klub shakli psixolog, pedagog va ota-onalar uchrashuvining doimiy bo'lishini ta'minlaydi. Klub ishining rivojlangan shakllarida psixologik mashg'ulotlar shaklida (bahs, psixotexnik seanslar, psixotreninglar, rivojlantiruvchi o'yinlar va hokazo) o'tkazilishi mumkin.

«Ota-onalar va bolalar» nomli klub ham tashkil etish mumkin, bunda ota-onalar farzandlar tarbiyasi bo'yicha tajriba almashinadilar. Ota-onalar tajriba almashishining zarurligi quyidagicha tushuntiriladi, psixolog ota-onalar uchun muhim, foydali mutaxassis, universitetni tugatgan ko'p «aqli» bilimlarga ega shaxs hisoblanadi, lekin u «ota-onalarga o'xshamaydi. O'z farzandi bilan shaxslararo munosabatlar haqida gapirayotgan ota-ona esa ularga o'xshagan, ulardan hisoblanadi. Otalar va bolalar klubida psixolog tashkilotchi va ekspert sifatida ishtirok etishi mumkin, muhokamalarda faol ishtirok etmaydi. Bunday klubda ota-onalarning tajriba almashinuvi asosiy va muhim hisoblanadi.

**Maktab psixologining xonasi.** Psixolog direktorga avvalo o'z kabinetini tashkil etish bo'yicha murojaat etishi lozim. Maktabning tinchroq joyidan taxminan 10 — 12 kv. m. xonani egallashi zarur. Psixolog xonasi quyidagicha jihozlanishi mumkin: mebellar (yozuv va jurnal stollar, ish stuli va 2 ta kreslo, kitob javoni va hokazolar): jihozlanish predmetlari (yumshoq rangli parda, chiroyli tabiat manzarasi tasvirlangan kartinkalar) telefon, (iloji boricha paralel emas), kompyuter, seyf (diagnostik metodikalarni va psixologik tadqiqot natijalarini saqlash uchun).

Psixolog xonasida individual psixologik ishlar olib boriladi. (maslahat, psixoterapevtik tekshiruvlar va boshqalar).

## **Guruhiy psixologik ishlarni tashkil etish uchun xona.**

Psixolog o'zining xonasidan boshqa yana bir guruhiy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun maxsus xonaga ega bo'lishi kerak. Bunday xona 20 — 24 kv. m. kattalikda bo'lishi maqsadga muvofiq. Dastlab ish boshlaganda, psixolog agar bo'sh bo'lsa majlislar zalidan foydalanishi mumkin. Keyinchalik guruhiy mashg'ulotlar uchun alohida xonaning bo'lishi maqsadga muvofiq. Bunday xona quyidagicha jihozlanishi mumkin: 10 tacha kreslo, katta stol, devorda chiroyli tabiat manzaralari, xona burchagida akvarium. Shuningdek, audiokasetalar to'plami, videomagnitofon hamda video treninglar o'tkazish uchun maxsus jihozlar tavsiya etiladi.

## **2.7. Maktab psixologi va reklama**

Psixolog maktabda jon deb ishlab, o'zining ish vaqtini hamda ishdan bo'sh vaqtini maktabda o'tkazsa-da, ba'zan o'qituvchilarning «Psixologimiz nima qilyapti?», «Maktabda psixolog bormi, o'zi?» degan kinoyali gaplarini eshitish mumkin. Agar psixolog o'z faoliyatini o'zini reklama qilishdan boshlamasa, o'qituvchilarning bunday kinoyalari uzoq davom etadi.

Maktab psixologi o'zini doimo reklama qilishi zarur, ayniqsa, ish faoliyatining boshlanishida reklama bilan faol shug'ullanish maqsadga muvofiq, o'zini-o'zi reklama qilish 4 asosiy bosqichdan iborat.

**O'zini-o'zi reklama qilishning birinchi bosqichi.** Avvalo maktabda olib boriladigan ish rejasi va jadvalni ishlab chiqish zarur. Psixolog darslarga qatnashadigan, o'qituvchilar bilan suhbatlashadigan, psixologik tadqiqotlar o'tkazadigan, maslahatlar beradigan va psixotreninglar o'tkazadigan kunlar va soatlarni aniq belgilab olishi zarur.

Psixologning ish vaqti haqida e'lon kamida uchta joyda: psixolog xonasi eshigida, o'qituvchilar xonasida hamda maktabga kiraverishda ilingan bo'lishi maqsadga muvofiq.

**O'zini-o'zi reklama qilishning ikkinchi bosqichi** — kichik va o'rta, katta sinf o'quvchilari bilan uchrashib psixologiya haqida ommaviy shaklda suhbat o'tkazish zarur.

Psixologiya haqida hikoyalar o'quvchilar individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish kerak, masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ko'rish illyuziyalari yoki guruhiiy suggestiya fakti mavjudligini isbotlovchi tajribalarni o'tkazish mumkin.

Psixologning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan psixologiya haqida suhbatlashishidan asosiy maqsadi bolalarda psixologiyaga umumiy qiziqish uyg'otishi zarur. Psixologik suhbatlar birinchi sinflarda 15 — 20 daqiqa, uchinchi sinflarda 35 — 40 daqiqa o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Psixologik suhbatlar e'tiborni tortadigan, qiziqarli, ko'rgazmali bo'lishi lozim.

O'rta va yuqori sinflarda psixologiya haqida suhbatlar butunlay boshqacha o'tkazish maqsadga muvofiq. O'smir va o'spirinlar bilan muloqotda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

Psixolog o'smir va o'spirinlarga ularning qiyinchiliklari va muammolarini hal qilishda qanday yordam ko'rsatish mumkinligi haqida to'liq gapirib berishi zarur. Psixolog yoshlarda o'ziga ishonch hosil qilishda har qanday holatda ham erkin muloqot qilishga o'rgatishda xatarli vaziyatlarda qo'rqinch hissini engish o'qituvchilar, ota-onalar hamda do'stlari bilan munosabatlarni yaxshilashda yordam berishi mumkinligini aytadi.

Ikki har xil kasblar — psixolog va psixiatriya kabi kasblarning farqi haqida maxsus to'xtalish zarur. Odatda maktablarda va hayotda odamlar psixiatr bu psixolog, psixolog bu psixiatr deb hisoblashadi.

Maktabning hamma sinflarida, ayniqsa o'rta va yuqori sinflarda psixolog normal bolalar bilan ishlashda, psixiatr bo'lsa og'ir kulfatni boshdan kechirgan insonlarga yordam beradi, kasal insonlarga yordam beradi, kasal insonlarni davolaydi.

Bolalar sizdan «Psixoterapevt kim, u psixologdan nimasi bilan farq qiladi?», «Nevropatolog va ekstrasens kim, psixologdan nimasi bilan farq qiladi?» kabi savollarni berishlari mumkin. Bunday savollarga javob berishga tayyor turing.

O'smir va o'spirinlarda insonlarning kundalik hayotidagi maxsus faktlarni hikoya qilib berib, psixologiyaga qiziqtirishlarini orttirishlari mumkin. Bundan tashqari «o'yin testlaridan» foydalanib ham psixologiyaga qiziqishini orttirish mumkin.

Bolalarga «O‘zingizni boshqara olasizmi», «Balki noyob odamdirsiz» kabi testlar doim qiziq.

O‘smir va o‘spirinlar bilan psixologik suhbatlarni ularni individual maslahatga taklif qilish bilan tugallash zarur. Psixolog doimo ota-onalar majlislarida ishtirok etadi. Psixolog ota-onalar bilan suhbatda psixologning maktabdagi vazifasi nimadan iboratligi bilan tanishtiradi.

**O‘z-o‘zini reklama qilishning uchinchi bosqichida** bolalarni oilada tarbiyalashning umumiy muammolari, oilaviy munosabatlardagi qiyinchiliklar va ularni bolaning psixik taraqqiyoti hamda o‘qishdagi o‘zlashtirishga ta’siri haqida gapirib beradi. Ota-onalar bilan suhbat savol-javob hamda xohlovchilarni psixologik maslahatga taklif etish bilan tugallanadi.

**Psixologning o‘zini-o‘zi reklama qilishning to‘rtinchi bosqichida** u o‘qituvchilarga psixolog maktabda nima bilan foydaliligi haqida tushuntiradi, ma’ruza qiladi. Maktabdagi ish rejalari, g‘oyalari haqida gapirib beradi (masalan, pedagogik klub tashkil etish haqida). O‘qituvchilar oldida o‘zini ijodiy hamkorlikka hamda mahsuldor dialogga intilishini namoyon qilishi zarur.

Bulardan tashqari har bir chorak oxirida psixolog pedagogik yig‘ilishlarda bajargan ishlari haqida hisobot berib boradi. Hisobot davrida qancha guruhiiy mashg‘ulotlar o‘tkazilgani (qachon?, qayerda?), qancha individual maslahatlar berilgani, qancha maruzalar o‘qilgani haqida to‘liq hisobot berilishi zarur.

## **III BOB. MAKTABDA PSIXOLOGIK MA’RUZALARNI O‘QISH**

### **3.1. Maktabda ma’ruza psixologiyasi**

Maktab psixologi psixologik ma’ruzalarni o‘qish moyaynida insonlardagi psixologiyaga qiziqishini qondirish maqsadida maktab muammolarini hal qilishda amaliy psixologiyaning imkoniyatlari haqida so‘zlab beradi. Ma’ruza o‘qishning ijobiy tomoni shundaki, qisqa vaqt ichida barcha maktabdagi guruhlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Psixologik ma'ruzalar o'qishda iloji boricha tinglovchilar bir xil toifada bo'lishi, umumiy muammolar bayon etilishi lozim. Maktabda quyidagi tinglovchilar guruhlar ajratiladi: maktab ma'muriyati xodimlari, boshlang'ich, o'rta va yuqori sinf o'quvchilari, boshlang'ich o'rta va yuqori sinf o'quvchilari, bolalarining yoshga mos ravishda ota-onalari. Psixologik ma'ruzalarni o'qish uchun ko'pincha o'qituvchilar uchun qulay vaqtni tanlash zarur. O'qituvchi uchun darsdan so'ng ma'ruza o'qish mumkin. Ota-onalar majlisida ma'ruza tinglashlari lozim. O'quvchilar esa sinf rahbari bilan kelishilgan holda darslarning birida yoki darslardan so'ng ma'ruza tinglashlari mumkin.

Psixologik ma'ruzalar 15 daqiqadan bir soatgacha davom etishi mumkin.

Ma'ruza o'qish uchun maktabning majlislar zali yoki biror sinf xonasi tanlanadi. O'qituvchilar xonasida yoki direktor xonasida ma'ruza o'qishga ruxsat etiladi. Psixolog ma'ruza mavzularining dasturini tuzishda tinglovchilar tarkibi hamda ularning qiziqishlarini hisobga olishi zarur. Quyidagi har bir tinglovchilar guruhining qiziqishlari ro'yxati keltiriladi.

**Maktab ma'muriyatining qiziqishlari.** Maktabdagi o'quv tarbiya jarayonining mahsuldorligini oshirish uchun amaliy psixologiyaning imkoniyatlari qanday?

— Psixolog tabaqalashgan (differensialashgan) ta'limni tashkil qilishda yordam berish mumkinmi?

— Psixolog maxsus sinflarni (masalan, iqtisodiy pedagogik, matematik va boshqalar) tashkil etishda yordam berishi mumkinmi?

— Maktab pedagogik jamoasini qanday qilib samarali (aytishi mumkinki, qiynalмай) boshqarish mumkin?

— Maktab ma'muriyati bilan o'qituvchilar, ota-onalar orasida vujudga keladigan nizolarni qanday hal qilish mumkin?

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari:**

— Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tarbiyalashda qaysi dastur mahsuldor?

— Rivojlantiruvchi ta'lim metodikasini o'zlashtirish uchun qanday pedagogik psixologik adabiyotlarni o'qish zarur.



— O‘quvchilarning ota-onalari bilan suhbatni qanday usullarda tashkil etsa bo‘ladi?

— O‘qituvchi tarbiyasi qiyin bolalarga qanday yordam berishi mumkin?

— Boshlang‘ich sinflarni yangi pedagogik texnologiya bo‘yicha o‘qitishni o‘rganish uchun qachon qayerda seminarlar tashkil etiladi?

### **O‘rta sinf o‘qituvchilarining qiziqishi:**

— O‘smirlarni o‘qishga qanday qilib qiziqtirish mumkin?

— Darsda to‘polon qilib o‘tiradigan «qiyin» o‘smirni nima qilish kerak?

— Noto‘g‘ri ijtimoiy harakat qilgan o‘smirlarga qanday chora ko‘rish mumkin?

— O‘smirlarning bo‘sh vaqtini qanday qilib qiziqarli tashkil etish mumkin?

— Chekayotgan o‘smirlarga qanday ta‘sir ko‘rsatgan ma‘qul?

— O‘smirlarning erta boshlangan muhabbatiga qanday munosabatda bo‘lish kerak?

— Ishdan keyingi horish va charchashni o‘qituvchilar qanday qilib yo‘qotishlari mumkin?

### **Yuqori sinf o‘quvchilarining qiziqishlari:**

— Yuqori sinf o‘quvchilariga bitiruv imtihonlarini topshirishda qanday yordam berish mumkin?

— O‘spirinlarga qiziqish va layoqatlarin hisobga olgan holda kasb tanlashda qanday yordam berishi mumkin?

— Yuqori sinf o‘quvchilarini qanday qilib o‘qishga qiziqtirish mumkin?

— Ilk o‘spirinlik davridagi sevgiga qanday munosabatda bo‘lish kerak?

— O‘quvchilarning ota-onalari bilan qanday qilib, suhbat tashkil etish mumkin?

— Agar yuqori sinf o‘quvchisi nojo‘ya harakatni amalga oshirgan bo‘lsa, pedagogik ta‘sir vositalaridan qanday foydalanish mumkin?

### 3.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ota-onalarining qiziqishlari

— Bolaga yaxshi o'qishi uchun qanday yordam berish mumkin?

— Maktabga moslashish jarayonida bolalar quch keladigan qiyinchiliklarni qanday yengishi mumkin?

— Bola charchamasligi uchun uning kun tartibini qanday tuzgan ma'qul?

— Boshlang'ich sinf o'quvchisi qoshimcha qanday sek-siya, to'garaklar, kurslarga qatnashishi mumkin?

— Nima uchun bola ko'pincha kasal bo'ladi?

— Oiladagi munosabatlar bolaning o'zlashtirishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

#### **O'smirlar ota-onalarining qiziqishlari:**

— O'smir maktabda oilada hech kimni tinglamasa, nima qilishi kerak?

— O'smirning qo'polligiga qanday javob berish kerak?

— O'smir chekadigan bo'lsa nima qilish kerak?

— Agar o'smir yomon ulfatlarga qo'shilib qolgan bo'lsa, nima qilish kerak?

— O'smirni qanday qilib o'qishga qiziqtirish mumkin?

— Agar o'smir hech narsaga qiziqmasa nima qilish kerak?

— Agar o'smir qiz haddan tashqari ochiq rangli kosmetiklardan foydalansa, nima qilish kerak?

— O'smirning maxsus qobiliyatini qanday aniqlash mumkin hamda bo'lg'usi kasbini tanlashda qanday yordam ko'rsatish mumkin?

#### **Yuqori sinf o'quvchilari ota-onalarining qiziqishlari:**

— Bitiruv imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirishlariga qanday yordam berish mumkin?

— O'spirinlarning qiziqishlari va kasbiy yo'nalganligini qanday aniqlash mumkin?

— Farzandga bo'lg'usi kasbini tanlashda qanday yordam berish mumkin?

— Agar yuqori sinf o'quvchilari turmush qurushmoqchi bo'lishsa, nima qilishi kerak?

— Agar o'spirin o'g'il va qiz jinsiy aloqada bo'lishgan bo'lsa, nima qilish kerak?

— Ota-onalar farzandlarining narkotik moddalar qabul qilayotganligini bilib qolishsa, nima qilish kerak?

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qiziqishlari:**

— Qiziqarli psixologik suhbatni tinglash.

— Qiziqarli psixologik o'yin o'ynash.

**O'smirning qiziqishlari:**

— Psixolog kim? U nima bilan shug'ullanadi va psixologlar psixoterapevtidan himasi bilan farqlanadi?

— Astrologlarga ishonish mumkinmi?

— Ekstrasenslarga qanday munosabatda bo'lish kerak?

— Qizlar (yigitlar) bilan erkin muloqot qilishga qanday o'rganish mumkin?

— Guruh orasida o'z fikrida qolishda nimalarga ahamiyat berish kerak?

— Qo'rqinchni engishga qanday o'rgatish mumkin?

**Yuqori sinf o'quvchilarining qiziqishlari**

— Muhabbat muamolarini qanday hal qilish mumkin?

— Qanday kasbni tanlash zarur?

— Bitiruv imtihonlarini qanday qilib muvaffaqiyatli topshirish mumkin?

— Yigit va qizlar bilan erkin gaplashishga qanday erishish mumkin?

Yuqorida keltirilganlar maktabdagi barcha guruhlarining qiziqishlarini qamrab olmaydi. Bu yerda psixolog ma'ruzalarni o'qishda har bir guruhning qiziqishlarini hisobga olsa, samarali natija bo'lishini ta'kidlash lozim.

### **3.3. Psixolog ma'ruzachining o'zini-o'zi boshqarish psixotexnikasi**

Psixologik ma'lumotga ega bo'lmagan tinglovchilar uchun amaliy pozitsiyadan ma'ruzalar o'qish quyidagi xususiyati bilan farqlanadi:

Birinchidan, amaliy psixologiya insonlarning ruhiy hayotidagi hodisa va faktlarni tavsiflashga yo'naltirilgani uchun

o'qituvchilar, ota-onalar, o'quvchilar, qisqasi barchani qiziqtiradi.

Ikkinchidan, ko'pchilik tinglovchilar o'zlarini amaliy psixologiya sohasida bilimdon hisoblaydilar. Har bir insonning o'z shaxsiy tajribasi, qadriyatlari, o'z fikrlari mavjud.

Uchinchidan, tinglovchilar, ma'ruzalarni «psixologik» qiziqarli qilib, erkin, ishtirokchilarnig fikrlarini hisobga olib o'tkazishini kutadi. Ular psixologdan yoqimli, mazmunli muloqotni, hayot va kasb haqida foydali yangiliklarni kutishadi.

Baxtga qarshi ko'pchilik amaliy psixologlar bu holatga ahamiyat berishmaydi. Agar psixolog faqat ma'ruza o'qish uchun kelgan bo'lsa, bu vaziyat kechirimli bo'lishi mumkin. Maktabda doimiy ishlaydigan psixologlar oldida umuman boshqacha vazifalar turadi. U psixologik ma'ruzalarni «o'zicha» o'qishga haqqi yo'q. Agar psixolog auditoriyani mavzusi bilan qiziqтира olmasa, uning shaxsiy obro'si tushib, maktabning psixologiyaga umumiy munosabati pasayib ketadi.

Psixolog kasbi — so'zlashuv kasbidir. Maktabda psixologik ma'ruzalarni qanday o'qishga e'tiboringizni qaratamiz.

**Xavotirlanish va qo'rqvni qanday qilib engish mumkin?** Avvalo tinglovchilar oldida ortiqcha xavotirlanish va qo'rqish nima sababdan, vujudga kelishini aniqlash darkor.

- ommaviy ma'ruzalarni o'qish tajribasining etishmasligi;
- sizning individual xususiyatlaringiz;
- uyatchanlik, tortinchoqlik, yuqori xavotirlanish, o'ziga ishonmaslik;
- tinglovchilarga qiziqarli bo'lishga ishonmaslik;
- hissiyotlarga haddan tashqari berilmaslik;
- avval o'qilgan ma'ruzalarning birining yaxshi chiqmasligi.

Yana qanday sababni ko'rsatishingiz mumkin?

Siz auditoriyadan qo'rqish va xavotirlanish vujudga kelish sababini aniqladingiz? Ko'pchilik oldida nutq so'zlashdan qo'rqish va xavotirlanishdan qutilish uchun dastlabki qadam o'zini-o'zi bilish orqali ijobiy o'zini o'zgartirish mumkin.

**«O'zini qanday tutish mumkin» mashqi.** Bu auditoriyada ma'ruza o'qishdan oldin vujudga keladigan zo'riqish holatini

bartaraf etishga, bilimni faollashtirishga yo'naltirilgan mashqdir. Shunday vaziyatni ko'z oldingizga aniqroq keltirishga harakat qiling. Ko'zingizni yuming va sinf xonasi yoki majlislar zali va tinglovchilar yuzlarini keltiring.

Nutq so'zlaydigan joyga qarab ketayotganingizni ko'z oldingizga keltiring. Chiqayotganingizda nimani his qilasiz? O'zingizning ichki obrazlaringizda sekin harakat qiling, bunda kichik qismni ham esingizdan chiqirmang. O'z ichki holatingizni aniqroq his qilishga harakat qiling.

— Sizda qanday obrazlar vujudga keladi?

— Xavotirlanishingiz o'tirganlardan kim bilan bog'liq?

— Tinglovchilar bilanmi? («Ular menga qarashadi», «Ular meni tanqid qilib, qiyin savollar berishadi», «Ular meni tinglamaydilar»)

— O'zim bilan bog'liq? «Nimanidir boshqacha aytib qo'yishdan qo'rqaman».

«Tinglovchilar meni qabul qilmasliklaridan qo'rqaman». Eng yaxshi notiq bo'lishni va auditoriyani lol qoldirishni istayman».

Shunday qilib, siz xavotirlanish va zo'riqishingiz qayerda «yashashini» bilib oldingiz?

**Aniq maslahatlar.** Agar sizning xavotirlanishingiz tinglovchilar bilan bog'liq bo'lsa:

— ma'ruza o'qiyotganingizda sizni tinglayotgan tinglovchini tanlab, faqat uning uchun gapiring (asosiysi, uning o'ziga qarashni o'rganing);

— siz tanlagan tinglovchi bilan aloqa o'rnatilgandan so'ng, ko'zingizni uning yonidagi kishiga qarating, u bilan ham ko'z aloqasini o'rnatib;

— tinglovchilarga ochiq yuz bilan qarashga, ularning chaqnoq ko'zlarini ko'rishga harakat qiling;

— auditoriyaga kulimsirab qarashga hamda ulardan ham shunday javob kulgusini olishga harakat qiling.

Agar sizning xavotirlanishingiz o'zingiz bilan bog'liq bo'lsa:

— ma'ruza o'qish tajribasini egallashga harakat qiling: ko'proq ko'pchilik oldida so'zlashga, savollar berishga hamda jamoaviy bahslarda ishtirok etishga harakat qiling;

— urinib ko‘rish va xato qilish yo‘li bilan muvaffaqiyatga erishish yo‘lini topib olasiz. Bunday holat barcha insonlarda har xil, «Kimdir quvonganidan uchgisi keladi», «Kimdir bo‘lar bo‘lmasga xavotirlanadi».

— psixologik ma‘ruza jarayonida nimaga erishmoqchiligingizni, auditoriyaga nima bermoqligingizni aniqlang: qa‘tiy ma‘ruza o‘qing, «kichik aqliy bayram o‘tkazing», «auditoriya bilan mazmunli dialog tashkil qiling».

— o‘zingizni aktyor deb tasavvur qiling: qanday rolni o‘ynashni xohlaysiz, o‘tirganlarga qanday obrazingizni namoyon qilmoqchisiz?

— ma‘ruza o‘qishdan oldin «qizib oling» — tinglovchilardan biri bilan suhbatlashing, auditoriyada mayda qadamlar bilan yuring.

**Umumiy maslahatlar.** Siz ma‘ruza o‘qiydigan auditoriyada bir kun oldin guvohlarsiz mashq o‘tkazing: ma‘ruza o‘qiydigan joyingizga boring, bo‘sh zalga qarang, holatingizni, ovozingizni qanday bo‘lishini hamda qanday so‘zlar bilan boshlab nima bilan tugatish lozimligini o‘ylab qo‘ying.

Ma‘ruzaga bir necha soat qolganda, uyda keresloda o‘tirib, ko‘zingizni yumgan holda, chiqishingiz jarayonini xayalan ko‘z oldingizga keltiring (senariyni rejalashtiring).

Kechqurun uyquga ketishdan oldin barcha vaziyatni tushingizda ko‘rishga harakat qiling: tinglovchilar qanday yig‘ilishmoqda, nutq so‘zlaydigan joyga qanday bordingiz, qanday boshlaysiz. Asosiysi, ma‘ruza muvaffaqiyatli chiqishiga ishonishingiz lozim.

**Psixologik ma‘ruzada o‘z obrazini qanday namoyon qilish mumkin?** Auditoriya oldida gapira boshlaganda dastlab o‘tirganlar sizni tinglamayotanday tuyuladi. Sizni zimdan kuzatishadi, «siz bilan tanishadi», sizning ovozingizga moslashadi, tashqi ko‘rinishingiz kuzatiladi, sizni xarakteringiz to‘g‘risida xulosa chiqarishga harakat qilishadi.

Shaxsiy tanishish — ko‘nikuv hosil bo‘lgandan keyingina tinglovchilar ko‘zida qiziqish paydo bo‘ladi, ba‘zilari kelishuv sifatida boshlarini qimirlatishadi, boshqalari nimanidir yozib olishadi, boshqa birlari o‘zaro fikr almashadi.

Tanishuv — ko‘nikuv hosil bo‘lgandan so‘ng psixologga inson, ayol yoki erkak sifatida qiziq boshlaydilar. Siz auditoriyaga olib kiradigan bilimlar tinglovchilarga siz psixolog sifatida o‘zingiz qanday tushunishingiz va his qilishingizga bog‘liq ravishda qiziqarli yoki zerikarli bo‘lishi mumkinmi? Nutq so‘zlayotgan mavzuingiz bo‘yicha shaxsiy tajribaga egasizmi? Hayot va ishda sizda nima muvaffaqiyatli chiqdi, nima muvaffaqiyatli chiqmadi? Psixolog sifatida qayerda xato va kamchiliklar ro‘y berdi? Muvaffaqiyatsizlikni qanday boshingizdan kechirasiz? Hayotda va ishda muvaffaqiyat qozonasizmi?

Ma‘lumki, ma‘ruzalarga puxta tayyorgarlik ko‘rib aslo hayajonlanishga yo‘l bermaslik kerak, asosiysi, auditoriyaga o‘zingizning qanday obrazingizni taklif qilishni xohlashingizni puxta o‘ylash darkor. Psixolog turli tinglovchilarga: o‘qituvchilarga, ota-onalarga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga, o‘smirlarga va yuqori sinf o‘quvchilariga har xil o‘z obrazlarini taklif qilishi mumkin.

«O‘z obrazingiz» xulq-atvoringizning quyidagi qismlaridan tashkil topadi:

— tashqi ko‘rinish (kiyim, yuz ifodasi, tovush to‘lqini, o‘zini tutish);

— auditoriya oldida psixologik rolni namoyon qilish, bu rolga hissiy bo‘yoq berish;

— nutqingizdagi asosiy qadriyatlarning yo‘nalishi (sizni nima qiziqtiradi va siz nimaga qarshi kurashasiz);

— o‘z chiqishingizni boshlaydigan dastlabki so‘zlar;

«O‘z obrazi»ning barcha qismlariga to‘liqroq to‘xtalib o‘tamiz.

**Psixologning tashqi ko‘rinishi.** Kiyimingiz, taranishingiz, qanday taqinchoqlar taqishingiz (agar psixolog ayol kishi bo‘lsa), kosmetikadan foydalanish haqida to‘xtalib o‘tamiz.

Agar siz o‘qituvchilar oldida nutq so‘zlaydigan bo‘lsangiz, kiyimingiz, yorqin rangli bo‘lmasligi, iloji bo‘lsa — kostyum, soch turmagingiz — oddiy, kosmetikadan ozroq foydalaning, taqinchoq juda qimmat va ko‘zga tashlanadigan bo‘lmasligi zarur. Chehrangiz — xotirjam, «o‘qituvchilardek qattiqqo‘l», nutqingiz — didaktik mantiqiy tuzilishga ega bo‘lishi darkor.

Maktab amaliyotidan bir misol keltiramiz. Ayol psixolog maktabda o'qituvchilar uchun amaliy psixologiya bo'yicha seminar o'tkazmoqda. Farzandlarni moddiy boyliklarga emas, ma'naviy boyliklarga qiziqtirish, turmushda, kiyinishda o'z-o'zini chegaralashning foydasi haqida gapirmoqda.

Bunda psixolog o'qituvchilar oldida oxirgi modada kiyinib, bor taqinchoqlarini taqib, ko'z-ko'z qilmoqda. O'qituvchilar auditoriyasining psixolog ma'ruzachiga munosabati umuman salbiy bo'ladi: ba'zilar umuman qabul qilmasa, ba'zilar ko'ngilga olmaydi.

O'qituvchilar psixologga nima uchun bunday munosabatda bo'ldilar, siz nima deb o'ylaysiz? Bunday salbiy munosabatning shakllanishi ikki sababga bog'liq: ma'ruzaning mazmuni psixologning o'z obraziga mos emasligi va psixolog nutq so'zlayotgan auditoriyaga uning tashqi ko'rinishi mos emasligi.

Agar siz maktabda ota-onalar uchun nutq so'zlayotgan bo'lsangiz, tashqi ko'rinishingiz jiddiy bo'lishi kerak. Tinglovchilarga xotirjam, bilimdon inson ekanligingizni namoyon qilishingiz kerak. Ochiq, ishonch bilan so'zlash, tinglovchilarga farzandlaringiz tarbiyasi bo'yicha qiyin vaziyatlar bo'lib turishi, ularni bemalol hal qilishingizni tushuntirishingiz zarur. Agar siz litsey va gimnaziyalarda ota-onalar uchun ma'ruza o'qiydigan bo'lsangiz boy oilalarning ayollarida qoniqmaslik hissi paydo bo'lmasligi uchun soch turmagingiz va kosmetikangiz «ularga mos bo'lishi kerak». Qimmat bo'lmasa-da, tashqi ko'rinishingiz chiroyli bo'lishi, o'zingizni ulardan ustunligingizni xotirjam namoyon qilishingiz zarur. Sizning har bir so'zingiz va imo-ishorangizda muvaffaqiyat, kasbiy mahorat, ishbilarmonlik sezilib tursin.

Agar siz boshlang'ich sinf o'quvchilari oldida nutq so'zlasangiz, sviter yoki kofta kiyishingiz zarur, xotirjam, an'anaviy soch turmagi (ona soch turmagi), ozroq kosmetikadan foydalaning, ochiq ijobiy hissiyotlarni namoyon qiling, hech kimni alohida ajratmang, har bir bolani hissiy qabul qiling. Yuzingizdan g'amxo'rlik, issiqlik, yaxshilik nurlari sochilib tursin. Ovozingiz yumshoq, ularni sizlab biroz erkalatib gapiring.



Agar siz o'smirlar oldida nutq so'zlasangiz, yorqin rangli ko'ylak kiying, kosmetikadan foydalaning, urf bo'lgan taqinchoqlar taqing. O'zingizga ishonch namoyon qiling, (siz hamma savolga javob bera olasiz) «O'g'il bolaning ovozi bilan» gapiring, ba'zan hazil ishlatning.

Agar siz yuqori sinf o'quvchilari oldida nutq so'zlasangiz, kiyimingiz demokratik va elegant bo'lishi zarur (o'spirinlar modani yaxshi qadrlashlarini esda tuting). Albatta, kosmetika va taqinchoqdan foydalaning. Shaxsiy kasbiy mahoratingizni namoyon qiling. Ochiq ishonch bilan, erkin gapirishga harakat qiling. Yoshlarning muammolarini tushinishingizni namoyon qiling.

### **3.4. Ma'ruza o'qishda psixologning roli**

— Ma'ruzangiz avvalo bayram, aqliy o'yin, qoniqishga aylanishi zarur. Siz hayotga ishonch, yaxshilik ko'zi bilan qarovchi inson rolini o'ynaysiz, bunday rol boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'smirlar uchun samoralidir.

— Siz neytral «ma'lumot beruvchisiz», psixologik bilimlarni taklif qilasiz, tinglovchilar o'zlari nimani qanday bajarishni hal qiladi. Ushbu rol ota-onalar oldida nutq so'zlayotganda qo'l keladi.

— Siz hayot faoliyatingiz, inson uning hayoti, ta'lim va tarbiyasi haqida xotirjam fikr yuritasiz. Bunday rolni ziyoli ota-onalar va yuqori sinf o'quvchilari auditoriyada o'ynashi mumkin.

— Siz ma'ruzangiz davomida bolalarni sevish, ularni psixologik qo'llab quvatlash haqida to'xtalasiz. Bunda o'qituvchilar va ota-onalar tinglovchingiz bo'ladi.

**Psixologik ma'ruzani boshlash mumkin bo'lgan so'zlar va ifodalar.** Har bir ma'ruzachining dastlabki so'zlari tinglovchilarga ishontiruvchi ta'sir ko'rsatishini yaxshi biladi. Kimning oldida nutq so'zlashingizga qarab, o'zingizga yoqqan ifodalarning biridan boshlashingiz mumkin.

**«O'zingizga yoqqanini tanlash mashqi».** Siz o'qituvchilar oldida nutq so'zlasangiz:

— Assalomu alaykum! Bugun siz bilan murakkab muammoni muhokama qilamiz (Muloqotning jiddiy va muammoli bo'lishini eslashi, auditoriyada «tenglik» pozitsiyasida o'zaro ta'sir ko'rsatish mumkin).

— Assalomu alaykum. Psixologning o'qituvchilar oldida nutq so'zlashi ham oson, ham qiyin. Shuning uchun osonki, bizning oldimizda umumiy maqsad — o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish maqsadi turibdi. Shuning uchun qiyinki, qisqa muloqot chog'ida umumiy muammoni hal qilishda birlashish, birgalikda umumiy til topish zarur (Psixolog auditoriyaga sheriklik asosida kasblararo o'zaro ta'sir asosida murojaat qiladi).

— Mening qarashlarim: psixolog ma'lum psixologik pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqishi mumkin, bu muhim albatta. Lekin o'qituvchi tarbiyasi qiyin o'smirlar yoki o'zlashtirishda orqada qolayotgan o'quvchini tarbiyalash bo'yicha o'zining ko'p yillik tajribasiga tayanishi zarur (O'qituvchilik kasbiy mahoratiga hurmatni ifodalash).

— Men sizga psixologiyaga qiziqish namoyon qilganingiz uchun tashakkur bildirmoqchiman. Ko'chada kuchli yomg'ir va momaqaldiroq bo'lishiga qaramasdan, zal to'la odamlarni ko'rayapman (ma'ruza boshlashdan oldin hissiy ijobiy muhitni yaratish).

— Do'stlar, agar tinglovchilar unchalik ko'p bo'lmasa, yaqindan suhbatlashish imkoni mavjud bo'ladi. Bugun bizda nafaqat ma'ruza balki, dialog muloqot suhbat bo'lib o'tadi (Agar auditoriyaga kam odamlar yig'ilgan bo'lsa, zo'riqishni yo'qotish uchun yuqoridagi so'zlardan boshlash mumkin).

### **Siz ota-onalar oldida nutq so'zlamochisiz.**

— Hurmatli ota-onalar! Meni o'z'laringizga yaqin qabul qilishingizni xohlardim! «Psixolog» hayotda qanday ish qilish kerakligi» haqida gapirib beradi, hayot shunchalik murakkabki, uni psixologik qonunlar bilan boshqarish qiyin» deb o'ylayotgan bo'lsangiz kerak. Siz ham, men ham qiyin hayotiy vaziyatdamiz. Farzandlarimiz haqida gaplashaylik (Empatik o'zaro ta'sir, «tenglik» asosida suhbatning boshlanishi).

— Yuzlaringizdan qattiq charchaganingiz sezilib turibdi. Ma'ruzaga ishdan keyin kelganingiz ko'rinib turibdi. Ma'ruza sizlar uchun qiziqarli va foydali bo'lishiga harakat qilaman (Hissiy qo'llab-quvvatlanishni ifodalash, iliq shaxslararo munosabatni shakllantirish).

— O'zimni tanishtirishga ijozat bering! Oilaliman ikki qizim bor, men faqat psixologiya bo'yicha mutaxassis bo'lib qolmasdan, balki ikki farzandning onasiman. Barcha oilalarda bo'lgani kabi bizning oilada ham munosabatlarda muammo va qiyinchiliklar bo'lib turadi. Biz ularni hal qilishga harakat qilamiz. Bugun oilaviy muammolarni qanday hal qilish haqida gaplashamiz (Hissiy ochiqlikni namoyon qilish «tenglik va ham fikrlik» asosida suhbatga tayyorgarlik).

### **Siz yuqori sinf o'quvchilari oldida nutq so'zlamochisiz.**

— Qadrli do'stlar! Ma'ruza oldidan sizlarni ko'rganimdan xursandman: barchangiz kuchga to'lgan va hamma narsaga qiziquvchansiz. Bugungi ma'ruzamiz mavzusi sizlarga qiziqarli bo'ladi, deb o'ylayman. Ma'ruzani boshlashdan oldin, ma'ruzamiz suhbat shaklida o'tsa, yanada yaxshi bo'lardi. Bu muammo bo'yicha o'z fikringizni bildirishingiz mumkin, men bo'lsa o'z fikrimni bildiraman (Auditoriyani hissiy qabul qilish, hamkorlikdagi dialog taklif etish).

— Ma'ruzaga kelganingizdan juda xursandman. Sizlarni psixologik muammolar qiziqтира kerak. Ma'ruzada qiziqishlaringizni e'tiborga olishga harakat qilaman (Yuqori sinf o'quvchilari qiziqishlarini, hissiy qo'llab-quvvatlash).

Shunday qilib, quyidagi xulosalarga kelamiz. Maktabda amaliy psixologiya bo'yicha ma'ruza o'qish oson emas. Ko'p omillarni hisobga olish zarur: auditoriyaga moslashish, ularning tilida gapirish, ma'ruza tinglovchilarga qiziqarli bo'lishiga hamda ularning ehtiyojlarini qondirishga harakat qilish zarur. Ma'ruzalarni ta'sirli qilib o'qishga harakat qilish kerak, o'z obrazini chiroyli, ochiq, qiziquvchan, boy hayotiy tajribaga ega inson sifatida namoyon qilish lozim, shaxsiy fikrni aytishga intilish zarur. O'zingiz haqingizda o'rinli gapirib berishingiz mumkin. Har qanday auditoriyani siz psixolog, inson sifatida hayotingiz, his-tuyg'ularingiz qiziqtiradi.

# IV BOB. PSIXOLOGIK – PEDAGOGIK TRENING

## 4.1. Mashq va o‘yin orasidagi kommunikativ va tarkibiy aloqalar

O‘quvchilar bilan guruhiiy psixologik mashg‘ulotlar odatda 4 – 6 ta mashq va o‘yinlardan tashkil topgan.

Har bir psixotrening o‘zining ma‘lum bir so‘z va ifodalar to‘plamiga ega bo‘ladi, asosiysi, bu hayoliiy so‘zlar guruh boshqaruvchisi tomonidan o‘z vaqtida va o‘z joyida talaffuz qilinishi kerak, aks holda ular sun‘iiy yordam bo‘lib qolishlari mumkin. Ular bir mashqdan, ikkinchisiga o‘tishganida tabiiy o‘tishni hosil qilishlari kerak.

**Guruhiiy mashg‘ulotlar dinamikasi.** Guruhiiy mashg‘ulot o‘zining qonun qoidalariga ega, trening dasturi va sahnasini ishlab chiqarilishi o‘yin faoliyatining ma‘lum bir dinamikasini tashkillashtirish hisobiga o‘tkazilish kerak. Qandaydir darajada bunday dinamik mashg‘ulot va uning ssenariysini tashkillashtirishda namoyon bo‘ldi.

Treningni amaliy o‘tkazishda ruhshunos tomonidan bular maxsus kiritilishi lozim. Shunday qilib, birinchi bosqichda, ruhiy mashq davomida o‘yin fitnalar yuzaga keladi, so‘ng ikkinchi bosqichda psixolog tomonidan mashq va o‘yinlar individual olib borilishi, bunda eng yuqori nuqtaga erishish maqsadida trening «ruhiy vaqt» asta-sekin tezlashishi kerak. U har xil shakllarda ifodalanishi mumkin: muhim muammoni yechish, o‘zini yengil sezish, qoniqish, guruhning faolligini kuchayishi, yoki nizo yuzaga kelishi va uni hal qilish, guruhning qandaydir a‘zosini o‘rganish uning tomonidan ruhiy qo‘llab-quvatlashishiga erishish.

Psixotreningda yuqori cho‘qqiga asta-sekinlik bilan olib kelinishi kerak. Agar mashg‘ulotning umumiiy davomiyligi 3 soat bo‘lsa, odatda yuqori nuqta mashg‘ulotning ikkinchi soat oxirida yuzaga keladi. Dinamikaning o‘sishini va kulminatsiyaga erishish muvaffaqiyatli o‘tishi uchun psixolog guruh faolligining so‘nishiga, guruhning zerikishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak. Kulminatsiyaga erishilgandan so‘ng guruhda faollik tushib

ketadi, bo'linish tinchlanish va qoniqish paydo bo'ladi. Sekin-astalik bilan guruh faolligi darajasi mashg'ulot boshlangan vaqtdagi dastlabki holatga qayta boshlaydi.

Mashg'ulotning uchinchi bosqichi. Bu bosqich mashg'ulotning tugallanishidir. Guruhiy ishlar natijalarining muhokamasi bo'lib o'tadi. Trening guruhi a'zolari o'zlarining fikrlarini bayon qilishlarini taklif qilishi mumkin.

Agar guruh yoki uning biror-bir a'zosi o'zini yolg'iz, begona, ishonchsiz his qilsa, ruhiy tetiklashtirish uslubini qo'llash zarur. Bunda psixolog ishtirokchilarning ko'ziga tik qarab ishonch bilan quyidagi so'zlarni aytish mumkin. «Siz hamma narsani his qila olasiz», «Men aminman, sizda hamma narsa bo'ladi». «Bir qarorga kelishingiz kerak, turib harakat qiling». Bu maqsadlar uchun maxsus mashqlardan foydalanish zarur.

**«Baland bo'yli inson» mashqi.** Mashq 10 daqiqa davomida olib boriladi va guruh qatnashchilarining faolligini va ularning o'zini-o'zi baholashga yo'naltirilgan holda olib boriladi, hammani doiraga tushishi taklif etiladi va quyidagi yo'riqnomani aytish kerak.

«O'zingizni baland bo'yli odamlar deb tasavvur qilinglarda, atrofga qaranglar. Pastda kichkina liliputlar, sizlar esa katta, ulkan odam-velikansizlar. O'zingizni kuchli his qilaszlarmi? Juda yaxshi! Odamchalarning birini qo'lingizga oling va uni tomosha qiling. O'zingizni katta odam, ularni kichkina odam deb his qilaszlar».

**«Ha-yo'q» mashqi.** Mashq 5–7 daqiqa davomida olib boriladi. Guruhning umumiy kuchini oshirishga qaratilgan, barcha qatnashuvchilar ikkiga, taxminan teng guruhlariga ajraladi va bir-biriga qarshi holatda turadilar. Bir guruh boshlovchining buyrug'i bilan «Ha» so'zini qattiq ovozda ayta boshlaydilar, ikkinchi guruh unga «Yo'q» deb javob beradi. O'qituvchilar o'zlarining so'zlarini qattiqroq talaffuz qila boshlaydilar. Ular o'z raqiblariga haqliklarini ko'rsatib qo'yimoqchi bo'ladilar, xullas qattiqroq baqirgan o'zining haqligini bildirgan guruh g'olib chiqadi.

## 4.2. Guruhiy treningda sukunat

Psixolog guruhda tanaffus yuzaga kelganini his qilishi kerak, agar bu noqulay sukunat, o'z fikrlarini aytishni istamasligi, zerikish yoki guruh ishiga qiziqishning yo'qligi bo'lsa, bunday pauzani psixolog faollashtirish mashqlari yoki savollari bilan buzishi kerak, «Nima deb o'ylaysizlar, nima bo'ldi? Nima uchun bunday noqulay sukunat yuzaga keldi?»

Agar yuzaga kelgan tanaffus — ta'sirlanish, chuqur o'ylanishning oqibati bo'lsa, bunday tanaffusni buzish mumkin emas, har bir ishtirokchi uning ichki jarayonlariga quloq solishi va sabr qilishi kerak. Bu ijodiy tanaffusdir, unda o'qituvchilarda faol ichki faoliyat amalga oshadi.

Guruh yoki guruh a'zolari o'ynashni rad etsalar-chi?.

Guruhiy psixotreningda ko'p hollarda o'qituvchilar qandaydir mashqlarni bajarishni rad etadilar, mashqlarda passiv bo'ladilar.

Guruhning bunday o'zini tutishi har xil sabablar bilan tushuntiriladi, o'qituvchilarning charchog'ini yengishda samarali mashqlarning yetarli emasligi, guruhdagi faollikning birdaniga tushib ketishi, mashqning qiziqarsiz yoki qiyinligi va hokazo.

Bunday holatlarda mashqni majburiy ravishda bajarish tavsiya etilmaydi. Dasturni asosiy g'oyasini tushuntirgan holda guruhni qiziqtirish, mashqni qanday qiziqarli yo'l bilan bajarish kerakligini o'qituvchilardan so'rash yoki qatnashuvchilarning birini vaqtinchalik olib boruvchi qilish kerak, bunday holda eng samarali usul mashq yoki o'yinda namoyon qilinishni psixolog o'zi boshlaydi. Guruh aniq bir qarorga kelmaganligi sababli «Xo'sh, qani, o'zim his qilib ko'ray-chi» yoki «Kelinglar, mendan boshlaymiz» deb murojaat qiladi.

Bu bilan psixolog guruhga ishonchni bildiradi, qandaydir darajada guruhga namuna sifatida chiqadi, psixolog guruh a'zolari kabi teng huquqli bo'lib qoladi. Shunday holatlar ham bo'ladiki, bunda guruhning qandaydir bir a'zosi tashqi kuzatuvchi pozitsiyasini egallaydi. U umumiy muhokamaga qo'yilmaydi o'ynashni rad etadi, ruhiy texnik mashqlarda hech narsani his qilmasligini aytadi. U boshi og'riyotganligini yoki ahvoli yomonligini ham aytadi.

Bunday ishtirokchi guruh ishida uning a'zolari noqulaylikni va hayron bo'lishlikni keltirib chiqaradi, qolgan guruh a'zolarida ham ishlash niyati yo'qoladi, ular passiv bo'lib qoladilar yoki norozilikni namoyish etadilar. Bunday hollarda nima qilish kerak? Agar guruh ishiga qo'shilmagan qatnashuvchi halaqit qilmasa, unga e'tibor berishning hojati ham yo'q. Bir oz vaqt o'tgandan so'ng uning o'zi o'ynashni xohlab qoladi yoki boshqa mashqda qiziqib faolligini oshiradi. Agar guruh kuzatuvchiga salbiy ta'sir qilayotgan bo'lsa, psixolog bu a'zoni o'yin jarayoniga kiritishi kerak. O'yin davomida bunday qatnashuvchini uning faolligi va qiziqishini oshirish maqsadida tinmay savol berib turishi lozim. Ko'pgina boshlovchilar passiv a'zoni o'yinga qo'shishga harakat qiladilar. Qabul qiladigan qaror esa: kuzatuvchining shaxsiyati, guruh a'zolarining unga ta'siri, psixologning ish shakli, mashg'ulot iqlimi, trening tematik yo'nalganligi yoki maqsadlariga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik treningda psixolog «shaxsiy materiallari» maqsadi, ba'zi bir holatlarda psixolog guruh ishiga qatnashuvchi huquqlari asosida kirishi zarur: o'zini hayotidagi qiyinchiliklari va kelishmovchiliklarni bayon qilishi guruh a'zolariga shaxsiy muammolarni hal etish va tajribasi borligi yoki o'zi haqida biror bir shaxsiy narsalarni gapirib berish mumkin.

Odatda o'qituvchilar, psixolog shaxsiyatiga qiziqish bilan qaraydilar va bunday suhbat foydali bo'ladi. Biroq o'zini juda muammoli odam, har bir qarashda qiyinchilikni his qiluvchi qilib ko'rsatish to'g'ri kelmaydi. Psixolog o'zini holatini to'g'ri tashkil etishi va omadli inson sifatida his qilishi kerak.

Bundan tashqari, shaxsiy materialni guruhga taqdim qilish juda muhim, agar psixolog o'zining intim hayotini ko'p va qisqa gapiradigan bo'lsa, u ishtirokchilarga «O'zini ko'z-ko'z qiluvchi odam» sifatida namoyon bo'ladi. Ularda hammadan ham o'ziga qiziqadigan odam degan shubha uyg'onadi, u boshqalarga yordam bera olmaydi, degan fikr paydo bo'ladi. Bunday shubha ishonchsizlikni yuzaga keltiradi, bu esa guruhning olib boruvchiga bo'lgan qiziqishinini birdaniga so'ndiradi.

Shaxsiy material guruhga shaxsiyatsiz shaklida ham bayon etilishi mumkin. Psixolog o'zi haqida gapirayotib, bunda bu hikoya uning tanishi yoki qarindoshi bilan bo'lgan deb gapirishi yoki aksincha, psixolog tomonidan o'ylab topilgan hayotiy drama guruhga xuddi shaxsiy hayotida bo'lganidek bayon qilishi kerak.

Xullas, guruhdan zerikish yoki qo'llab quvatlashdan uzoqroq bo'lish kerak, esdan chiqarmaslik lozim, ruhiy mashg'ulotlar o'qituvchilar uchun avvalam bor ularga yordamni amalga oshirish maqsadida tashkil qilinadi, «shaxsiy material» esa treningni samarali, qiziqarli, o'ta ta'sirchan va aniq bo'lishida foydalaniladi.

### **4.3. Psixologning o'z ishidan qoniqish darajasi**

Psixolog guruh e'tibori markazida turadi, unga qaraydilar, unga quloq soladilar. Agar ruhshunos bundan qoniqish olsa, guruh ishidan, unda ichki ruhiy qoniqish hosil bo'ladi.

Biroq psixologning qoniqishi o'rta darajada bo'lishi kerak. Har bir psixolog o'zining qoniqish darajasini bilishi kerak. Aks holda guruh ishining samarasi birdaniga tushib ketadi va guruh bilan o'zaro munosabatda bo'shliq paydo bo'ladi. Pedagogik trening ruhiy ish ko'rinishidan «Bir aktyorli teatr» ko'rinishiga o'tadi, bunda psixolog kasbiy ishini emas, balki tabiiy artistlik mahorati ham namoyish qilinadi.

**Treningdan so'ng psixologning holati.** Guruhiy treningni istalgan kasbiy guruhda, shu jumladan o'qituvchilarda o'tkazilishi psixologdan katta kuch sarfini talab qiladi. Mashg'ulot tugaganidan so'ng psixolog kuchli charchoqni his qiladi. Shuning uchun samarali dam olish va tez ish qobiliyatini tiklashi, muolajalar tizimidan foydalanishi kerak. Har bir psixolog uchun o'zining sevgan mashg'ulotlari bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari maktab psixologi yuklamasi me'yoriy talablari mavjud, bu talablarni buzmaslikka tavsiya etiladi. Trener faollik qobilyatini va natijali ishlashni saqlab qolishi uchun haftada 2 yoki 3 tadan ko'p bo'lmagan miqdorda guruhiy mashg'ulotlar o'tkazishi kerak.



#### 4.4. «O‘quvchi — maktab» sikli

«Xohlayman — qila olaman— kerak» mashqi. *Mashq maqsadi:* o‘qituvchida o‘ziga nisbatan ishonch va faolligini, xohish va majburiylikni, individual holatlarning o‘shishi, o‘zini anglash va pedagogik faoliyatda o‘ziga xos xislatlarni shakllantirishdir.

O‘qituvchilar guruhiga yarmi aylana tarzida o‘tirish aytiladi, ikki stul bo‘sh qoldi. Xohishga ko‘ra istagan ikki o‘qituvchi markazga o‘rtaga chiqishadi va guruhga qarab o‘tiradi.

Bir o‘qituvchi tinglovchi — boshqasi esa boshlovchi bo‘ladi. Oxirgisi uchta gap aytadi, birinchi bo‘limi bir xil, ikkinchisi har xil bo‘ladi. Masalan, u aytadi, «Men o‘zimga ishonishim kerak, men o‘zimga ishona olaman, men o‘zimga ishonishni xohlayman».

Kishilar nimani o‘ylasalar shuni aytadilar, ya’ni xayoliga kelgan birinchi fikrni aytishlari mumkin. Aytilgan uchta gapdan kimning gapi ko‘proq ta’sirchan chiqqanligi muhokama qilinadi. Birinchi bu savollar ikkinchi ishtirokchiga beriladi, so‘ng barcha guruhga murojaat qilinadi.

Gapiruvchining yuzidagi o‘zgarishlari va hokazolar hisobga olinadi. Qoidaga ko‘ra, ayollar auditoriyasida «Men majburman, men qilishim kerak» prinsipi yashaydi. «Men xohlayman» shaxsiy istagiga na vaqt, na kuch topiladi.

Psixolog har qanday inson qaysidir vaqtda «O‘zing uchun yasha, hayot sen uchun»ligini uqtirishga harakat qilishi, optimizmni saqlash va ruhan sog‘lomligini guruhga ko‘rsatishga harakat qilishi kerak.

Psixolog o‘qituvchining maktabdagi xulqi, uning boshqa o‘qituvchilar bilan munosabatiga pedagogik faoliyatning asosi emas, uning individual xususiyatlari ham muhimligini ko‘rsatishi zarur.

Bir o‘qituvchi talabchan, hissiyotga beriluvchan va muomalada qo‘pol, boshqasi muloqotga kirishuvchan bo‘ladi. Muhimi, o‘zingizni hech qachon inkor qilmang.

«**Mening kasbiy rolim» mashqi.** *Mashq maqsadi:* kasbiy faoliyatning samarali usullarini ochish.

O'qituvchilar guruhi aylana bo'lib turishadi va psixolog hammaga guruh bilan salomlashishni aytadi, tasavvur qiling, ular o'qituvchi emas, balki o'quvchilardir.

Salomlashishni quyidagicha boshlash mumkin:

«— Salom, bolalar!» Bu paytda uning tutgan o'rni, yuzining o'zgarishi ko'rsatiladi. Shundan so'ng, barcha qatnashchilar guruh bilan salomlashishadi. Umumiy muhokama qilinadi, har bir o'qituvchi bola pozitsiyasida qanday salomlashishni tushuntiradi.

Kimning salomi samimiy va ochiqligi aniqlanadi. Ushbu mashqda har bir o'qituvchi o'zining faoliyatidagi uslubidan kelib chiqib ishlaydi.

Pedagogik faoliyatning samarali hal qilinishi nafaqat maktabda endi ish boshlagan yosh o'qituvchilardagina emas, balki bir necha yillik ish stajiga ega bo'lgan o'qituvchilar uchun ham kasb uslubini rivojlantirishda muhimdir.

«**Baho» mashqi.** *Mashq maqsadi:* maktab o'quvchilarini mahsuldor baholashda kommunikativ usullar ishlab chiqish.

Guruh aylana bo'lib turadi, har bir qatnashchi salbiy va ijobiy baholarni aytadi. Birinchi salbiy baho aytiladi, masalan: «— O'tir, ikki!». Har bir o'qituvchi bu so'zni o'zining so'zi bilan aytadi. Psixolog o'qituvchi o'quvchiga yomon baho qo'ya-yotganida, unga shaxsiy munosabatini bildirishi, yaxshiroq o'qishga ishonishini tarbiyalanuvchiga bildirishi lozim.

Masalan, «— Ming afsus, Oydin bugun men senga yomon baho qo'yaman. Men ishonaman, sen harakatchan qizsan va yaqin kunlarda ikkingni to'g'rilaysan».

O'quvchining yaxshi bahosidan o'qituvchi, quvonishi va psixologik yordam berishi, qo'llab-quvvatlashi lozim. Masalan: «— Barakalla, bugun sen «5» olding. Harakat qil va bundan buyon ham yaxshi o'qi».

«**Mening hamkasbim» mashqi.** *Mashq maqsadi:* ishda o'qituvchining hamkasblari bilan samarali muloqot vositalarini rivojlantirish.

Psixolog guruhga keyingi vaziyatni o'ynashni taklif qiladi, bir o'qituvchi hamkasblaridan bir-ikki kunga o'rnini bildirmaslikni so'raydi. O'yindan so'ng ushbu vaziyat yuzasidan muhokama qilinadi, o'qituvchi iltimosini bayon etish uchun qanday kommunikativ vositalardan foydalandi, nima uchun bir o'qituvchi unga yordamlashdi, boshqasi esa yo'q.

Har bir qatnashchi o'zining tajribasidagi shunday vaziyatlarni eslashi mumkin. Bu vaziyatga psixolog aralashmaydi, faqatgina guruhga yordam berishi mumkin. Mashq so'ngida ushbu vaziyatda: «O'zingizni qanday tutishingiz kerak», hamkasblaringiz sizga chin dildan yordam berishlari uchun so'rog'i ila muhokama qilinadi.

**«Mening direktorim» mashqi.** *Mashq maqsadi:* maktab direktori bilan samarali muloqot o'rnatish. O'qituvchi maktab direktoridan yilning o'rtasida sog'liqi yomonligi uchun ta'til so'ragan shunday vaziyatni ko'rsatish kerakki, direktor inkor qila olmasin.

Maktab hayotidan direktor bilan o'qituvchilar o'rtasidagi bunday vaziyatlarning bir nechtasini ko'rsatish mumkin. Guruh bilan yuqoridagi vaziyat yuzasidan muhokama o'tkaziladi.

#### 4.5. «O'qituvchi — sinf» sikli

**«Emotsiya» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchilarda dadillik va o'quvchilar obrazli muloqot, muloqotda egiluvchanlik, hissiy iliqlik va ijobiy muhitni shakllantirish.

Guruh yarim aylana tarzida o'tiradi va psixolog har bir qatnashchiga psixologik topishmoq: yuzning holati, harakat yordamida qaysidir hissiy holatni o'ynashni topshiradi. Guruh bu holatni topishi kerak bo'ladi.

**«Mening kasbiy rolim» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchi sinf bilan muloqotni va ichki holatlarni samarali hal etish.

Guruh aylana bo'lib o'tiradi va psixolog har bir qatnashchiga kasbiy kommunikativ sifatlarni ko'rsatuvchi rol yozilgan kartochkalarni tarqatadi.

Kartochkalarda quyidagi so'zlar yozilgan bo'lishi mumkin: yordamchi, ona, tarbiyachi, sardor, ideal. O'qituvchi

bilan ota-onalar o'rtasidagi vositachi do'st, o'yin, intellektual, sudya, o'rtoq, kuzatuvchi, dars beruvchi.

Har bir qatnashchi o'zining pozitsion roli bayon etilgan kartochkasini oladi va unga tushunarli bo'lgan o'qituvchining ushbu pozitsiyasida tutgan o'rnini aytadi. Berilgan rol pozitsiyaga qarshi chiqqanda kichik o'quvchilar bilan muloqotda foydalanish mumkin bo'lgan pozitsiyani bayon etish lozim. Vaziyat muhokama qilinadi, ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar oldida tutgan o'rni haqida alohida fikr yuritiladi.

Muhokama guruh ichida aylana tarzida yoki navbat bilan fikrni bildirishi mumkin. Guruh muhokamasida psixolog o'qituvchilar diqqatini keyingi vaziyatga: har bir o'qituvchining shaxsiy ishki rolini, o'quvchilar bilan munosabatini, ular bilan muloqotda samimiy va ochiq ko'ngil bo'lishi lozimligini uqtirishga harakat qilishi lozim.

**«Laqab» mashqi.** *Mashq maqsadi:* kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning bir-biri bilan muloqotga kirishishini o'rganish. Mashq bevosita «O'ylab topchi» mashqi asosida tashkil qilinadi. Ixtiyoriy ravishda guruh boshlig'i tanlanadi. U xonadan chiqadi va u yo'qligida guruh kimnidir eslaydi.

Bir guruh o'qituvchilar shu sinfda uni qanday tasavvur qilgan bo'lsalar, shunday laqab beradilar. Boshlovchining vazifasi, guruh kimni o'ylagan bo'lsa shu qatnashchini topishdan iborat.

O'yin o'tkazilgandan keyin guruh vaziyatni muhokama qiladi. Qaysi laqab eng mos tushadi, qaysi biri yo'q. Bu holatda boshqa qatnashchilarning fikrini eshitish lozim. Boshlovchining va laqab qo'ygan o'qituvchining fikrini bilish lozim.

Maktablarda o'qituvchilarga o'quvchilarning qanday laqab qo'yilishi juda qiziq muhokama bo'ladi. Chunki o'quvchilar o'qituvchilarning xulqidagi va xarakteridagi kamchiliklarini aniq payqashadi va bunga to'g'ri yondashish lozim.

**«Timsol top» mashqi.** O'qituvchilarga boshlang'ich sinfda dars materiallarini tushuntirish qiyinchiliklar tug'diradi. Qaysidir bolalar tez va aniq tushunishadi, kimdir sekin tushunadi va tushuntirish uchun qayta-qayta takrorlash lozim.

O'qituvchi shuning uchun bir xil vazifani turli so'zlar bilan tushuntirishi lozim.

*Mashq maqsadi:* o'quvchilarga o'quv materialini tushuntirishda rolga kirib o'tishni tashkil qilish.

O'qituvchilar guruhi aylana bo'lib o'tiradi. Psixolog har bir qatnashchiga o'quv materialidan bir mavzuni o'ziga aniqlab olishni taklif qiladi. Masalan, «Tenglama, olma, aylana» kabilarga o'xshash o'xshatmalar topish.

O'quvchilar har biri o'zining mavzusiga tushuntirish beradi. Oldin aytilgan tushunchalarni qaytarish mumkin emas. Natijada har bir o'quv temasining muhokamasini «muhokamalar bankiga» yig'iladi va har bir guruh undan foydalanish huquqiga ega bo'ladi.

**«Nazorat va boshqarish» mashqi.** O'quvchilar kichik sinf bolalarida yaxshi o'quv normasini tashkil qilishning qiyinchiligi to'g'risida ko'p gapirishadi.

Bir o'quvchi besaramjon, butun dars davomida harakatchan, boshqasi esa uning aksi, uchinchi esa o'ziga ishonmaydi, hamma narsani tushunsa ham, bilsa ham javob berishga qo'rqadi.

*Mashq maqsadi:* o'qituvchilarda sinfni boshqarish va nazorat qilishning samarali yo'lini tashkil qilish.

Qatnashchilardan xohishga ko'ra o'qituvchi rolini o'ynovchi guruh yig'iladi. Qolgan guruh qatnashchilari kichik maktab yoshidagi o'quvchi rolini o'ynashadi. Har bir o'quvchi psixologdan kartochka oladi, unda uning nima qilishi kerakligi qanday javob berishi va boshqalar yozilgan bo'ladi.

Qatnashchilar kartochkani o'zi uchun o'qib jim o'tirishadi. Kartochkada shunday so'zlar yozilgan bo'lishi mumkin.

«O'quvchi a'lochi, o'quv materialini yaxshi biladi va tashkilotchi. Harakatchan va tushunuvchan, lekin diqqati bo'linuvchan». «O'quvchi to'polonchi, har darsda qo'shnisiga tinchlik bermaydi».

«Giperaktiv o'quvchi, bir daqiqa ham o'tira olmaydi. Dars materialini qiyinchilik bilan o'zlashtiradi».

«Passiv o'quvchi, har doim oynaga qarab nimanidir orzu qilib o'tiradi». «O'zining kuchiga ishonmay, xatto javob berishga tayyor holda ham hech qachon qo'lini ko'tarmaydi».

Guruh sinfni tashkil qiladi. Har bir qatnashchi o'zining parta yoki stoliga o'tiradi «Dars sahnasi» yaratiladi. Har bir o'quvchi o'zining rolini o'ynaydi. O'qituvchi rolini o'ynayotgan qatnashchi 5 — 10 daqiqa iliq psixologik muhitni tashkil qilishga harakat qilishi kerak.

O'yindan so'ng ushbu vaziyat muhokama qilinadi va sinfdagi vaziyatni normada ushlab turishi uchun kutilmagan vaziyatlarda ham yaxshi natijalarga erishishi uchun nima qilish kerak degan savollarga javob topishga harakat qiladilar.

Guruh muhokamasidan so'ng «Sinfni 5 daqiqada qanday tinchlantirish mumkin. Bunday vaziyatda qanday samarali va foydali usullarni qo'llash mumkin?» kabi savollar muhokama qilinadi. Ushbu mashqda o'qituvchi baholanadi va o'qituvchilarning psixologik maslahatlari va yo'l-yo'riqlari tushuntiriladi. Ushbu mashqda o'qituvchi o'quvchilarini bir vaqtning o'zida ham nazorat qilish ham boshqarish xususida fikr almashinadi.

**«Maqsadda qat'iy turish» mashqi.** *Mashq maqsadi:* ishda malakasini oshirish va birinchi darsdanoq kuch va quvvatini yo'naltirish. O'qituvchilar guruhi qulay tarzda aylana bo'lib o'tirishadi. Psixolog ularga o'zini bo'sh qo'yib, ko'zini yumishni aytadi. Tinchlantiruvchi, yumshoq ovoz bilan keyingi tekstni aytadi.

«Tasavvur qiling, sizning bugun sinfga kirishga xohishingiz yo'q. Bor kuchingizni «Agar» ga qarating. «Agar men yaxshi kayfiyatda bo'lganimda, quvonch bilan sinfga kirar edim. Men ko'chada ketar ekanman, o'quvchilarim haqida o'ylayman va ularni tezroq ko'rishga kelaman».

#### 4.6. «O'qituvchi — o'quvchi» sikli

**«Bola» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchilarda bolalarga nisbatan hissiy ijobiy munosabatni shakllantirish. Guruh ishtirokchilari aylana bo'lib o'tiradilar va navbat bilan «bola» so'ziga (boshlang'ich sinf o'quvchisi) ta'rif beradilar. Ta'rif: «Bola bu» so'zlari bilan boshlanishi kerak. Har bir ishtirokchi ta'rifni o'ziga yoqqan so'zlar bilan tugatishi mumkin.

Psixolog muhokamada ko‘proq ijobiy ta‘riflarga e‘tibor beradi.

**«Uchrashuv» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o‘qituvchilarda bolalik xotiralarini faollashtirish, hissiy idrokni taraqqiy ettirish, «bolalik kompleksini» shakllantirish. Guruhiy mashg‘ulotni tashkil qilish mediativ seans turi bo‘yicha amalga oshiriladi. O‘qituvchilar o‘z joylariga qulay joylashib oladilar. Ular yarim aylana shaklida joylashadilar, psixolog ular oldida tik turadi. «O‘zingizni erkin, bo‘sh his qiling, bir necha daqiqa tinch nafas oling». Psixologik so‘z bilan ta‘riflang, obraz va kartin-kalarni qayta esga tushirish so‘raladi.

Keyin psixolog quyidagi so‘zlarni aytadi: "Tasavvur qiling, o‘z uyingizdasiz. Odatda, dam oladigan, shinam, o‘zingizni yaxshi his qiladigan joyda o‘tiribsiz. Siz uchun muhim bo‘lgan uchrashuvga ichdan tayyorlanyapsiz. Siz diqqatingizni bir joyga to‘plab, o‘zingizga e‘tiborlisiz. Endi siz fikran o‘rningizdan turib eshikka tomon yo‘l olasiz. Eshikni ochib zinalardan sekin tushasiz. So‘ng ko‘chaga — yozgi quyoshli kundagi yorug‘likka otlanasiz. Ko‘chada sizning oldingizdan bola chiqib qoldi. U sizga borgan sayin yaqinlashmoqda, yaxshilab qarasangiz — bu bola boshlang‘ich sinfda o‘qigan vaqtdagi sizning o‘zingiz. Unga to‘liqroq qarashga harakat qiling. Unga siz uchun muhim bo‘lgan savollarni bering, undan javobni eshitishga harakat qiling.

Shundan so‘ng asta-sekin qayriling va o‘z xonangizga shoshmasdan qayting». Umumiy muhokama quyidagi tayanch savollar asosida o‘tkaziladi.

«Bolalikdagi va sizning ichki xayolingizdagi obrazlarni tasvirlang». Qanday savol berdingiz va qanday javob oldingiz? Tasavvur va hayajonlaringizni tasvirlang.

**«Mening bolaligim» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o‘qituvchilarda bolalik xotiralarini faollashtirish.

Guruh aylana shaklida o‘tiradi. Psixolog ishtirokchilardan bolalikdagi eng quvonchli va eng hafa bo‘lgan taassuroti haqida gapirishni so‘raydi. Guruhiy muhokama bolalikda boshdan kechirilgan voqea tufayli ruhiy jarohat olgan o‘qituvchilarga psixologik yordam ko‘rsatishga qaratilgan. Ma‘lum bo‘lishicha,

yoshlikda boshdan kechirilgan ko'gilsiz hodisa o'qituvchining o'quvchilarga munosabatiga ta'sir qiladi. Guruhda bolalikdagi taassurotlarni muhokama qilish va guruhni qo'llab-quvvatlash tufayli o'qituvchi o'zining salbiy xotiralaridan forig' bo'ladi.

**«Mening birinchi o'qituvchim» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchilarda pedagogik ma'ruza qobiliyatini rivojlantirish, shaxsiy tarbiyaviy ta'sir oqibatlarini baholash va tahlil qilish. Psixolog guruh ishtirokchilariga o'zining birinchi o'qituvchisi bolalarga qanday munosabatda bo'lgani, darsni qanday tushuntirganligi haqida gapirib berishni so'raydi.

Umumiy muhokamada psixolog guruh ishtirokchilari e'tiborini o'z faoliyatlarida birinchi o'qituvchisining uslubi va muhokamasini takrorlashga yoki bolalarga munosabatda adolatli va muloyimroq, nimadadir unga nisbatan yaxshi bo'lishga intilishga qaratish lozim.

O'qituvchilarda shaxsiy bolalik xotiralarini qayta esga tushirish negizida bolalarni his qila olishni rivojlantirish muhim.

**«Mening eng qiyin o'quvchim» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchilarda bolalarga nisbatan hissiy ijobiy munosabatini rivojlantirish, qiyin o'quvchilar bilan muloqot bo'yicha tajriba almashinuvini tashkil etish.

Guruh ishtirokchilari aylana bo'lib joylashishadi va o'zlarining qiyin o'quvchilari haqida, uning tashqi ko'rinishi, darslarda o'zini qanday tutishi, u bilan qanday qiyin vaziyatlar vujudga kelgani va hokazolar haqida fikr almashadilar.

Hikoya qiluvchi qiyin o'quvchiga ta'sir qilish yo'llari haqida gapiradi. Guruh o'z amaliy tajribasidan kelib chiqib, ta'sir ko'rsatishning mahsuldor vositalarini topishga yordamlashadi.

**«Intonatsiya» (ohang) mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchilarning kommunikativ imkoniyatlari diapozonini kengaytirish.

Guruhning har bir a'zosiga qandaydir, o'quvchiga qaratilgan maqtov so'zlarni aytish taklif qilinadi. Masalan: «Balli! Senda hamma narsa yaxshi bo'ladi» kabi so'zlarni aytish mumkin. Bunda aytilgan so'zlar ishtirokchi tomonidan 5 marta turli ohangda takrorlanadi. Guruh qaysi ifoda yaxshi aytilganini



muhokama qiladi. Psixolog har bir o'qituvchiga o'quvchilar bilan muloqot uchun ifodalibroq ohangni topishga yordamlashadi.

**«Oyna» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchilarning kommunikativ imkoniyatlarini rivojlantirish. Guruh ishtirokchilari juft-juft bo'lib oladilar. Har bir juftlikda bir boshlovchi tanlanadi, ikkinchisi uning oynasi bo'ladi. Boshlovchi qo'li bilan kutilmagan harakatlarni amalga oshirishlari kerak. Ikkinchi ishtirokchi bu harakatlarni sinxron ravishda oynaday aksini takrorlashi kerak.

O'yinchilar orasidagi so'zsiz kommunikatsiyada vujudga keladigan qiyinchiliklar muhokama qilinadi. Psixolog ishtirokchilar e'tiborini odamlar orasida qanday individual-dinamik farqlar mavjudligiga, uni to'g'ri tushuntirish va his qilish uchun suhbatdoshga moslashish qanchalik muhimligiga qaratadi. Bu o'quvchilarni tushunishda muhim hisoblanadi.

#### 4.7. «Men — o'quvchi» sikli

**«Muammo» mashqi.** *Mashq maqsadi:* guruh ishtirokchilari shaxsiy muammolarining sub'yektiv ahamiyatligini pasaytirish. Psixolog o'qituvchilarga ko'zlarini yumib, o'zlarini bo'sh qo'yishlarini taklif etadi. Keyin quyidagi so'zlarni aytadi. «So'nggi vaqtlarda siz uchun muhim va dolzarb bo'lgan shaxsiy muammoingiz haqida o'ylang. Muammoingizni ichingizda aytish mumkin bo'lgan bir necha so'zlar orqali ifodalang.

Endi sizning muammoingiz haqida yaqinda suhbatlashgan insonni ko'z oldingizga keltiring. Uning sizga nima degani va siz nima deb javob qaytarganingizni aniqroq eslashga harakat qiling. U bilan qanday vaziyatda suhbatlashganingizni eslash, siz suhbatlashgan xonani, tevarak atrofdagi narsalarni eslashga harakat qiling. Endi o'sha harakatga, suhbatdoshingizga va o'zingizga chetdan, rasmga qaraganday qarang.

Bularning barini aniq ko'z oldingizga keltirganingizdan so'ng, mahallangizda yashaydigan insonlarni, yaqin qo'shnilaringiz haqida o'ylang. Siz yashaydigan qishloq, tuman yoki

shahar haqida o‘ylang. Vatanimizdagi barcha aholi haqida o‘ylang.

Butun yer sharini, unda yashaydigan oq, qora, sariq, qizil tanli insonlar, kambag‘al va boy, baxtli va baxtsiz insonlar haqida o‘ylang. Quyosh sistemasi, uning tevaragida aylanuvchi planetalar haqida o‘ylang. Koinotning cheksizligi va abadiylik haqida o‘ylang».

Psixolog umumiy muhokama o‘tkazayotganda, shaxsiy muammosini bemaolol o‘ylashi mumkinligi, bunda uning sub’yektiv ahamiyatini kamaytirish mumkinligiga e‘tibor qaratadi.

**«Yaxshi-yomon» mashqi.** *Mashq maqsadi:* guruh ishtirokchilarini yomon holatlarda — yaxshi narsani ko‘ra bilishga, qayg‘uli fikrlar va og‘ir hissiyotlarga berilmaslikka o‘rgatish.

Guruhning har bir a‘zosi toza qog‘oz va ruchka oladi. Psixolog hozirgi vaqtdagi shaxsiy muammoli vaziyat haqida o‘ylashni taklif qiladi. Qog‘oz ikkiga bo‘linishini aytadi. Qog‘ozning chap yoniga hayotiy muammoning ishtirokchi uchun 10 ta salbiy oqibati yozib chiqiladi. Keyin qog‘ozning o‘ng tarafiga mavjud vaziyatning 10 ta ijobiy tomonlari yozib chiqiladi. Masalan: ishtirokchilarning biri chap tomonga quyidagi so‘zlarni yozadi: «Biz turmush o‘rtog‘im bilan ajrashdik». U o‘ng tomonga: «Endi men mutloqo erkinman» — deb yozadi. Psixolog mashqni muhokama qilayotganda har bir, hatto eng qiyin hayotiy vaziyatda ham uning ijobiy tomonlarini topishga harakat qilishi zarur va buning hisobiga ruhiy barqarorlikka erishishi mumkin.

**«Bundan ham battar bo‘lishi mumkin edi» mashqi.** *Mashq maqsadi:* qiyin hayotiy vaziyatlarda o‘zini «formada» ushlab yordamlashadi, ichki zo‘riqishni yo‘qotishga va tinchlanishga yordam beradi.

Guruh ishtirokchilari joylariga o‘tirib, tinch holatga keladilar. Psixolog: «Uyda va ishdagi mavjud qiyinchiliklar haqida o‘ylang. Bu qanday qiyinchiliklar. Siz ularga qanday munosabatdasiz? Siz nimani his qilayapsiz?» deya ko‘rsatma beradi.

Endi o‘z hayotingizni tasavvur qiling, agar eng qo‘rqinchli narsa sodir bo‘lsa (jimlik), bularning barchasini qanday boshdan kechirishingiz, bu hodisa hayotingizda qanday

oqibatlarga olib kelishi haqida o'ylang. Agar bu hodisa haqiqatdan ham sodir bo'lsa, nima bo'lishini to'liqroq o'ylang. Eng oxirida o'zingizning muammoingizni eslang.

Ishtirokchilarning haqiqatda mavjud qiyinchiliklarini ijobiy qabul qilishlari muhokama qilinadi.

#### 4.8. «O'qituvchi — oila» sikli

**«Tarozi» mashqi.** Maktabdagi ish bilan bog'liq og'ir yuklamani muvaffaqiyatli bajarish uchun oilada o'zini tinch va himoyalangan his qilish kerak. Agar oila a'zolari bir-birlarini qo'llab-quvvatlasalar, inqiroz va muammolarni osonlik bilan hal qiladilar, o'z kuchlarini qayta tiklaydilar.

*Mashq maqsadi:* ichki barqarorlik holatini yaratish, oila a'zolariga ijobiy munosabatni faollashtirish. Mashq ni ayollar auditoriyasida o'tkazish tavsiya qilinadi.

Guruh a'zolari tinchlanib, meditatsiyaga tayyor bo'lganliklaridan so'ng psixolog quyidagi so'zlarni aytadi: Sizga yaqin inson, turmush o'rtog'ingiz yoki do'stingiz haqida o'ylang. Uning yuzini, xarakterini, odatdagi harakatlarini va imoishoralarini ko'z oldingizga keltiring. U qanday inson?»

Uning obrazini chizishda siz ko'proq kamchiliklardan foydalandingiz? Birinchi uchrashuvingizni eslang. Qanday vaziyatda siz uni birinchi marta ko'rgan edingiz? Uning ko'rinishi gapirishi, harakatlari qanday edi? Diqqatingizni tortadigan qanday asosiy xususiyati mavjud edi? Uning nimasi sizga yoqadi? Siz uchrashib yurgan kezlarni eslang. Sizga nisbatan g'amxo'rlik va mehribonlik ko'rsatgan, eng yaxshi daqiqalarni eslang.

**«Kelishuv» mashqi.** *Mashq maqsadi:* oilaviy vaziyatda qaror qabul qilishning kommunikativ usullarini ishlab chiqarish, yaqin kishini tushunish, uning qiziqish va ehtiyojlarini hurmatlashga o'rganish.

Guruhda o'yin vaziyati tashkil qilinadi. Hozirgi kunda guruhdagi «er» va «xotin» rolini o'ynovchi, ikki aktyor tanlanadi. Er-xotinlar oilada qaror qabul qilish bo'yicha qandaydir vaziyat muhokama qilinadigan holat taklif qilinadi.

Masalan: yozgi ta'tilni qanday o'tkazish bo'yicha muhokama taklif qilinadi. «Er» bu masala bo'yicha o'z variantini, «xotin» o'z variantini taklif qiladi.

O'yin to'rt bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqichda: «er» va «xotin» tomonidan taklif etilgan variantlar muhokama qilinadi.

Ikkinchi bosqichda: psixolog «er xotinning stuliga, xotinning stuliga» o'tiradi. Ular o'z o'rinlarini o'zgartirib, muhokama o'tkaziladi. Er xotin nomidan gapiradi, xotin bo'lsa er nomidan gapiradi.

Uchinchi bosqichda: suhbatdoshlar uchun yangi bo'lgan fikrlar muhokama qilinadi. Er o'yindagi xotinning ehtiyojlarini aniqroq tushunadi, xotin bo'lsa erning istaklarini yaxshiroq tushunadi.

To'rtinchi bosqichda: ikki oila a'zosining ham qiziqishlarini hisobga oladigan kelishuv qaror ishlab chiqiladi.

## **4.9. O'rta va yuqori sinf o'qituvchilari uchun pedagogik trening**

(Amaliy mashg'ulotlar dasturi)

O'rta va yuqori sinf o'qituvchilari uchun pedagogik trening, ularda kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga, o'quvchilar bilan munosabatda shaxsiy tajribani rivojlantirishga, mahsuldor kasbiy o'zini-o'zi boshqarish usullariga qaratilgan.

### **«O'qituvchi — maktab» sikli**

**«Pozitsiya almashish» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchilarda hamkasblari bilan muloqotda kommunikativ pozitsiyani almashtirish jarayonida xushmuomalalikni shakllantirish.

Guruh aylana shaklida o'tiradi. Xohishga ko'ra bir ishtirokchi tanlanadi va u guruh ichida soat millari bo'ylab harakat qiladi, bunda u guruhning har bir a'zosi bilan qisqacha suhbatlashadi. Guruhning boshqa a'zolari suhbatini tinglaydi, qanday kommunikativ vositalar qo'llaganligini, yaxshi suhbatdoshning individual xususiyatlaridan kelib chiqib, suhbat uslubi

o'zgarganligini, boshlovchining kommunikativ pozitsiyasi o'zgarganligini baholaydi.

Guruhiy muhokama ikki bosqichda olib boriladi. Birinchi bosqichda boshlovchi suhbatlashgan guruh a'zolarining taassurotlari tinglanadi.

Ikkinchi bosqichda har gal yangi suhbatdosh bilan suhbatlashishga kirishilganda, kommunikativ pozitsiya o'zgarganda boshlovchining hissiyoti va taassurotlari tahlil qilinadi.

**«Ko'prik» mashqi.** *Mashq maqsadi:* uyushgan pedagogik jamoani yaratish o'qituvchilarda bir-birini qo'llab-quvvatlash, bir-biriga yordam berishni shakllantirish, muloqotning noverbal vositalarini treningda rivojlantirish.

Ishtirokchilar aylana bo'lib joylashadilar. O'rta joylashgan psixolog bo'r bilan diagonal chiziq chizadi. O'yin shartini u quyidagicha tushuntiradi: «Bu chiziqni tog' daryosidagi ko'prik deb tasavvur qiling. Ko'prikdan bir tomonga qarab, faqat bir kishi o'tishi mumkin. O'yindagi vazifa shundan iboratki, bir-biriga qarama-qarshi yo'nalishda harakat qilayotgan ikki kishi ko'prikdan o'tishlari zarur. Kim urinib ko'rishni xohlaydi? Guruh ichida xohishga ko'ra ikki ishtirokchi chiqadi. Bu vazifaning yechimi oldindan muhokama qilinmaydi, ishtirokchilar ko'prik bo'ylab, bir-biriga qarama-qarshi harakat qiladilar. Ular uchrashganda bir daqiqadan ortiq gaplashmasdan, eng kam so'z ishlatib, kelishishlari zarur».

Natijalarni muhokama qilishda quyidagilarga e'tibor beriladi. Kommunikativ vazifani bajarishda kim tashabbusni namoyon qiladi, o'yin ishtirokchilari bir-birlariga yordam berdilar yoki aksincha, sherigi haqida o'ylamay faqat maqsadini amalga oshirishga urindimi? Bunday shartli vaziyatda qanday vositalar ijobiy hisoblanadi.

**«Navbat» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchilarda bevosita kommunikativ xulq-atvorni rivojlantirish.

Guruhdan 8 kishi tanlab olinadi, ularning biri — boshlovchi.

Etti kishi do'kondagidek, ketma-ket navbatda turadi, sakkizinchi kishi do'konga navbatsiz keladi. U maqsadiga erishish uchun har bir ishtirokchi bilan gaplashadi. Navbatda turganlar uni xarid qilishga yo'l qo'ymasliklari zarur.

Bu vaziyat o'ynayotganda guruhning boshqa a'zolari kuzatuvchi bo'ladilar. Keyin umumiy muhokama o'tkaziladi. O'yinning har bir kommunikativ — mazmunli daqiqasi tahlil qilinadi, navbatda turganlardan kim zo'ravonni o'tkazib yubordi, kim o'tishga yo'l qo'ymadi, qanday vositalar qo'llanilgani (iltimos, qo'rqish va hokazo) muhokama qilinadi.

**«Ikkimiz» mashqi.** *Mashq maqsadi:* fikr almashinuv jarayonida egiluvchanlikning ichki vositalarini shakllantirish. Psixolog guruh a'zolarini juft-juft bo'lib bo'linishni taklif qiladi. Mashq uch o'yin vaziyatidan tashkil topgan: sheriklar orqa elkalarini tekizib o'tirishadi va 5 daqiqa davomida suhbatlashishadi, keyin yana 5 daqiqa gaplashishadi, bunda ularning biri o'tiradi, ikkinchisi uning oldida tik turadi, navbat bilan o'rinlarini almashtiradilar (o'tirgan tik turadi). So'ngra 10 daqiqa davomida bir-biriga qarama-qarshi o'tirgan holda faqat ko'zlari bilan gaplashadilar. Har-bir vazifani bajarganlaridan so'ng juftliklar taassurotlarini bo'lishib fikr almashadilar.

Eng oxirida umumiy jamoaviy muhokama tashkil qilinadi. O'yindagi qaysi vazifa engil va yoqimli bo'lgani, qachon muloqotda qiyinchilik vujudga kelgani, qaysi juftliklarda psixologik tushunish vujudga kelgani muhokama qilinadi.

#### 4.10. «O'qituvchi — sinf» sikli

**Muhit mashqi.** *Mashq maqsadi:* kommunikativ vositalarni rivojlantirish, sinfda iliqlik va ijobiy muhitni shakllantirish.

Guruh ishtirokchilari kreslolarga qulay joylashadi, qo'llarini erkin qo'yishadi va ko'zlarini berkitadilar. Psixolog mayin va pastroq ovozda shunday deydi: «Hozir siz bilan yaqin orada sodir bo'lgan yoqimli voqeani eslang». Siz nimani his qilyapsiz? O'zingizda bu voqea hodisadagi hissiyotlaringizni aniqroq namoyon qiling: quvonch, qoniqish.

Hozir o‘zingizni ichki quvonch holatingizni saqlashga harakat qiling va men hozir so‘zma-so‘z tasvirlaydigan har bir kartinkani ijobiy hissiyotlar bilan to‘ldiring.

Yodingizda saqlang, siz tanlagan holat sizni harakatlaringizga muomala usullaringizga mos tushadimi va o‘zingizni yaxshi his qilishingizga va sinfda hissiy ijodiy muhitni hosil qilishga sharoit yaratadi.

Bu mashqni bajargandan so‘ng o‘qituvchilar bilan psixotexnik tajribalari haqida guruhiy bahs munozara o‘tkaziladi, ularning har biri o‘ziga qanday qilib xulq-atvorning qulay shaklini topgan, maktabda ishlashda qanday muammolarga duch kelasiz.

**«Ritmni buzish» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o‘smir va katta sinflarda boshqaruvchining mahsuldor vositalarini shakllantirish.

Bu o‘yin vaziyatida psixolog qatnashuvchiga o‘qituvchi bo‘lishni taklif qiladi, boshqalar katta sinf o‘quvchilari rolini o‘ynaydi. O‘yin topshirig‘i shundan iboratki, 1—2 daqiqa davomida sinfdagi tartibni buzayotganlarni tinchlantirish kerak.

O‘qituvchi ma‘muriy choralarni qo‘llashi, tanbeh berishi yoki ovozini ko‘tarishi mumkin. Biroq ko‘proq natija beruvchi vositalardan foydalanish kerak.

Bu o‘yinni o‘ynab bo‘lgandan so‘ng ta’sir qilish vositalari tahlil qilinadi. Ular ichidan eng mahsuldori ajratiladi. Guruh qatnashchilari o‘rtasida kasbiy tajriba almashadi.

**«Tashabbusni ushlab tur» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o‘qituvchi kasbiy imkoniyatlarining diapazonini kengaytirish ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchini olib boruvchi va boshqaruvchi pozitsiyasini saqlab qolish.

Qatnashuvchilar guruhidan ikkita aktyor tanlanadi, qolganlar kuzatuvchilar. Aktyorlar hamsuhbat rolini o‘ynaydilar va biror muammoni yechadilar. Quyidagi muammolar bo‘lishi mumkin. Eng yaxshi rassom (Eng yaxshi qo‘shiq, eng yaxshi dam olish). So‘zlashuv bosqichlari ham beriladi: birinchi bosqichda bir suhbatdosh faol, ikkinchisi passiv rol o‘ynaydi, eshitadi.

Ikkinchi bosqichda: passiv suhbatdosh tanlab uni o'z qo'liga oladi va o'zining fikrini o'tkazishga harakat qiladi. Guruhiy tahlilda bunday holatlarda «kommunikativ muhitni tutib olish» vositalari tahlil qilinadi, yoki vaziyatni boshqarishga qaratilgan bo'ladi. Bu holatlarni pedagogik jarayonda tatqiq etish kerak.

«**Hissiyot**» **marshqi**. *Marshq maqsadi*: o'qituvchining kasbiy xususiyatlarini shakllantirish, pedagogik faoliyatda hissiyotdan foydalanish.

O'qituvchilar guruhi doira bo'lib o'tiradilar. Qatnashuvchilarning ayrimlariga psixolog kartochkalar tarqatadi, ularda insoniy hissiyotlar tasvirlangan. Quyidagi kartochkalar to'plami beriladi: «Quvonch, qahr, befarqlik, afsuslanish, hayronlik, qo'llab-quvvatlash, qiziquvchanlik». O'qituvchilar guruh oldida katta bo'lmagan bir ko'rinish tayyorlashlari kerak, unda o'smirlar va yuqori sinf o'quvchilari ta'lim-tarbiyasida bo'ladigan holatlarni ko'rsatish kerak va hissiyotlar pedagogik maqsadga muvofiq kelishi lozim, qolgan guruh a'zolari har bir hamkasblarini chiqishlarini to'ldiradi.

#### 4.11. «O'qituvchi — o'quvchi» sikli

«**Pozitsion muloqot**» o'yini. *O'yinning maqsadi*: o'qituvchining kommunikativ vositalar diapazonini kengaytirish, o'rta va yuqori sinfda o'quvchilarga pedagogik muloqotning mahsuldor individual uslubini qidirish.

O'yin uch bosqichdan iborat.

Birinchi bosqich — psixolog ikkita ishtirokchiga oddiy holatlardan biri bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi o'smir yoki yuqori sinf munosabatini taklif qiladi. Qolgan o'qituvchilar kuzatuvchilar bo'ladi. Quyidagi holatlarni olish mumkin.

«O'quvchi darsni buzdi va o'qituvchi uni maktabga suhbat uchun chaqirdi», «O'quvchi maktabda chekadi» tanlangan holatni berilgan kommunikativ pozitsiya bo'yicha o'ynashadi, ya'ni o'qituvchi — talabchan, o'quvchi o'zini oqlayotgan holat. O'yin o'ynalgandan so'ng umumiy tahlil o'tkaziladi: o'quvchi bunday suhbatdan so'ng qanday taassurotlar oldi, o'qituvchi o'zini qanday his qildi, guruhda ushbu sahna ko'rinishi qanday



fikr va hislar uyg'otdi. Ko'p hollarda «o'quvchi» rolini o'ynayotgan o'qituvchi shunga iqror bo'lganki, o'qituvchi tomonidan qo'llanilgan ta'sir vositalari, o'quvchini adolatli jazolashi o'quvchida shunday hislarni yerga urilgan passivlik yoki qahr-g'azab uyg'otadi. Guruh ishtirokchilari shunday xulosa qilishadiki, o'smirlar bilan yuqori sinf o'quvchilari munosabatida avtoritar vositalardan foydalanish kam natija beradi.

Ikkinchi bosqichda — o'qituvchi va o'quvchi munosabatini o'ynashadi, lekin aktyorlar o'zgaradi va kommunikativ pozitsiyani topshirish o'zgaradi.

O'qituvchi rolini o'ynayotgan ishtirokchilar guruhi ikkinchi tomonga o'tish taklif qilinadi. Yuqori sinf o'quvchisi o'zini yuqori va mag'rur tutadi. Guruhiy tahlil natijalari shunga bag'ishlanadiki, qanday sabablarga ko'ra o'qituvchi o'quvchiga bog'liq bo'lib qolishini tahlil qilish.

Uchinchi bosqichda — guruhiy qidiruv ishi tashkil qilinadiki, unda o'qituvchi munosabatini to'liq psixologik iqlimni hal qilishga yordam beruvchi vosita va qo'llanmalar ishlab topiladi. Guruh o'qituvchini qanday qilib o'quvchi bilan gaplashishini, qanday jumlani qachon aytishni, bunday suhbat muhitini, suhbatdoshning kayfiyatini va boshqalarni tahlil qiladi.

**«Mening eng murakkab o'smir bolam» mashqi.** *Mashq maqsadi:* o'qituvchilar o'rtasida tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan munosabat bo'yicha tajriba almashish, o'quvchi bilan birgalikda faoliyat yurgizish maqsadida turli vositalarni izlash. O'qituvchilar guruhi doira bo'lib o'tiradilar. Xohish bo'yicha 10 — 15 daqiqada har biri shunday holatni aytib beradilar-ki, unda pedagogik jarayonda o'smir bilan muloqotda eng qiyin holatda bo'ladi. U guruhning e'tiborini nima ish qilganiga, u nimani his qilib boshidan kechirganiga, ta'sir ko'rsatish vositalarining natijalariga qaraladi.

Bitta mashg'ulot davomida o'qituvchining kasbida bo'ladigan real holatning 45 tasini tahlil qilish mumkin.

Guruhiy tahlilda quyidagi maqsadga erishiladi. O'qituvchi ishida eng qiyin holatlarni aytib bersa, guruhdan yordam oladi. Guruhda yana o'qituvchilar tartibi ham almashinadi. Shunda psixologik muammoni hal qilishda o'qituvchiga maslahat berish kerak.

«**Mening yoshligim**» **mashqi**. *Mashq maqsadi:* o'qituvchilar yoshliklarini yodga olishni faollashtirish.

O'qituvchilar guruhi doira bo'lib o'tirishadi va navbat bo'yicha yoki xohishga qarab o'zining yoshligida bo'lgan «Eng quvonchli yoshlikdagi voqea», «Yoshlikdagi eng qayg'uli voqea» to'g'risida gapirib berishadi. Har bir o'qituvchi o'zlarini xuddi yoshliklaridek his qilishsa, guruhiy tahlil natijalari yaxshi chiqadi.

#### 4.12. «Men — o'qituvchi» sikli

**Sekinlashish mashqi.** Ko'pchilik oilali o'qituvchi ayollar doim uyda va ishda barcha ishlarini ulgurishga harakat qiladilar. Ba'zi o'qituvchilar o'zlariga ro'yxat tuzib oladilar va ulgurganlarini o'chirib boradilar. O'qituvchilar ko'pincha ko'p ishlarga ulgura olmasliklaridan juda qo'rqadilar. Hayotlarining ritmini tezlashtiradilar, har bir daqiqani qadrlashga harakat qilib, bekorchi narsalarga e'tibor bermaydilar. Bunday «bekorchiliklarga» dam olish voqealari, hayotning kichik quvonchlari bilan bahra olish kiradi.

Buning natijasida ayollar asabiylashadi, charchaydi, boshlari og'rib, uyqusizlikdan qiynaladilar. Bunday holatda o'qituvchi o'smir o'quvchi bilan qilgan ishi haqida yoki yuqori sinf o'quvchisi bilan birga individual suhbatlashishga vaqt ajrata olmaydi.

*Mashq maqsadi:* ichki ritmni sekinlashtirish, energetik balans hosil qilish, o'zini barqaror, vazmin tutish.

Psixolog guruh a'zolariga qo'l soatlarini echib chetga qo'yishni taklif qiladi. 15—20 daqiqa ichida oq qog'ozga erkin assotsiatsiyalar orqali so'z jumllarini yozadilar. Keyin psixolog guruhni juft-juft qilib o'tqazadi va ular bir-birlariga gaplarini aytishadi. Juftlik suhbatlari 20—30 daqiqa bo'ladi. Bunda psixolog soatga qaramasdan sekin-asta so'zlarni aytadi. Guruhiy tahlil uchun guruh doira shaklida o'tiradi. Psixolog: «Kim o'zining suhbatdoshidan bahra oldi?», «Kim dam olganini sezdi?». Nima deb o'ylaysiz, bizning mashg'ulotimiz qancha vaqt bo'ldi.

«5 daqiqa» **mashqi**. *Mashq maqsadi*: shoshqaloqlik hissini engish, hissiy zo‘riqishni yo‘qotish, o‘qituvchilarni ichki barqarorlikka erishishga intilishini mustahkamlash.

Guruhiy tahlilni psixolog shunday gaplardan boshlaydi: «Tasavvur qiling, siz bekatga ketyapsiz, shunda sizga kerakli avtobus o‘tib ketyapti. Siz nima qilasiz? O‘zingizcha xotirjam bo‘lib shoshmasdan keyingi avtobusga chiqaman, yoki birdan avtobus ketidan yuguraman. Chunki 5 daqiqani tejab qolaman deb aytasizmi? Shu haqda o‘ylang-ki, siz avtobusga qiynalib etib oldingiz va yo‘lovchilar oldida og‘ir nafas olib turibsiz. 5 daqiqani siz tejadingiz. Endi shuncha kuchingizni ketkazib, 5 daqiqani asrab qoldingiz. Endi nima qilasiz?»

Guruhiy tahlil natijalari.

### «O‘qituvchi — oila» sikli

«So‘zsiz sevgi» **mashqi**. Baholash va boshqarish pedagog faoliyatida juda katta ahamiyatga ega. Ko‘pincha o‘qituvchilar o‘zlarining oilalarida ham pedagogliklarini davom ettiradilar, ya‘ni farzandiga «Baho qo‘ya boshlaydi», bu «yomon», bu «yaxshi». Bola o‘zini faqat yaxshi ish qilganda yaxshi ko‘radi deb, yomon ish qilganida yomon ko‘rishadi, deb o‘ylaydi. Bundan kelib chiqib, bola o‘zida ishonchsizlik sezadi. Yuqori xavotirlanish barqarorlik hissini yo‘qotadi.

*Mashq maqsadi*: o‘qituvchilar bilan o‘z farzandlarini so‘zsiz sevrishning ahamiyati haqida bahslashuv.

Psixolog o‘qituvchilar bilan tarbiya jarayonida bo‘ladigan qiyinchiliklar haqida gaplashadi. Qanday qiyinchiliklarni ular yecha olishgan? Qaysilarini yo‘q? O‘qituvchi o‘zining o‘quvchisida qanday o‘zgarishlar sezdi?

Guruhiy tahlil natijalari.

## V BOB. MAKTAB PSIXOLOGI FOYDALANADIGAN ASOSIY METODIKALAR

### 5.1. Psixologning yillik ish rejasi

Psixologik tashxis — bolalarni maktabgacha ta‘lim va maktab yoshi davomida psixologik jihatdan uzluksiz har

tomonlama o'rganish, ularning individual — psixologik xususiyatlarini aniqlash, o'qish xulq-atvorlaridagi nuqsonlarning sabablarini aniqlab berishga qaratilgan tadbirlarga doir ish rejasi (5- jadvalga qarang).

5- jadval. Psixologning taxminiy yillik ish rejasi

№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas'ul shaxs
1.	6 yoshli bolalarni maktabga tayyorgarlini aniqlash (PPD ko'rigi)	May, iyun, iyul, avgust (85 kun) davomida	Psixolog, PPD ko'rik komissiyasi a'zolari
2.	1- sinf o'quvchilari uchun tashxis daftarlarini to'ldirish (belgilangan metodika asosida) 1- sinf o'quvchilari o'rtasida sinov o'tkazish	Sentabr, oktabr	Psixolog
3.	1- sinfga qabul qilingan 6 yoshli bolalarning maktabga psixologik moslashuvi va rivojlanish dinamikasini o'rganish	Noyabr, dekabr	Psixolog
4.	9- sinf o'quvchilari o'rtasida Respublika tashxis markazi tomonidan tavsiya etilgan tashxis metodikalarini o'tkazish	Oktabr, may	Psixolog
5.	O'qituvchining shaxsini va pedagogik qobiliyatlarini tekshirish	Sentabr, oktabr	Psixolog
6.	9- sinf o'quvchilari o'rtasida chuqurlashtirilgan psixologik tashxis o'tkazish	Yil davomida	Psixolog
7.	Tarbiyasi qiyin bolalar va o'smirlarning psixologik xususiyatlarini o'rganish	Sentabr, oktabr	Psixolog
8.	Iqtidorli o'quvchilarni tanlash va ular bilan alohida ish olib borish	Dekabr, yanvar	Psixolog

**Psixoprofilaktik ishlar.** Psixologik profilaktika — maktabda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli psixologik-pedagogik muammolarni oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlarga doir ish rejasi (6- jadvalga qarang).

**6- jadval. Psixoprofilaktik ishlar rejasi**

№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas'ul shaxs
1.	Sinf jamoasi yoki o'quvchilar bilan yakka(individual) holda suhbat uyushtirish	Talabga ko'ra va shaxsiy tashabbus bilan yil davomida	Psixolog hamda sinf rahbarlari
2.	Tarbiyasi og'ir o'quvchilar xulqini korreksiya qilish uchun sinf rahbarlariga yo'l-yo'riqlar ko'rsatish	Dekabr, yanvar	Psixolog hamda sinf rahbarlari
3.	Maktabda psixologik muhitni o'rganish va uni barqarorlashtirish	Doimiy	Psixolog
4.	O'quvchilar o'rtasida aysh-ishratga, giyohvandlikka, yengil turmush kechirishga, qing'ir yo'l bilan boyishga ruju qiluvchi shaxslar bilan yakka tartibda ishlash	Doimiy	Psixolog

**Psixologik ma'rifat va tashviqot ishlar.** Psixologik ma'rifat va tashviqot — maktabning pedagogik jamoasini, o'quvchilarni va ota-onalarni psixologik bilimlarini egallashga jalb etish, ularning psixologik madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan tadbirlarga doir ish rejasi (7- jadvalga qarang).

**7- jadval. Psixologik tashviqot ishlari rejasi**

№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Muddati	Mas'ul shaxs
1.	Ota-onalar bilan turli mavzularda majlislar o'tkazish	Yil davomida talabga ko'ra	Psixolog, ota-onalar
2.	Ota-onalar uchun so'rovnomalar, testlar ishlab chiqish	Yil davomida	Psixolog
3.	Maktab pedagogik kengashlarida ma'ruza bilan ishtirok etish	Yil davomida	Psixolog
4.	Psixologik xizmat hujjatlarini rasmiylashtirish	Yanvar	Psixolog
5.	O'zlashtirmovchi o'quvchilar bilan ishlashga doir aniq psixologik-pedagogik tavsiyalar, ko'rsatmalar	Aprel, may	Psixolog, sinf rahbari

## Psixokorreksion ishlar

Psixologik korreksiya va rivojlantirish — shaxs shakllanishi va psixik rivojlanishida sodir bo'ladigan kechikish, salbiy buzilish va nuqsonlarni bartaraf etish, shaxs va jamoaga faol ijobiy ruhiy ta'sir o'tkazish, shaxslararo munosabatlardagi muvofiqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarga doir ish rejasi (8- jadvalga qarang).

*8- jadval. Psixokorreksion ishlari rejasi*

№	Bajariladigan ishlar	Muddati	Mas'ul shaxs
1.	Muayan diagnostik ish asosida tavsiyalar ishlab chiqish	Sentabr, may	Psixolog va 1- sinf rahbarlari
	a) xotirani rivojlantiruvchi darslarni tashkil qilish;	Talabga ko'ra	
	b) maktabga qabul qilingan 6 yoshli bolalar bilan "Psixologik sog'lomlashtirish dasturi" asosida korreksion darslar tashkil qilish	I va II chorak davomida	
2.	Zamonaviy psixodiagnostika va psixokorreksion metodikalar bilan ishlash	Yil davomida	Psixolog
3.	O'zlashtimovchi o'quvchilar ruhiy dunyosidagi nuqsonlarni aniqlash va ularga yordam berish, yo'l-yo'riqlarini ishlab chiqish, amaliyotga tatbiq etish	May, iyul, avgust	Psixolog
4.	Xarakterida turlicha aksentuatsiyasi mavjud o'quvchilar bilan psixokorreksion ishlarni o'tkazish	Yil davomida Talabga ko'ra	Psixolog

**Psixokonsultativ ishlar.** *Konsultatsiya (maslahat)* — ziddiyat va nizolarni yumshatish, har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini imkon qadar kuchliroq namoyon eta olishiga zarur shart-sharoitlar yaratish, o'qituvchilar va ota-onalarning psixologik muammolarini hal etishga yordam berish, ularni o'z psixologik salomatliklarini muhofaza qilishga o'rgatishga doir maslahatlar berish ishlariga doir ishlari rejasi (9- jadvalga qarang).

9- jadval. Maslahat berish ishlari rejasi

№	Bajariladigan ishlar	Muddati	Mas'ul shaxs
1.	O'quvchilarni o'qishga qiziqtirish uchun nimalar qilish kerak?	Yil davomida	Psixolog
2.	Maktab o'qituvchilarini qiziqtiradigan masalalar bo'yicha maslahat berish	Yil davomida Talabga ko'ra	Psixolog
3.	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining maktabga moslashuviga yordam berish	Noyabr, dekabr	Psixolog, sinf rahbarlari
4.	Shaxsga oid, ixtisoslikka doir muammolar yuzasidan o'qituvchilarga keng ko'lamda maslahatlar berish	Doimiy	Psixolog

**Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari.** *Kasb-hunarga yo'naltirish* — o'quvchilarni layoqati, qiziqishi va qobiliyatlariga mos kasb-hunarlarini ongli tanlashni tayyorlashga doir tadbirlar ish rejasi (10- jadvalga qarang).

10- jadval. Maslahat berish ishlari rejasi

№	Bajariladigan ishlar	Muddati	Mas'ul shaxs
1.	O'quvchilar bilan kasb tanlashga doir suhbatlar o'tkazish, ularni faoliyat ko'rsatayotgan o'rta maxsus o'quv yurtlari yo'nalishi bilan sinf rahbari va proforiyentator orqali tanishtirish	Yil davomida	Psixolog, sinf rahbarlari, proforiyentator
2.	O'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish, o'zlashtirmovchilikning sababini aniqlash	Yil davomida Talabga ko'ra	Psixolog, proforiyentator

## 5.2. Shaxs tiplari va ularga mos kasblarni aniqlash. Xolland metodikasi

Ushbu metodika asosida amerikalik psixolog olim Ya.Xolland taklifi bo'yicha odamlar va ko'pchilik kasblarni shartli ravishda 6 guruhga bo'lish mumkin (realistik, intellektual, ijtimoiy, konvensial (shartli), tadbirkor, aktyor). Bu

metodika asosida yuqorida qayd qilingan guruhlarni qay biri qay darajada shaxsda namoyon bo'lishini aniqlash mumkin. Kasblarning xususiyati shundaki, shaxs psixologiyasida qaysi bir yo'nalish ko'proq shakllangan bo'lsa, shu kasb o'ziga ko'proq jalb qiladi.

Metodikani o'tkazish tartibi:

Metodika savolnomasini o'quvchilarga berishdan oldin, ularga quyidagi ko'rsatma beriladi: "Quyidagi juft-juft taklif etilgan — kasblardan o'zingiz uchun har bir juftdan bittasini tanlang va «a» yoki «b» grafalar yonida «+» yoki «-» belgisini qo'ying.

Ikkala kasbdan bittasini tanlashi shart.

1.	a) quruvchi	b) loyiha tuzuvchi
2.	a) elektron texnik	b) sanitariya shifokori
3.	a) tokar (chilangar)	b) kotiba
4.	a) suratkash	b) do'kon mudiri
5.	a) chizmakash	b) dizayner
6.	a) faylasuf	b) psixiatr
7.	a) o'qituvchi	b) advokat
8.	a) ilmiy jurnal muharriri	b) badiiy jurnal tarjimoni
9.	a) pediatr	b) statist
10.	a) shifokor	b) feletonchi
11.	a) notarius	b) ta'minotchi
12.	a) parmalovchi	b) hajviy surat soluvchi rassom
13.	a) siyosiy arbob	b) yozuvchi
14.	a) bog'bon	b) meteorolog
15.	a) avtobus haydovchi	b) feldsher
16.	a) elektron uskunalar muhandisi	b) kotiba
17.	a) bo'yoqchi	b) yog'och yoki metall bo'yicha rassom



18.	a) biolog	b) ko'z shifokori
19.	a) teleoperator	b) rejissyor
20.	a) gidrolog	b) taftishchi
21.	a) zoolog	b) bosh zootexnik
22.	a) matematik	b) me'mor
23.	a) bolalar shifokori	b) hisobchi
24.	a) o'qituvchi	b) kasaba uyushmasi lideri
25.	a) tarbiyachi	b) kulol
26.	a) iqtisodchi	b) bo'lim mudiri
27.	a) korrektor	b) tanqidchi
28.	a) xo'jalik ishlari mudiri	b) dirijyor
29.	a) radiooperator	b) fizik yadrochi
30.	a) sozlovchi	b) montajchi
31.	a) agronom	b) menejer
32.	a) bichivchi	b) dekarator
33.	a) arxeolog	b) ekspert
34.	a) muzey	b) maslahatchi
35.	a) olim	b) aktyor
36.	a) logoped	b) stenografist
37.	a) shifikor	b) diplomat
38.	a) bosh hisobchi	b) direktor
39.	a) shoir	b) ruhshunos

Metodika natijalarini tahlil qilish uchun har bir o'quvchining javob varaqasi alohida ishlab chiqiladi. Buning uchun 6 yo'nalish bo'yicha berilgan maxsus kalitdan foydalaniladi. Har bir savolning javobi kalitda berilgan natija bilan to'g'ri kelsa 1 ball qo'shiladi va oxirida har bir yo'nalish bo'yicha umumiy ballar yig'indisi hisoblab chiqiladi. Eng ko'p ball to'plagan yo'nalish yetakchi hisoblanadi, bunda shu yo'nalish ballar yig'indisi 5 balldan kam bo'lmashligi kerak.

## Yoʻnalish:

Realistik	1a, 2a, 3a, 5a, 14a, 15a, 16a, 17a, 19a, 19a, 30a, 32a
Intellektual	1b, 6a, 7a, 8a, 14b, 18a, 20a, 21a, 22a, 29b, 33a, 34a, 35a
Ijtimoiy	2b, 6b, 9a, 10a, 15b, 18b, 23a, 24a, 25a, 34b, 36a, 37a, 39b
Konvensional (shartli)	3b, 9b, 11a, 12a, 16b, 20b, 23b, 26a, 27a, 30b, 33b, 36b, 38a
Tadbirkorlik	4b, 7b, 11b, 13a, 19b, 21b, 24b, 26b, 28a, 31b, 35b, 37b, 38b
Aktyorlik	4a, 5b, 8b, 10b, 12b, 13b, 17b, 22b, 25b, 27b, 28b, 32b, 39a

## Yoʻnalishlarning tahlili

1. **Realistik yoʻnalish.** Bunday turdagi shaxs koʻproq konkret, yaʼni aniq obyektlar (narsalar, asbob-uskunalar, hayvonlar, mashinalar) bilan shugʻullanishni afzal koʻradilar, konkret obyekt bilan shugʻullanish, chaqqonlik va aniqlikni yoqtiradi. Odamlar bilan muloqotda boʻlishni yoqtirmaganligi sababli yuqori lavozimlarda ishlashni xush koʻrmaydi. Injener, mexanik, elektrik, agronom, bogʻbon, haydovchi va shunga oʻxshash kasblarni tanlaydi.

2. **Intellektual yoʻnalish.** Bunday odamlar oʻzining sezgir va xayolga boyligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Ular amaliy mashgʻulotlarni bajarishdan koʻra, muammolarni nazariy hal qilish ustida oʻylashni yoqtiradilar. Mavhum kasblarni tanlashadi: biolog, botanik, astronom, fizik.

3. **Ijtimoiy yoʻnalish.** Bunday odamlar muammoni yechishda koʻproq oʻzlarining intellektual qobiliyatlaridan koʻra shaxsiy hissiyot va tuygʻularga asoslanadilar. Mexanizmlar bilan shugʻullanishni yoqtirmaydilar. Koʻproq taʼlim va sogʻliqni saqlash sohasiga qiziqadilar: shifokor, psixolog, oʻqituvchi kasblarini tanlashlari mumkin, chunki ularda muloqotga kirishish, boshqaruv va sanʼatga ehtiyoj katta.

4. **Konvensial (shartli) yo‘nalish.** Bunday odamlarda moslashish salohiyati juda past. Ularga past faollikni talab qiluvchi mashg‘ulotlar va mutaxassisliklar hamda aniq tizimli faoliyatlar ko‘proq yoqadi. Chunki bunday faoliyatlarda aniqlik va noaniqlik belgilab berilgan. Boshqaruv faoliyati qo‘l kelmaydi, chunki bunday odamlar masalalarni hal qilishda ko‘proq boshqalarning fikriga suyanadilar. Tavsiya etilgan kasblar iqtisod, hisobchi, kotiba va hokazo.

5. **Tadbirkorlik yo‘nalishi.** Bunday yo‘nalishdagi kishilar yuqori lavozimlarda ishlashni yoqtiradilar. Ularga qo‘l mehnati, diqqatni bir nuqtaga jalb etuvchi faoliyatlar yoqmaydi. Ular quyidagi kasblarni tanlaydilar: direktor, teleoperator, aktyor, diplomat, jurnalist.

6. **Aktyorlik (kreativlik) yo‘nalish.** Bunday insonlarda xayol va intuitsiya yaxshi rivojlangan. Ular hayotni murakkablashgan holda qabul qiladilar. Sport, avtota‘mirlash kabi ishlar ularni qiziqitirmaydi, aksincha, ijodiy xarakterli mashg‘ulotlarni xush ko‘radilar. Ya‘ni, musiqa, rassomchilik, adabiyot va shu kabi sohalarda yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

### 5.3. Qiziqishlar xaritasi

Qiziqishlaringiz sohasi va yo‘nalishini aniqlashga qaratilgan quyidagi savollarning har birini diqqat bilan o‘qing va mumkin qadar aniq javob berishga harakat qiling.

Agar savolda so‘ralgan mazmun, sizga har tomonlama ma‘qul tushsa unda javob varaqasining tegishli katakchasiga ikkita plyus (++) belgisini qo‘yasiz.

Agar savol mazmuni shunchaki yoqsa, unda bitta plyus (+), agar yoqish-yoqmasligini bilmasangiz yoki ikkilansangiz unda, nol (0) qo‘yasiz.

Agar savol mazmuni sizga ma‘qul bo‘lmasa, minus (–), agar juda yoqmasa, ya‘ni bu faoliyatni yomon ko‘rsangiz, unda ikkita minus (– –) belgisini qo‘yasiz.

Vaqt chegaralanmagan, lekin diqqat bilan, savollarni tushirib qoldirmay, tez-tez o‘ylab javob bering.

## DIQQAT BOSHLADIK!

Quyidagi faoliyatlar bilan shug'ullanishni yoqtirasizmi?

Havas qilasizmi? Istaysizmi?

1. O'simliklar va hayvonlarning hayoti bilan shug'ullanish, tanishish.
2. Geografiya darsligi, geografiyaga oid kitoblarni o'qish.
3. Geologik ekspeditsiyalar haqidagi badiiy yoki ilmiy-ommabop adabiyotlar o'qish.
4. Odam anatomiyasi va fiziologiyasi darslari va shu sohaga oid darsliklar, kitoblarni o'qish.
5. Uy-ro'zg'or darslari yoki ro'zg'or ishlariga taalluqli vazifalar.
6. Fizikadagi yangi kashfiyotlar va buyuk fiziklarning hayoti, ijodi haqidagi ilmiy-ommabop adabiyotlar o'qish.
7. Kimyo fanidagi yangi ixtirolar yoki buyuk ximiklarning hayoti va ijodi haqida o'qish.
8. Texnika sohasiga tegishli jurnallar o'qish.
9. Ilmiy-ommabop jurnallardagi elektronika va radiotexnika bo'yicha yutuqlar va yangiliklar haqida maqolalar o'qish.
10. Har xil metallar va ularning xususiyatlari bilan tanishish.
11. Yog'ochlarning har xil turlari va ularni amalda qo'llash haqida bilish.
12. Qurilish sohasidagi yutuqlarni bilish.
13. Har xil turdagi transport (avtomobil, temiryo'l) haydovchilari haqida kitoblar o'qish, filmlar ko'rish.
14. Uchuvchi va kosmonavtlar haqida kitoblar o'qish, filmlar ko'rish.
15. Harbiy texnika bilan tanishish.
16. Tarixiy voqealar va tarixiy arboblarning haqidagi kitoblar o'qish.
17. O'zbek va jahon adabiyoti klassiklarini o'qish.
18. Gazeta va jurnallarning maqola va ocherklarini muhokama qilish.

19. Sinf va maktabda bo'layotgan ishlar hamda turli voqeahodisalarni muhokama qilish.
20. Maktab hayoti (tarbiyachi, o'qituvchi, sardorlarning faoliyati) haqida kitoblar o'qish.
21. Militsiyaning faoliyati haqida filmlar ko'rish, kitob o'qish.
22. O'qiyotgan, ishlayotgan yoki yashayotgan joyingizni chiroyli qilib bezash, narsalarni saranjomlash, tartibga keltirish.
23. «Qiziqarli matematika», «Boshqotirmalar» haqidagi maqola va kitoblar o'qish.
24. Iqtisodiy geografiyani o'rganish.
25. Chet tilini o'rganish.
26. Buyuk rassomlar hayoti, tasviriy san'atning rivojlanish tarixi bilan tanishish.
27. Mashhur sahna va kino artistlarining hayoti bilan tanishish, ular bilan uchrashish, fotosuratlarini yig'ish.
28. Mashhur musiqachilarning hayoti va ijodi bilan, musiqa san'ati nazariyasiga doir masalalar bilan tanishish va o'rganish.
29. Sport va mashhur sportchilar haqida jurnal, gazeta hamda kitoblar o'qish.
30. Biologiya, botanika va zoologiya fanlarini o'rganish.
31. Geografik ixtirolar va ma'lumotlar orqali har xil mam-lakatlar bilan tanishish.
32. Tarixiy obidalar bilan tanishish.
33. Odamlar qanday qilib kasalliklar bilan kurashishlarini o'rganganlari haqida, tibbiyot sohasidagi yutuqlar haqida o'qish.
34. Yengil sanoat korxonalariga ekskursiyaga borish.
35. "Fiziklar olami", "Qiziqarli fizika" sohasida kitoblar o'qish.

36. Tabiatdagi kimyoviy hodisalarni kuzatish, kimyoga oid adabiyotlar mutolaa qilish.
37. Zamonaviy texnikaning eng soʻnggi yutuqlari bilan tanishish (radio va telekoʻrsatuvlarni eshitib, koʻrib, gazetalardagi maqolalarni oʻqib).
38. Radiotexnika toʻgaraklariga qatnashish yoki elektriklarning ishi bilan tanishish.
39. Metallarga ishlov berishda ishlatiladigan har xil oʻlchov asboblari bilan tanishish. Ular bilan ishlash.
40. Yogʻochdan uy jihozlari tayyorlash jarayonini kuzatish, mebellarning yangi namunalarni oʻrganish.
41. Quruvchilar bilan uchrashish, ularning faoliyatini kuzatish.
42. Yoʻl harakati vositalari haqida ommabop adabiyotlarni oʻqish.
43. Dengizchilar haqida kitoblar oʻqish, filmlar koʻrish.
44. Harbiy mazmundagi filmlarni koʻrish, kitob oʻqish, katta toʻqnashuvlar va janglar tarixi bilan tanishish.
45. Oʻzimizda va chet el miqyosida boʻlayotgan, siyosiy voqealarni muhokama etish.
46. Adabiy-tanqidiy maqolalarni oʻqish.
47. Radio va televizordan har hil yangiliklar va axborot koʻrsatuvlarini eshitish va koʻrish.
48. Tuman, shahar, respublikada boʻlayotgan kundalik voqealardan xabardor boʻlish.
49. Oʻrtoqlaringizga darslarini bajarishda yordam berish va tushuntirish ishlarini olib borish (agar oʻzlari qila olmasalar).
50. Doʻst, tanish yoki adabiy qahramonlarning qilmishlarini toʻgʻri va haqqoniy tahlil etish va baholash.
51. Oilaning oziq-ovqat bilan taʼminlanishiga ahamiyat berish, sayohatlar chogʻida hamma uchun ovqatlanishni tashkil etish.
52. Matematika sohasidagi kashfiyotlar, buyuk matematiklar hayoti va faoliyati haqida ilmiy ommabop adabiyotlarni oʻqish.

53. Xalq xo'jaligi rejalarining bajarilishi bilan qiziqish.
54. Chet tilida badiiy adabiyotlarni o'qish.
55. Redkollegiya a'zosi bo'lish, gazetalarni badiiy bezash bilan shug'ullanish.
56. Drama teatri va yosh tomoshabinlar teatriga borish.
57. Opera yoki simfonik musiqalarni eshitish.
58. Sport musobaqalarini tomosha qilish, sportga doir radio va teleko'rsatuvlarni eshitish, ko'rish.
59. Biologiya to'garagiga qatnashish.
60. Geografiya to'garagida shug'ullanish.
61. Yerdagi minerallarning geografik tarqalishi haqida tasvirlar, ma'lumotlar yig'ish va xaritalar tuzish.
62. Odam organizmi xislatlarini, kasallikning paydo bo'lish sabablari va davolash usullarini o'rgatish.
63. Pazandachilik to'garagiga qatnashish, uyda ovqat tayyorlash.
64. Fizikadan tajribalar o'tkazish.
65. Eritmalarni tayyorlash reaktivlarning og'irligini o'lchash.
66. Har xil mexanizm (soat, dazmol)larni yig'ish, tuzatish.
67. Aniq o'lchov asboblari (ossillograf, ampermetr, voltmetr)ni ishlatish, ular yordamida har xil hisoblarni olib borish.
68. Metallardan har xil detallar va buyumlar yasash.
69. Yog'ochdan har xil qismlar va ashyolar yasash yoki yog'ochni badiiy bezash (o'ymakorlik, kuydirish, naqsh berish).
70. Har xil imoratlarning eskizlarini, qurilishlarning chizmalarini bajarish.
71. Yosh temiryo'lchilar yoki avtohavaskorlar to'garagiga qatnashish.
72. Parashyutchilar seksiyasida, aviamodelchilar to'garagida ishtirok etish yoki aviaklub ishida qatnashish.

73. O'q-yoy otish to'garagida shug'ullanish.
74. Turli xalqlarning kelib chiqishi, ba'zi mamlakatlarning paydo bo'lishi tarixini o'rganish.
75. Adabiyot fanidan sinf va uyda insho yozish.
76. O'zga odamlarning harakatlari, xulqi va hayotini kuzatish.
77. Jamoat topshiriqlarini, biron bir ishni bajarish, tashkil etish uchun o'rtoqlarini uyushtirish, birlashtirish.
78. Kichik yoshdagi bolalarga qarash, ularga kitob o'qib berish, shug'ullanish, har xil hikoyalar gapirib berish, biron-bir ishda ularga ko'maklashish.
79. Tengdoshlar va kichik bolalar orasida tartib va mun-tazam intizom o'rnatish.
80. Sotuvchi, oshpaz, ofitsiantlarning faoliyatini kuzatish
81. Matematika to'garagida shug'ullanish.
82. Ishlab chiqarishning rivojlanish masalalarini o'rganish, ishlab chiqarish korxonalarida hisob-kitob va rejalash borasidagi yutuqlar haqida bilish.
83. Lug'atlar bilan ishlash, xorijiy tilda o'ziga xos murak-kab nutq xususiyatlarini tahlil qilish.
84. Muzey va badiiy ko'rgazmalarga borish.
85. Tomoshabinlar oldida, sahnada turli tomoshalar ko'r-satish.
86. Biron bir musiqiy asbobni chalish.
87. Sport o'yinlarini o'ynash.
88. O'simlik va hayvonlarning rivojlanishini kuzatib, yozib borish.
89. Mustaqil ravishda geografik xaritalarni tuzish, har xil geografik ma'lumotlarni to'plash.
90. Geologiya muzeylari uchun ko'rgazma materiallar, mi-nerallar to'plami yig'ish.
91. Vrach, hamshira, dorishunoslarning faoliyati bilan tanishish.



92. Bichish va tikish to‘garagiga qatnashish.
93. Fizika to‘garagida shug‘ullanish yoki fizika bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlarga qatnashish.
94. Kimyo to‘garagida shug‘ullanish yoki kimyo bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlarga borish.
95. Texnika to‘garaklaridan birida shug‘ullanish (samo lyotlar, kemalar va boshqa inshootlarning modelini yasash).
96. Elektr asboblari, apparatlari va turli elektr mashinalarining tuzilishi bilan tanishish, ishini kuzatish, har xil radioukuna va o‘lchov asboblari bilan shug‘ullanish.
97. Mehnat darslarida metallga ishlov berish ustaxonasida shug‘ullanish.
98. «Mohir qo‘llar» yoki yog‘ochga ishlov berish to‘garagida shug‘ullanish.
99. Qurilishda bo‘lish, qurilish jarayoni va bezash ishlarini kuzatish.
100. Transport va yo‘lovchilarning yo‘l harakati qoidalarini bajarishlarini kuzatish.
101. Eshkak eshuvchi, elkanli qayiqchi, akvalangchi (g‘avvoslar) to‘garaklarida va suvda cho‘kayotganlarni qutqarish brigadasida qatnashish.
102. Harbiy (masalan, «shunqorlar») o‘yinlarida ishtirok etish.
103. Tarix muzeylariga borish, qadimiy obidalar va yodgorliklar bilan tanishish.
104. Adabiyot to‘garaklarida shug‘ullanish, adabiyotdan qo‘shimcha mashg‘ulotlarda ishtirok etish.
105. Shaxsiy kundalik tutish.
106. Xalqaro ahvol haqida sinfda axborot berish.
107. Tarbiyachilik (masalan, sardorlik) ishlarini bajarish.
108. Odamlarning xatti-harakatlari va odatda yashiradigan ba‘zi bir xulqlarining sabablarini ochish, aniqlash.
109. Do‘konda xaridorlarga kerakli buyumlarni tanlashda yordam berish.

110. Matematikadan qiyin masalalarni yechish.
111. Pullik kirim-chiqimlarning aniq hisob-kitobini olib borish.
112. Chet tili to'garaklarida shug'ullanish yoki chet tilidan qo'shimcha darslarga qatnashish.
113. Badiiy to'garaklarda shug'ullanish.
114. Badiiy havaskorlik ko'riklarida ishtirok etish.
115. Xorda ashula aytish yoki musiqa to'garaklarida qatnashish.
116. Sport seksiyalarining birida shug'ullanish.
117. Biologiya fani bo'yicha olimpiadalarida qatnashish yoki o'simliklar va hayvonlar ko'rgazmasini tayyorlash.
118. Geografik ekspeditsiyada qatnashish.
119. Geologik ekspeditsiyada ishtirok etish.
120. Kasallarning ahvolini kuzatish, g'amxo'rlik qilish, birinchi yordam berish.
121. Oshpazlik va qandolatchilik ko'rgazmalariga qatnashish yoki borish.
122. Fizika fanidan olimpiadalarida qatnashish.
123. Kimyo fanidan qiyin masalalar yechish, olimpiadalarda qatnashish.
124. Texnik sxema va chizmalarni tahlil qilish, ularni mustaqil ravishda tuzish.
125. Murakkab radiosxemalarni tahlil qilish.
126. Ishlab chiqarish korxonalariga ekskursiyaga borish, uskuna va dastgohlarning yangi turlari bilan tanishish, ta'mirlash ishlarini kuzatish.
127. O'z qo'li bilan yog'ochdan biror narsa yasash.
128. Qurilish ishlarida imkon darajada yordamlashish.
129. Avtomobil, trolleybuslarga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash ishlarida baholi qudrat qatnashish.
130. Har qanday ob-havo sharoitida ham «tez yordam» samolyotida uchish yoki katta tezlik bilan uchuvchi samolyotlarni boshqarish.

131. Qat'iy o'rnatilgan tartib bo'yicha yashash, kun tartibiga qat'iy rioya qilish.
132. Tarix to'garagida shug'ullanish, tarixiy ma'lumotlarni to'plash, ma'ruzalar qilish.
133. Adabiyot manbaalari bilan ishlash, olgan taassurotlarni kundalikka yozib borish.
134. Munozaralarda va kitobxonlar konferensiyalarida qatnashish.
135. O'quvchilar jamoatchiligi yig'ilishi yoki majlislarini tayyorlash va o'tkazish.
136. Tarbiyasi yomon bolalarga ta'sir ko'rsatish, bolalar va o'smirlar tarbiyasi masalalari haqida kattalar bilan muhokama qilish.
137. Militsiya ishiga yordam berish, «Militsiyaning yosh do'sti» to'garagiga a'zo bo'lish.
138. Doim har xil odamlar bilan muloqotda, aloqada bo'lish.
139. Matematika fanidan olimpiadalarda qatnashish.
140. Tovarlar va ular narxining kelib chiqishini bilish, oylik maosh, mehnatni tashkillashtirishni tushunishga harakat qilish.
141. Do'stlar bilan chet tilida gaplashish.
142. Tasviriy san'at ko'rgazmalarida qatnashish.
143. Teatr to'garagiga borish.
144. Teatr ko'rik-tanlovlariga qatnashish.
145. Sport musobaqalarida ishtirok etish.
146. Bog'da yoki uyda o'simliklarni o'stirish, uy hayvonlari boqish.
147. Joylarni xaritaviy (topografik) ko'rinishda suratlarini chizish.
148. Berilgan dastur bo'yicha murakkab va jiddiy topshiriqlarni bajarishga to'g'ri keladigan qiyin va uzoq muddatli sayohatlarga borish.
149. Shifoxona, poliklinika yoki dorixonada ishlash.
150. Oziq-ovqat yoki engil sanoat korxonasida mutaxassis bo'lib ishlash (tikuvchi, bichuvchi, qandolatchi).

151. Fizikadan qiyin masalalar yechish.
152. Kimyoviy ishlab chiqarish korxonasida ishlash.
153. Texnik ijodiyot ko'rgazmasida ishtirok etish.
154. Elektroenergetika yoki radioelektronika sohasida ishlash.
155. Dastgoh (stanok)da ishlash, har xil detallar, buyumlar tayyorlash.
156. Chizmalar asosida modellar yasash, yog'ochsozlik ishlarini bajarish.
157. Qurilish brigadasida ishlash.
158. Yo'lovchi yoki yuklarini tashish, yo'l harakati qoidalariga qat'iy rioya qilish.
159. Bo'ronli ob-havoda daryo yoki ochiq dengizda ishlash.
160. Xarbiy injener yoki qo'mondon bo'lish.
161. Ona diyorning tarixiy obidalarini borib ko'rish.
162. Hikoyalar yozish, she'r va masal tuzish.
163. Devoriy gazeta yoki davriy matbuot uchun maqola va ocherklar yozish.
164. Mehnat shanbaligida odamlarga boshchilik qilish.
165. Kichik bolalar uchun o'yinlar, bayramlar tashkil etish.
166. Yuridik tashkilotlarda ishlash (sud, prokuratura, advokatura, huquqiy maslahatxonalarda).
167. Odamlarga har xil katta va kichik xizmatlar ko'rsatish.
168. Har doim matematik bilimlar talab qiladigan ishlarni bajarish.
169. Xalq xo'jaligi korxonalarining iqtisodi, rejalashtirilishi va moliyaviy ta'minlanishi sohasida ishlash.
170. Chet tilidan olimpiada, tanlov va konferensiyalarda qatnashish.
171. Tasviriy san'at ko'rgazmalarida ishtirok etish.
172. Sahnada yoki kinoda o'ynash.
173. Musiqachi, musiqiy rejissyor yoki musiqa darsidan o'qituvchi bo'lish.
174. Jismoniy tarbiya o'qituvchisi yoki treneri bo'lish.

## JAVOB VARAQASI

Familiyasi, ismi \_\_\_\_\_ Maktab \_\_\_\_\_ Sinf \_\_\_\_\_

1	30	59	88	117	146
2	31	60	89	118	147
3	32	61	90	119	148
4	33	62	91	120	149
5	34	63	92	121	150
6	35	64	93	122	151
7	36	65	94	123	152
8	37	66	95	124	153
9	38	67	96	125	154
10	39	68	97	126	155
11	40	69	98	127	156
12	41	70	99	128	157
13	42	71	100	129	158
14	43	72	101	130	159
15	44	73	102	131	160
16	45	74	103	132	161
17	46	75	104	133	162
18	47	76	105	134	163
19	48	77	106	135	164
20	49	78	107	136	165
21	50	79	108	137	166
22	51	80	109	138	167
23	52	81	110	139	168
24	53	82	111	140	169
25	54	83	112	141	170
26	55	84	113	142	171
27	56	85	114	143	172
28	57	86	115	144	173
29	58	87	116	145	174

## 5.4. Kasbiy motivatsiyani aniqlash metodikasi

Kasbiy motivatsiya (moyillik) kasb tanlashga sabab bo'ladigan aniq rag'batlantiruvchi harakatdir.

Kasb egallash istagi o'quvchilarda atrof-muhit omillari va maktabda o'tkaziladigan kasb-hunarga yo'naltiruvchi ishlar orqali shakllanadi. Kasbiy motivatsiya o'zgaruvchan uning shakllanishi uzluksiz jarayon bo'lib, obyektiv va sub'yektiv omillar ta'sirida boradi. Shuning natijasida kasbiy motivatsiyani ilk bosqichlarida aniqlash zarurat bo'lsa, ularni to'g'rilash maqsadga muvofiqdir. Kasbiy motivatsiyani guruhlarda va alohida o'rganish mumkin.

O'smirlarga javoblar uchun qog'oz tarqatiladi, qo'llanma o'qiladi, tasdiq gaplardan iborat har bittasi 3 ta har xil ma'noli gap bilan tugallangan savolnoma beriladi. 3 ta variant javobdan faqat bitta to'g'ri kelgan javobni topib javoblar varag'iga belgilash lozim. Diqqat qiling, har bitta tasdiq uchun 1 ta javob belgilangan bo'lishi kerak.

Javob berganingizda, yodingizda bo'lsin, aniq javobdan ko'ra ballarning jami muhimroq.

### SAVOLNOMA

- a) menga mehnatim zoe ketmaydigan ishni qilish yoqadi.
  - b) menga oldimga qo'yilgan maqsadlarimga erishish uchun yangi bilim olish yoqadi;
  - d) menga hamma ishlarni iloji boricha yaxshi bajarish yoqadi, chunki bu hayotimda asqotadi.
- a) o'ylaymanki, berilgan topshiriqlarni iloji boricha yaxshi bajarish kerak, chunki bu hayotimda asqotadi;
  - b) o'ylaymanki, qilgan ishlaring bilan atrofdagilarga yaxshilik keltirish kerak, chunki ulardan ham shu qaytadi;
  - d) qanday qilib bo'lsa ham, qo'yilgan maqsadlarga erishish lozim deb o'ylayman.
- a) kelajak hayotim ychun yangi bilim olishni yaxshi ko'raman;

- b) har qanday ishni ko'ngildagidek bajarishni yaxshi ko'raman, agarda uni birontasi baholasa;
- d) har qanday ishni, yaxshilab qilishni yoqtiraman, chunki bundan atrofdegilar xursand bo'ladi.
4. a) jamiyatga koproq foydam tegishini xohlayman;
- b) hayotda hamma narsada kuch sinab ko'rish kerak, deb hisoblayman;
- d) hayotda muhimi — doim yangi bilimlarga intilish, deb hisoblayman.
5. a) har qanday ishni men yaxshi bajara olganday his qilsam ko'nglim ko'tariladi;
- b) mening mehnatim atrofdegilarga foyda keltirsa, ko'ngli ko'tariladi, chunki bu har qanday ishda muhim;
- d) ishlash doim yoqimli bo'lganligi uchun, har qanday ishni bajarishdan ko'nglim ko'tariladi.
6. a) yangi bilim olish jarayoni meni jalb etadi;
- b) qo'limdan kelgan barcha ishni bajarishni yoqtiraman;
- d) atrofdegilarga foyda keltiradigan ish jarayoni meni jalb etadi.
7. a) har qanday muhim va mas'ul ish qiziqarli bo'lishiga ishonchim komil;
- b) har qanday ish qiziqarli bo'lishiga ishonchim komil, agarda u menga foyda keltiradigan bo'lsa;
- d) har qanday ish qiziqarli bo'lishiga ishonchim komil, agar uni ustalik bilan bajara olsam.
8. a) menga o'z ishimning ustasi bo'lish yoqadi;
- b) menga biror ishni kattalarning yordamisiz bajarish yoqadi;
- d) menga doim yangi narsa o'rganish yoqadi.
9. a) o'qish menga qiziqarli;
- b) atrofdegilarga seziladigan ishlarni qilish menga qiziqarli;
- d) menga mehnat qilish qiziqarli.
10. a) o'ylaymanki, bajargan ishlarimning natijasini atrofdegilar bilsa, yaxshi bo'lardi;

- b) o'ylaymanki, har qanday ishda muhimi natijadir;
- d) o'ylaymanki, xohlagan ishlarni mustaqil qilish uchun tezroq kerakli bilimlarni olish lozim.
11. a) men faqat o'zimga yoqadigan ishlar bilan shug'ullanishni xohlar edim;
- b) men har qanday ishni qo'limdan kelganicha yaxshi bajarishni xohlayman, chunki shundan huzurlanaman;
- d) mening ishim atrofdagilarga foyda keltirishini xohlayman, chunki bu mening kelajak hayotimda yordam beradi.
12. a) ko'pchilikning qo'lidan kelmaydigan ishni qoyilmaqom qilib qo'yish men uchun qiziqarli;
- b) avval qilolmaydigan ishimni o'rganish men uchun qiziqarli;
- d) o'ziga diqqatni jalb etadigan ishlarni bajarish men uchun qiziqarli.
13. a) men hamma qadrlaydigan ishni bajarishni yaxshi ko'raman;
- b) menga halaqit berishmasa, barcha ishlarni bajarishni yaxshi ko'raman;
- d) qiladigan ishim borligidan baxtiyorman.
14. a) men turli ishlarni bajarishni xohlayman, chunki menga natijalari qiziqarli;
- b) men foyda keltiradigan ishni bajarishni xohlayman;
- d) menga yoqadigan ishni bajarishni xohlayman.
15. a) har qanday ishda eng qizig'i uning bajarilish jarayoni deb hisoblayman;
- b) har qanday ishda eng qizig'i uning natijasi deb hisoblayman;
- d) har qanday ishda eng qizig'i, boshqa odamlarga uning qanchalik muhimligi deb hisoblayman.
16. a) menga kelajakda kerak bo'ladigan barcha narsalarni o'rganish yoqadi;
- b) menga hayotimda kerak bo'ladigan har qanday yangi bilimlarni egallash yoqadi;
- d) menga o'qish jarayonining o'zi yoqadi.



17. a) meni o'qishdan so'ng ochiladigan manzara qiziq-tiradi;  
 b) meni o'qishdan so'ng kerakli odam bo'lishim qiziqtiradi;  
 d) o'qishning foydali ekanligi meni qiziqtiradi.
18. a) o'rgangan narsam menga doim kerak bo'lishiga ishonchim komil;  
 b) o'qish menga doim yoqishiga ishonchim komil;  
 d) o'qishdan so'ng kerakli odam bo'lishimga ishonchim komil.
19. a) ishimning natijasi atrofdagilarga ko'rinishi menga yoqadi;  
 b) o'z ishimni ustalik bilan bajarish menga yoqadi;  
 d) o'z ishimni boshqalar bajara olmaydigan darajada yaxshi bajarish menga yoqadi.
20. a) topshirilgan vazifani sifatli bajarish men uchun qiziqarlidir;  
 b) atrofdagilar sezadigan ishni bajarish men uchun qiziqarlidir;  
 d) ishxonada nima bilan bandligimni hamma bilishi men uchun qiziqarlidir.

### **Natijalar tahlili**

Kasbiy faoliyat motivlari orasidan 4 asosiy guruhni ajratsa bo'ladi:

1. O'z mehnatining motivlari, odam uchun mehnat jarayonining muhimligini bildiradi.

2. Mehnatining ijtimoiy ahamiyati motivlari jamiyat tomonidan talab qilinayotgan kasbni tanlashga bog'liqligi haqida guvohlik qiladi.

3. O'zini shaxs sifatida tasdiqlash, kasbni tanlashda o'zining qobiliyatini mehnatda amalga oshirish imkoniyatini ko'rsatadi.

4. Kasbiy mohirlik motivlari mehnatda yaxshiroq natijaga erishishni ko'rsatadi.

Javob varaqasini to'ldirgandan so'ng har bir ustunchalardagi doirachalar yig'indisi hisoblanadi. Avval har bir 4 ta guruhlarining absolut ballar yig'indisi topiladi. Buning uchun

har bir ustunlarning alohida yig'indisi topiladi: 1.1, 1.2, 1.3, 1a, 1.5, 1.6, 2.1, 2b va hokazo.

Biroq, turli xil motivlar guruhida miqdorlar bir xilda ajratilmaydi. Ularni ballarning absolyut yig'indisini solishtirish uchun 1 va 2 guruhni ikkiga; 3 va 4 ni uchga ko'paytirish lozim.

Topilgan yig'indi bir xil ballar "og'irligiga" ega bo'lib, bir-biri bilan solishtirishi mumkin. Ballarning eng katta miqdori dominant (ustun keluvchi) motivga mosdir.

### JADVAL VARAQASI

Familiyasi, ismi \_\_\_\_\_  
 Maktab № \_\_\_\_\_ Sinf \_\_\_\_\_ O'tkazilgan sana \_\_\_\_\_

1.1 1 a 2 a 13 a	1.2 4 b 5 d 13 b	1.3 9 d 13 d 15 d	1.4 10 b 14 a 15 b	1.5 7 a 14 b 15 d	1.b 8 b 11a 14d
2.1 1 b 3 a 16 a	2.2 4 b 6 a 16 b	2.3 9 a 16 d 18 a	2.4 10 d 12 b 17 a	2.5 7 b 17 b 18 b	2.6 8 b 17 b 18 b
3.1	3.2	3.3	3.4		
11 d 2 d 3 b	5 a 6 b 11 b	7 d 12 a 19 b	8 a 19 d 20 a		
4.1 2 b 3 d 1 d	4.2 4 a 5 b 6 d	4.3 9 b 12 d 20 d	4.4 10 a 19 a 20 b		

## 5.5. Differensial diagnostik so'rovnoma

Bu metodika yordamida sinaluvchiga faoliyatning u yoki bu turidan qaysi biri unga ko'proq ma'qul ko'rishligi va shunga mos ravishda qaysi kasbga moyilligi aniqlanadi. Atoqli psixolog

olim E.A. Klimov kasblarning besh asosiy turini farqlaydi (tabiat, texnika, odam, belgilar tizimi, badiiy obraz).

Ko'rsatma: «Faraz qilaylik tegishli ta'limni olganingizdan so'ng siz har qanday ishni bajara oladigan bo'lasiz. Agar sizga taklif qilingan ikki imkoniyatdan faqat birini (ulardan biri yoki ikkalasining ham sizga yoqishi yoki yoqmasligidan qat'iy nazar) tanlashingizga to'g'ri kelgundek bo'lsa, unda Siz qaysi birini ma'qul ko'rgan bo'lardingiz?»

O'z javoblaringizni, javoblar uchun berilgan varaqda, tegishli kataklarda qayd eting. Siz tanlagan javob variantingiz tartib raqami va harfini doira ichiga olib qo'yish bilan bildiring. Imkon qadar tezroq ishlashga va javoblaringizda samimiy bo'lishga harakat qiling».

### JAVOB VARAQASI:

O – Tt	O – Ta	O – O	O – Bt	O – Bo
1 a	1 b	2 a	2 b	3 a
3 b	4 a	4 b	5 a	5 b
6 a		6 b		7 a
	7 b	8 a		8 b
10 a	9 a		9 b	
11 a			10 b	
13 b	11 b	12 a	12 b	13 a
16 a	14 a	14 b	15 a	15 b
		16 b		17 a
20 a	17 b	18 a		18 b
	19 a		19 b	
			20 b	

## Savollar: men ma'qul ko'raman

1a. Hayvonlarga qarash (ularni boqish, parvarish qilish)	yoki	1b. Mashinalarga xizmat qilish
2a. Bemor kishilarga yordam berish, ularni davolash	yoki	2b. Jadvallar, sxemalar, hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish
3a. Kitob bezaklari, plakatlar, badiiy otkritkalar, sifatini kuzatib borish	yoki	3b. O'simliklar holatini, o'sishini kuzatish
4a. Materiallarni (yog'och, gazlama, metall, plasmassava h.k) qayta ishlash	yoki	4b. Mahsulotlarni (iste'molchilarga) yetkazish, peklama qilish, sotish
5a. Ilmiy-ommabop kitob, maqolalarni muhokama qilish	yoki	5b. Badiiy kitoblarni (yoki pyesa, konsertlarni) muhokama qilish
6a. Biron-bir zotli kichik hayvonni boqish, parvarish qilish	yoki	6b. O'rtoqlaringiz (yoki o'zingizdan kichik bolalarni) biron-bir faoliyat (mehnat, o'qish, sport)ni bajarish uchun shug'ullantirish
7a. Rasm, tasvirlardan nusxalar ko'chirish (yoki musiqa asboblarini sozlash, tuzatish)	yoki	7b. Biron-bir yuk tashuvchi (ko'taruvchi) vositalarni (kran, traktor, teplovoz va boshqa) boshqarish
8a. Odamlarga kerakli ma'lumotlarni berish, tushuntirish	yoki	8b. Ko'rgazmalarni, peshtaxtalarni bezashda (yoki pyesa, konsertlarni tayyorlashda) ishtirok etish
9a. Buyumlar, narsalar (kiyim, texnika)ni, uy-joyini ta'mirlash, tuzatish	yoki	9b. Jadvallar, tekstlar, rasmlardan xatolarini qidirib topish va tuzatish
10a. Hayvonlarni davolash	yoki	10b. Hisob-kitob ishlarini bajarish
11a. O'simliklarning yangi navlarini yaratish	yoki	11b. Sanoat mahsulotlari (mashinalar, kiyimlar, uy, oziq-ovqat mahsulotlari va h.k)ning yangi turlarini loyihalashtirish, yaratish
12a. Odamlar o'rtasidagi nizo, janjallarni hal qilish (ishontirish, tushuntirish, rag'batlantirish)	yoki	12b. Chizmalar, sxemalar, jadvallarni o'rganish (tekshirish, aniqlash, tartibga keltirish)

13a. Badiiy havaskorlik to'g'araklari ishlarini o'rganish, kuzatish	yoki	13b. Mikroblar hayotini o'rganish
14a. Tibbiyot asboblari yoki apparatlarini ishlatish, ularga xizmat qilish	yoki	14b. Odamlarga yaralangan, shikastlanganda, kuyganda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish
15a. Kuzatilayotgan voqealar yoki hodisalar, o'lcunayotgan ob'yektlar va boshqalar haqida aniq hisobotlar yozib borish	yoki	15b. Voqealar (kuzatilayotgan yoki ular haqida o'qigan)ni badiiy ifodalash
16a. Kasalxonada laboratoriya analizlarinin tahlil qilish	yoki	16b. Bemorlarni qabul qilish, ularni tekshirish, ular bilan suhbatlashish va ularni davolashga yo'llash
17a. Xona devorlarini yoki sirtini bo'yash, narsalar bilan bezash	yoki	17b. Binolarni ta'mirlash yoki mashina jihozlarini yig'ish
18a. Tengdoshlaringiz yoki kichik yoshdagi bolalarni teatr, muzeylarga, madaniy hordiq sayohatlarini, ekskursiyalarini tashkil etish	yoki	18b. Sahnada o'ynash, konsertlarda ishtirok etish
19.a. Chizmalar bo'yicha detallarni buyumlar (mashina, kiyimlar)ni tayyorlash, binolarni qurish	yoki	19b. Chizmachilik bilan shug'ullanish, chizmalar, kartalardan nusxalar ko'chirish
20a. O'simliklar kasalliklari va bog'-o'rmon zararkunandalariga qarshi kurashish	yoki	20b. Klavishli mashinalarda (kompyuter, teletayp va boshqalar)da ishlash

### **So'rov natijalarini qayta ishlash**

DDS savollari shunday tartibda guruhlanganki, ularga berilgan javoblar faoliyatning turli sohalarini farqlash imkonini beradi. Bu o'rinda kasb turlari shartli ravishda quyidagicha qisqartirib olindi:

1- ustunda — «Odam — tabiat» — O — Tt; 2- ustunda — "Odam — texnika" — O — Ta; 3- ustunda — «Odam —

odam» — O — O; 4- ustunda — «Odam — Belgilar tizimi» — O — Bt; 5- ustunda — «Odam — badiiy obraz» — O — Bo.

Sinov ishtirokchilariga yuqorida ko'rsatilgan javob varaqasi tarqatilib va ular ko'rsatmada ta'kidlaganidek, o'z javobini tegishli raqam va harfni doira ichiga olish bilan belgilab bo'lishganlaridan so'ng, javob varaqalari yig'ib olinib, ular tadqiqotchi tomonidan qayta ishlab chiqilishi yoki natijalarni qayta ishlashda sinov ishtirokchilarining o'zlaridan ham foydalanish mumkin. Bunda ularning o'zlari o'z javob varaqasidagi har bir ustun bo'yicha belgilangan javoblar miqdorini hisoblab chiqadilar.

Qaysi ustun bo'yicha belgilangan javoblar sonining ko'p bo'lishi qatnashchining shu toifa kasblarga moyilligini bildiradi. Agar hamma ustunlar bo'yicha javoblar miqdori bir xil bo'lib chiqsa, bu qiziqishlar yoyilib ketganligini, u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishning shakllanmaganligini yoki yorqin ifodalangan ustunlikning yo'qligini bildiradi. Bunday hollarda tadqiqotdan so'ng qatnashchi bilan bafurja suhbatlashish, unga qiziqishlarini aniqlab olishga yordam berish lozim.

## **5.6. Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari (KTQ) ni o'rganish usuli**

Shaxsning tashkilotchilik va kommunikativ qobiliyatlarini tashxis qilish usuli psixologik tashxisda va katta sinf o'quvchilariga kasbga maslahat berishda keng qo'llaniladi.

Tadqiqotni o'tkazish uchun KTQ savolnomani va varaqasini tayyorlash kerak. Tadqiqotni individual va guruhda o'tkazish mumkin.

Tekshiruvchilarga javob varaqalarini tarqatib bo'lgach, qo'llanmalarni o'qib berish kerak.

Quyida keltirilgan tasdiqlarni yaxshilab o'qib chiqing va bu tasdiqlarga rozi bo'lsangiz «+» belgisini, agar rozi bo'lmasangiz «-» belgisini qo'ying. Noaniq savolni suiste'mol qilmaslikka harakat qiling. Har bir detal ustida uzoq o'ylamasdan, aniq holatlarni ko'z oldingizga keltiring. Javob

uchun ko'p vaqt sarflamang, miyangizga kelgan birinchi tabiiy javobni bering.

Savollarni qoldirmasdan, tartibi bilan javob bering. To'g'ri va samimiy javob yozing. O'z javoblaringizni yaxshi tasavvur etishga harakat qilmang, ular haqiqiy bo'lishi lozim. Har bir savolga berilgan javob umuman ko'rib chiqilmaydi, bizni faqatgina umumiy ko'rsatgichlar qiziqtiradi.

### **KTQ savolnomasi**

1. Har doim muloqotda bo'lib turadigan do'stlaringiz ko'pmi?
2. Do'stlaringizni ko'pchiligini fikringizni qabul qilishga og'dirib olasizmi?
3. Do'stlaringizdan biri sizni ranjitsa, uzoq vaqt xafa bo'lib yurasizmi?
4. Hosil bo'lgan keskin vaziyatda har doim ham yo'l topishga qiynalasizmi?
5. Har xil kishilar bilan tanishishga sizda intilish bormi?
6. Jamoat ishlari bilan shug'ullanish sizga yoqadimi?
7. Sizga odamlar ichida bo'lishdan ko'ra kitob yoki boshqa ishlar bilan vaqt o'tkazish yoqadimi?
8. Ko'zlagan maqsadlaringizni amalga oshirishda to'siq bo'lsa, siz ulardan osongina chekinasizmi?
9. O'zingizdan katta yoshdagi kishilar bilan osongina muomalaga kirisha olasizmi?
10. Siz o'z do'stlaringiz bilan ko'ngil ochar o'yinlar o'ylab topishni yoqtirasizmi?
11. Sizga yangi davraga kirishib ketish qiyinmi?
12. Bugungi qilinadigan ishlarni boshqa kunlarga tez-tez qoldirib turasizmi?
13. Notanish odamlar bilan muomalaga kirishishga qiynalmaysizmi?
14. Do'stlaringiz sizning fikringiz bilan ish tutishlariga intilasizmi?
15. Sizga yangi jamoaga ko'nikish qiyin emasmi?
16. Do'stlaringiz o'z majburiyatlarini bajarishmasa, sizda ular bilan kelishmovchilik chiqmasligi rostmi?

17. Qulay vaziyat bo'lib qolsa, siz notanish kishilar bilan tanishishga va suhbatlashishga intilasizmi?

18. Muhim ishlarni bajarishda tashabbusni ko'pincha o'z qo'lingizga olasizmi?

19. Atrofdagi odamlar sizni bezovta qiladimi va siz yolg'iz bo'lishni istaysizmi?

20. Siz notanish sharoitda o'zingizni noqulay his qilishingiz rostmi?

21. Sizga har doim odamlar orasida bo'lish yoqadimi?

22. Boshlagan ishingizni bitira olmasangiz, bezovta bo'lasizmi?

23. Odamlar bilan tanishayotganda tashabbus ko'rsatish kerak bo'lsa, o'zingizda noqulaylik, hayajon, tortinishni his etasizmi?

24. Do'stlaringiz bilan tez-tez bo'lgan muloqotdan toliqasizmi?

25. Jamoa o'yinlarida ishtirok etishni yoqtirasizmi?

26. Do'stlaringizga tegishli bo'lgan muammolarni yechish uchun tez-tez o'z tashabbusingizni ko'rsata olasizmi?

27. Siz yaxshi tanimagan odamlar ichida o'zingizni erkin tuta olmasligingiz rostmi?

28. Siz o'z haqqoniyligingizni isbotlash uchun kamdan-kam intilishingiz rostmi?

29. Yaxshi tanimagan guruhga jonlanish kiritish, siz uchun uncha qiyin emas deb hisoblaysizmi?

30. Siz maktab jamoat ishlariga qatnashasizmi?

31. Siz o'z tanishlaringiz sonini bir necha odamlar bilan cheklashga intilasizmi?

32. Agar fikringizni do'stlaringiz birdaniga qabul qilmasa, siz uni himoya qilish uchun intilmasligingiz rostmi?

33. Begona guruhga tushib qolsangiz, o'zingizni erkin tutasizmi?

34. Siz har xil tadbirlar tashkil qilishga jon deb kirishasizmi?

35. Katta guruh oldida so'zlaganda o'zingizni dadil va bosiq tutmasligingiz rostmi?



36. Siz ishga doir uchrashuvlarga tez-tez kech qolib borasizmi?

37. Do'stlaringiz ko'pligi rostmi?

38. Do'stlaringiz ichida diqqat markazda bo'lishga intilasizmi?

39. Yaxshi tanimagan odamlar bilan muloqotda bo'lganda siz o'zingizni noqulay his qilasizmi?

40. Do'stlaringiz davrasida o'zingizni uncha dadil his qila olmasligingiz rostmi?

### **DESHIFRATOR**

#### **Kommunikativ qobiliyatlar**

1	+	11	+	21	+	31	+
3	-	13	-	23	-	33	-
5	+	15	+	25	+	35	+
7	-	17	-	27	-	37	-
9	+	19	+	29	+	39	+

### **DESHIFRATOR**

#### **Tashkilotchilik**

2	+	12	+	22	+	32	+
4	-	14	-	24	-	34	-
6	+	16	+	26	+	36	+
8	-	18	-	28	-	38	-
10	+	20	+	30	+	40	+

### **Natijalarni qayta ishlash**

1. Tekshiruvchilarning javoblarini deshifrator bilan solishtirib, kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarga to'g'ri kelganini hisoblab chiqing.

2. Kommunikativ (Kk) va tashkilotchilik (Kt) qobiliyatlarini baholash koeffitsientini quyidagi formula orqali hisoblab chiqing.

$$(Kk) = \text{to'g'ri kelgan javoblarning soni} \times 0,05$$

$$(Kt) = \text{to'g'ri kelgan javoblarning soni} \times 0,05$$

Masalan: tekshiruvchini kommunikativ qobiliyatlari deshifrator bilan to'g'ri kelgan javoblar soni 18, tashki-

lotchilik qobiliyatlari esa deshifratör bilan to'g'ri kelgan javoblar soni 15.

Demak, kommunikativ qobiliyatni baholash koeffitsienti ( $K_k$ ) =  $18 \times 0,05 = 0,90$ ; tashkilotchilik qobiliyatlarini baholash koeffitsienti esa ( $K_t$ ) =  $15 \times 0,05 = 0,75$

Shu metodika orqali olingan ko'rsatkichlar 0 — 1 orasida o'zgarishi mumkin. 1- ga yaqin ko'rsatkichlar kommunikativ yoki tashkilotchilik qobiliyatlarini yuqori darajasini bildiradi.

0- ga yaqin ko'rsatkichlar past darajasini bildiradi.

Ko'rsatkichlarni sifatli baholash uchun olingan koeffitsientlarni baholash bilan solishtirib chiqish kerak.

### Kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlarni baholash shkalasi

Kk	Kt	Baho	Qobiliyatning ifodalanish darajasi
0,10—0,45	0,20—0,55	1	Past
0,46—0,55	0,56—0,65	2	O'rtadan past
0,56—0,65	0,66—0,70	3	O'rtadan yuqori
0,66—0,75	0,71—0,80	4	Juda yuqori
0,76—1,00	0,81—1,00	5	

Natijalarni tahlil qilishda parametrlarni ko'zda tutish kerak:

1 baho olgan ishtirokchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari past darajasi bilan ta'riflanadi.

2 baho olgan ishtirokchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari o'rtadan past ta'riflanadi. Ular muloqotga intilishmaydi, ya'ni guruhda (jamoada) o'zlarini erkin tuta olmaydi, vaqtni yolg'iz o'tkazishni afzal ko'radi, o'zlarini tanishuvlarini chegaralab qo'yadi, odamlar bilan muloqot o'rnatishga va auditoriya oldida gapirishga qiynaladi, o'z fikrini himoya qila olmaydi, ko'p ishlarda mustaqil qaror qabul qilishda o'zlarini chetga tortishni afzal ko'radi.

3 baho olgan ishtirokchilar kommunikativ va tashkilotchilik

qobiliyatlari o'rtada darajalik deb hisoblanadi. Ular odamlar bilan muloqot o'rnatishga intiladi, o'zlarini tanishuvlarini chegaralamaydi, o'z fikrini himoya qila oladi, ishlarini rejalaydi, lekin qobiliyatlarini yuqori turg'unlik bilan ta'riflab rivojlantirish uchun katta va jiddiy tarbiyaviy ishlar olib borishi kerak.

4 baho olgan ishtirokchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari yuqori darajalik deb hisoblanadi. Ular yangi vaziyatlarda o'zini yo'qotmaydi, do'stlarni tez topadi, tanishuvlar darajasini har doim kengaytirishga intilishadi, jamoat ishlari bilan shug'ullanadi, yaqinlari va do'stlariga yordam beradi, jamoat tadbirlarini tashkil qilishga qatnashadi, og'ir vaziyatda mustaqil qarorlar qabul qila oladi. Aytib o'tilganlarni ular majburiy emas, o'z ichki intilishi bilan qilishadi.


5 baho olgan ishtirokchilar kommunikativ va tashkilotchilik qobiliyatlari juda ham yuqori darajali deb hisoblanadi. Ular muloqot va tashkiliy faoliyatga katta ehtiyoj his etishadi, shunga faol intilishadi, og'ir vaziyatlarda tez yo'l topa olishadi. Yangi jamoada o'zini erkin tutishadi, tashabbuskor, muhim ishda yoki murakkab vaziyatda mustaqil qaror qabul qilishni afzal ko'radi. O'z fikrini himoya qila olishadi, do'stlari ularning fikrlari bilan ish tutishlariga intiladi, notanish kompaniyaga jonlanish kirgiza olishadi, har xil o'yinlar tashkil qilishni yaxshi ko'rishadi. O'zlari kommunikativ va tashkilotchilik faoliyatlarini qoniqtiradigan ishlarni izlab yurishadi.

### JAVOB VARAQASI

Familiyasi, ismi \_\_\_\_\_  
Tashxis o'tkazilgan vaqti \_\_\_\_\_

1	2	3	4	5	6	7	8
9	10	11	12	13	14	15	16
17	18	19	20	21	22	23	24
25	26	27	28	29	30	31	32
33	34	35	36	37	38	39	40

## 5.7. Psixogeometrik test



Ko'rsatma: yuqorida ifodalangan beshta shaklga qarang. Siz «Bu — Men» deb ayta oladigan shaklingizni tanlab oling. Faqat hech qanday mantiqiy tahlil va nokerak aqliy harakatlar bilan shug'ullanmang. Bu hech narsaga olib kelmaydi. Faqat o'zingizning shaklingizni his qilishga harakat qiling. Agar juda qiynalayotgan bo'lsangiz, shakllar ifodalangan varaqni kuzatganingizda birinchi bo'lib sizning diqqatingizni jalb etgan shaklni tanlang. Bu shaklning nomini birinchi raqam bilan yozib qo'ying. Endi qolgan to'rtta shaklni ushbu tartibda o'zingizga ma'qulligi asosida o'rinlarga joylashtirib chiqing. Marhamat, uzoq o'ylamasdan bu ishni amalga oshiring.

Agar qiynalsangiz quyidagi usuldan foydalaning: tasavvur qilingki, qolgan 4 ta, keyin 3 ta, keyin 2 ta shakl orasidan o'zingizni tanlashingiz kerak. Biz tajribaning boshidanoq sizga beshta emas, balki to'rtta, uchta shakl taklif etishimiz ham mumkin edi-ku.

Oxirida qolgan, ya'ni nomini siz beshinchi raqam bilan belgilab qo'yadigan shakl, yaqqol sizniki bo'lmagan, ya'ni sizga to'g'ri kelmaydigan shakl bo'ladi.

Sizni tabriklaymiz. Ishning birinchi, eng og'ir bosqichi yakunlandi. Oldingizda sizning sub'yektiv intilishingiz aks etgan geometrik shakllarning tartibli qatori turibdi. Siz birinchi o'ringa qaysi shaklni qo'yganingizdan qat'iy nazar bu sizning asosiy shaklingiz, yoki sub'yektiv shaklingiz. Ayni shu sizning xarakteringizda va xulq-atvoringizdagi asosiy, ustun belgi va xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi. Qolgan to'rtta shakl esa sizning xulq-atvoringizdagi yetakchi ohangni bezab

turadigan o'ziga xos belgilovchilar. Ularning ta'sir kuchi tartib raqami ortib borishi bilan pasayib boradi. Agarda ikkinchi o'rinda turgan shaklning ayrim xarakteristikalarini siz o'z xulq-atvoringizda ko'rishingiz mumkin bo'lsa, oxirida, beshinchi o'rinda turgan shakl siz yaqqol o'zingizda bo'lmagan (o'zingizga yoqmay turgan) vaqtingizda namoyon bo'ladi. Oxiri shaklning boshqacha ahamiyati siz uchun muhimroq-u sizga o'zaro munosabatga kirishishingiz eng qiyin kechadigan odamning shaklini ko'rsatadi (ishonchimiz komilki, siz psixogeometrik test yordamida bu qiyinchilikni muvaffaqiyat bilan bartaraf etasiz). Keling, endi psixogeometrik tilni tushunish bilan shug'ullanamiz.

### **Shaxs asosiy shakllarining qisqacha psixologik tavsifi**

**Kvadrat.** Agar sizning asosiy shaklingiz Kvadrat bo'lsa, demak — siz hormas-tolmas mehnatkashsiz! Mehnatsevarlik, tirishqoqlik, boshlagan ishni oxiriga yetkazishga bo'lgan ehtiyoj, ishni tugallashga erishishga imkon beradigan qat'iyatlilik — bular haqiqiy Kvadratlarni mashhur qiladigan narsalardir. Chidamlilik va ishning ko'zini bilishlilik odatda Kvadratlarni o'z sohasida yuqori malakali mutaxassis bo'lishini ta'minlaydi. Kvadratlarda informatsiyaga nisbatan juda kuchli ehtiyoj mavjud, ular turli-tuman ma'lumotlarning kolleksionerlari hamdir. Chunonchi bu ma'lumot qayerda - miyadami yoki maxsus kartotekada saqlanishidan qat'iy nazar, u juda tartibli saqlanadi. Barcha ma'lumotlar sistemalashtirilgan, javonlarga ajratilgan. Kvadrat zarur informatsiyani shu zahotiy oq bera oladi. Shuning uchun ham Kvadratlarni haqli ravishda erudit (juda bo'lmaganda o'z sohasida) deb hisoblashadi.

Fikriy tahlil — Kvadratning eng kuchli tomonidir. Agar siz o'zingiz uchun to'g'ri chiziqli shakl bo'lmish Kvadratni qat'iy tanlagan bo'lsangiz, demak, shu narsa aniqki, siz «chap yarim sharli» fikrlovchilar, informatika tili bilan aytganda

informatsiyalarni: a — b — d — e va hokazo ketma-ketlikda qayta ishlovchilar toifasiga kirasiz. Kvadratlar natijani taxmin qilishdan ko‘ra ko‘proq «hisoblab» chiqaradilar. Ular fikrlash zanjirida birorta halqani ham o‘tkazib yubormaydilar, boshqalar bu narsani qilsalar, tushunishda qiynaladilar, buning natijasida diskomfort sezadilar. Kvadratlar mayda ikir-chikirlarga haddan tashqari e‘tiborlilar. Aynan Kvadratlar ko‘pincha boshqa shakl egalari bergan buyuk fikrlar, loyihalar va rejalarining barcha konkret detallarini ishlab chiqadilar.

Kvadratlar o‘zgarimas tartibni yaxshi ko‘radilar: har bir narsa o‘z joyida bo‘lishi va o‘z vaqtida amalga oshishi zarur. Haqiqiy Kvadrat «Stoldagi tartibsizlik — miyadagi tartibsizlikdir» degan maqolga chin dildan ishonadi. Kvadratning ideali — rejalashtirilgan, oldindan aytish mumkin bo‘lgan hayotdir, unga turli «syurprizlar» va voqealarning borishi odatining buzilishlari sira yoqmaydi. U doimo odamlarni va narsalarni o‘z atrofida «tartiblashtiradi» va tashkil etadi.

Ushbu barcha sifatlar shunga olib keladiki, Kvadratlar juda yaxshi administrator (ma‘mur) bo‘lishi mumkin (bo‘ladi ham), lekin afsus ulardan kamdan-kam yaxshi rahbar, menedjer chiqadi. Tabiiyki, Kvadratning yuqorida ko‘rsatilgan barcha ustunliklari undagi ojiz tomonlar bilan yonma-yon kechaverishi mumkin.

Saramjon-sarishtalik, tartib qoida va odatlarga rioya qilish haddan tashqari ortiqcha bo‘lib ketishi mumkin. Qachonki, qaror qabul qilish vaqti kelsa, ayniqsa, bu qaror tavakkalchilik bilan yoki o‘z obro‘sigga putur yetkazish bilan bog‘liq bo‘lsa, Kvadrat xohlab yoki xohlamay bu qarorni qabul qilish muddatini cho‘zaveradi. Bundan tashqari, ratsionallik, hissiy quruqlik va sovuqlik Kvadratga turli, ayniqsa, yoqmaydigan shaxslar bilan aloqaga kirishish qiyin kechadi. Bu narsa ham odamlarni boshqarishda muvaffaqiyatga yerishishga halaqit beradi. Kvadrat amorf, ya‘ni «chap qo‘l nima qilayotganini o‘ng qo‘l bilmaydigan» holatda samarasiz harakat qiladi. Ammo yaxshi tashkillashtirilgan, ijro muddatlari belgilangan,

ma'lumotlar va asbob uskunalaridan foydalanish aniq bo'lgan, aniq talablar shakllantirilgan va harakatning aniq ko'rsatmalari berilgan sharoitlarda Kvadrat qolgan barcha shakllardan ustun bo'ladi.

**Uchburchak.** Bu shakl liderlik belgisidir, ko'pchilik Uchburchaklar o'zlarining ushbu xususiyatlarini sezadilar: «Ular lider bo'lish uchun tug'ilganlar». Haqiqiy Uchburchakning eng xarakterli xususiyati — bosh maqsadga o'z diqqatini qarata olish qobiliyatidir. Uchburchaklar harakatchan, tutqich bermas, kuchli shaxslar bo'lib, ular aniq, maqsadlar qo'yadilar va odatda, ularga erishadilar.

Albatta, Uchburchaklar o'zlarining asosiy maqsadi nima ekanligini har doim biladilar, shuning uchun ham ular Kvadratlardan farq qilib — juda qat'iyatli odamlardir. Ular o'zlarining qarindoshlari — Kvadratlar singari, to'g'ri chiziqli shakllarga xos va yo'nalishiga ko'ra ham "chap yarim sharli" fikrlovchi, ya'ni sharoitni chuqur va tez tahlil qila oladigan toifaga kiradilar. Ammo, o'z diqqatini ikir-chikirlarga qaratuvchi Kvadratlarga qarama-qarshi o'laroq, Uchburchaklar asosiy narsaga, muammoning mazmuniga o'z diqqatini qaratadilar. Ulardagi kuchli foydaga yo'nalganlik ularning fikriy tahlilini yo'llab turadi va mazkur sharoitda muammo yechimining samarali (ko'pincha foydali) yo'lini topishga qaratadi. Bunday yo'nalganlik Uchburchaklarni eng yaxshi yechimni izlashda turli-tuman variantlarni berilib tahlil qilishdan asraydi. Bu narsa boshqalarda, o'ziga unchalik ishonch bo'lmagan kishilarda kuchli taassurot paydo qiladi va ular Uchburchakka ergashadilar.

Uchburchak — bu juda o'ziga ishongan, barcha narsada o'zi haq bo'lishni xohlovchi odam, odam narsada haq bo'lishga va sharoitni boshqarishga, faqat o'zi uchun emas, balki imkon darajasida boshqalar uchun ham qaror qabul qilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj Uchburchakni boshqalar bilan doimo raqobatlashuvchi, kurashuvchi shaxsга aylantirib qo'yadi. Uchburchak kirishgan har bir ishda yetakchi maqsad — bu g'alabaga (yutuqqa,

muvaffaqiyatga) bo'lgan harakatdir. U juda tez-tez tavakkal qiladi, qaror qabul qilishda ikkilanuvchi odamlarga nisbatan «chiday olmaydigan» xususiyatga ega.

Uchburchaklar nohaq bo'lib qolishni juda yoqtirmaydilar va o'z xatolarini juda qiyinchilik bilan tan oladilar. Aytish mumkinki, ular ko'pincha o'zlari ko'rishni xohlagan narsani ko'radilar, shuning uchun ham o'z qarorlarini o'zgartirishni yoqtirmaydilar, e'tirozlarini qabul qilmaydilar va ko'pchilik hollarda o'zlaricha ish tutadilar. Lekin ular o'zlarining pragmatik yo'nalishlariga mos keladigan, bosh maqsadga erishishga yordam beradigan narsalarga juda muvaffaqiyatli o'rganadilar, foydali ma'lumotlarni xuddi so'rg'ichdek o'ziga so'rib oladilar.

Uchburchaklar — izzat-nafsli odamlar. Agar Kvadrat uchun or-nomus ishi bajarilayotgan vazifani yuqori sifatiga erishish bo'lsa, Uchburchak esa yuqori mavqega erishishga, yuksak obro'-e'tibor qozonishga, boshqacha aytganda, karera qilishga intiladi (buni Uchburchakning salbiy sifati deb qaramaslik kerak). Biron-bir ishni boshlash yoki qaror qabul qilishdan oldin Uchburchak ongli yoki ongsiz holda o'z oldiga «Bundan nima foyda ko'raman?» degan savolni qo'yadi. Ishonavering: Uchburchak qanday qaror qabul qilmasin, bunda albatta Uchburchakning shaxsan o'zi uchun foyda (har doim ham moddiy emas) aks etgan bo'ladi. Uchburchaklardan boshqarishning eng «yuqori» darajasida turadigan zo'r menedjerlar chiqadi. Ular ayni «yuksaklikka» intiladilar. Bunda ularga yana bitta sifat — «siyosiy fitnachilik» malakasi yordam beradi. Ular o'zidan yuqori turgan rahbariyatga o'zining va qo'l ostidagilar ishining ahamiyatlilikini ustalik bilan yetkaza oladilar, foydali ishning hidini bir chaqirimdan sezadilar va bu narsa uchun kurashda o'z raqiblarini «bir-birlari bilan peshonasini urishtirib» qo'ya oladilar. Mana shu yerda «uchburchak» shaklining bosh salbiy sifatiga e'tibor berish kerak: bu o'ziga yo'naltirilgan kuchli egotsentrizm. Bu narsa shunga olib keladiki, Uchburchaklar hokimiyat tepasiga intilayotib axloqiy normalarni unchalik pisand qilmaydilar va o'z



maqsadi sari boshqalarning boshlarida yurib borishlari ham mumkin. Bu holat boshqalarda qoʻrquv va shunga asoslangan hurmat yuzaga keltirishi mumkin, lekin hech ham ularga nisbatan moyillik va muhabbat hosil qilmaydi. Shunday boʻlsa-da... qoʻrqmang! Bu «ashaddiy», yaʼni vaqtida boshqalar tomonidan toʻxtatilmagan Uchburchaklargagina xosdir. Umuman olganda, Uchburchaklar kelishgan, oʻziga jalb qiluvchi odamlar (shunday boʻlmasa kim ham ularga ergashar edi)dir.

**Toʻgʻri toʻrtburchak.** Toʻgʻri toʻrtburchaklar, sizlar uchun hozir oʻqiydigan narsangiz kutilmagan hodisa boʻlmasa kerak. Shundoq ham siz oʻzingiz toʻgʻringizda hamma narsani bilasiz.

Gap shundaki, Toʻgʻri toʻrtburchak oʻtish va oʻzgarish holatini aks ettiradi. Bu, aytish mumkinki, shaxsning vaqtinchalik shakli boʻlib, qolgan toʻrtta nisbatan turgʻun shakllar hayotning maʼlum bir davrida bu shaklni oʻziga «kiyib» yurishi mumkin. Bular hozirgi kunda oʻzlari kechirayotgan hayot tarzidan qoniqmayotgan, shuning uchun ham yaxshi holatni izlash bilan band boʻlgan odamlardir. Balki, sizlardan kimdir yaqindagina kasbiy statusi oʻzgarishini boshidan kechirgandir (moslashuv talab qiladigan holatlar: yangi ishga oʻtish, lavozimda koʻtarilishi yoki pasayishi): kimdir shunaqa oʻzgarishlarni oldindan koʻrayotgan, sezayotgan boʻlishi mumkin. Kimningdir shaxsiy hayotida oʻzgarishlar boʻlgandir. Umuman, Toʻgʻri toʻrtburchak holatining sabablari turli-tuman boʻlishi mumkin, lekin ularni bir narsa birlashtiradi — oʻzgarishlarning maʼlum odam uchun ahamiyatligi.

Toʻgʻri toʻrtburchakning asosiy psixik holati muam-molardagi chalkashlik va ayni shu paytda oʻziga nisbatan noaniqlikdir. Bu bilan parallel ravishda unda ichki qoʻzgʻalish oshib boradi va bu uning xulq-atvorida aks etmasdan qolmaydi.

Toʻgʻri toʻrtburchakning eng xarakterli belgilari — oʻtish davri davomida xatti-harakatlardagi izchillikning yoʻqligi va ularni oldindan bilish qiyinligidir. Siz, Toʻgʻri toʻrtburchaklar, kundan-kunga, hatto bir kunning ichida ham kuchli

o'zgarishlaringiz mumkin. Bu tabiiy hol, chunki To'g'ri to'rtburchaklarning beradigan bahosi past bo'ladi, nimadadir yaxshiroq bo'lishga intiladilar, yangi ish usullarini, hayot uslublarini izlaydilar. Agar To'g'ri to'rtburchakning xulq-atvoriga diqqat bilan razm solinsa, butun davr davomida uning goh «uchburchak», goh «aylana» va hokazo shakllarning kiyimini o'ziga kiyib ko'rganligini payqash mumkin. To'g'ri to'rtburchakning xulq-atvoridagi birdaniga, kutilmaganda va oldindan bilib bo'lmaydigan darajada o'zgarib turishi odatda boshqa odamlarni uyaltiradi va xavfsiratadi, ular ongli ravishda «o'zagi yo'q odam» bilan muloqotdan qochishlari mumkin. Tushunarli, kim ham, ahmoqona holatga tushib qolishni istaydi. To'g'ri to'rtburchaklarga boshqa odamlar bilan muloqotga kirishish juda zarur, o'tish davrining yana bitta murakkabligi shundan iborat.

Shunday bo'lsa-da, boshqa odamlardagi singari To'g'ri to'rtburchaklarda ham atrofdagilarni o'ziga jalb qiluvchi ijobiy fazilatlarni ko'rish mumkin. Bu eng avvalo — qiziquvchanlik, sinchkovlik, bo'layotgan barcha hodisalarga jonli qiziquvchanlik va botirlik. To'g'ri to'rtburchaklar oldinlari hech qachon qilmagan ishlarni qilishga intiladilar, oldin so'rashga yuragi betlamagan narsalarni so'raydilar. Mazkur davrda yangi g'oyalar, tafakkur va hayot uslublari uchun ochiqdirlar, barcha yangilikni osonlikcha o'zlashtiradilar. To'g'ri, bularning orqa tomoni — haddan tashqari ishonish, ishonuvchanlik, soddalikning mavjudligidir. Shuning uchun ham To'g'ri to'rtburchaklardan osonlikcha foydalanish mumkin, ahloq qoidalarini unchalik pisand qilmaydigan odamlar albatta bundan foydalanadilar. Agar siz haqiqatdan ham «To'g'ri to'rtburchak» shaklini olgan bo'lsangiz, ehtiyot bo'ling! Shuni bilingki, «To'g'ri to'rtburchaklik» — bu bir bosqich xolos. U albatta o'tadi va siz bu davrda o'zlashtirilgan tajriba bilan boyib, shaxs rivojining yangi bosqichiga chiqasiz.

**Aylana.** Geometrik jihatdan Aylana — bu garmoniyaning afsonaviy simvolidir. Ishonch bilan o'zining asosiy shakli sifatida Aylanani tanlagan odam eng avvalo yaxshi shaxslararo

munosabatlar tarafdoridir. Aylana uchun eng yuksak qiymat — odamlar, ularning baxti. Aylana beshta shakl orasida eng ochiq ko‘ngilidir. U ko‘pincha ish jamoasini ham, oilani ham mustahkamlab turuvchi «elim» vazifasini bajaradi, ya’ni guruhni muvofiqlashtiradi.

Aylana beshta shakl orasidagi eng yaxshi kommunikatorlardir, chunki ular eng yaxshi tinglovchilar hamdir (Uchburchaklar ham yaxshi kommunikatorlar, lekin ular boshqalardan ko‘ra o‘zlarini ko‘proq tinglaydilar). Ular yuqori sezgirlikka egalar, rivojlangan empatiyaga hamdard bo‘la olish, boshqa odamlarning kechinmalariga hissiy sherik bo‘la olish qobiliyatiga egalar. Aylana boshqalarning quvonchini, qayg‘usini o‘zinkidek his qiladi. Tabiiyki, odamlar Aylanaga intiladilar. Aytish kerakki, Aylanalar odamlarni juda yaxshi «o‘qib oladilar» va bir daqiqadayoq mug‘ombirlarni, aldoqchilarni bilib oladilar.

Aylanalar o‘z jamoasi (o‘z komandasi) uchun kura-shadilar va hamkasabalari orasida yuqori mavqega ega bo‘ladilar. Ammo ular, odatda, biznes sohasida kuchli menedjer va rahbar bo‘la olmaydilar.

Birinchidan, Aylanalar ishdan ko‘ra ko‘prok, odamlarga yo‘nalganliklari uchun har bir odamga yoqishga juda harakat qiladilar. Ular tinchlikni saqlashga harakat qiladilar va shuning uchun ham ba’zida «qattiq» pozitsiyani egallashdan hamda hammaga ham ma’qul kelavermaydigan qarorlarni qabul qilishdan qochadilar. Aylana uchun shaxslararo nizoga kirishdan ham og‘ir narsa yo‘q. Hamma odam bir-birlari bilan kelishib yursa, Aylana baxtli bo‘ladi. Shuning uchun ham Aylana kim bilandir nizoga kirishsa, aynan Aylana birinchi bo‘lib yon berishi ehtimoli kuchli. Boshqalar bilan yarashish — xulq-atvorning tipik «aylanaviy» belgisidir. Bu belgi boshqalarga xursandchilik keltirsa, Aylanani esa o‘z hamkasblari orasida taniqli qilsa-da, haddan ziyod yon berishlar Aylananing o‘ziga bo‘lgan hurmatining yo‘qolishiga, o‘z-o‘zini ayblash hissining kuchayishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, Aylanalar qat'iyatlilik bilan ajralib turmaydilar. Agar ularga boshqaruv to'g'ri kelib qolsa, ular rahbarlikning yaqqol demokratik uslubini ustun qo'yadilar va har bir qarorni ko'pchilik bilan muhokama qilishga hamda ularning qo'llab-quvvatlashlariga tayanishga intiladilar. Ma'lumki, bu narsa har doim ham o'zini oqlamaydi: yaxshi imkoniyatni boy berish mumkin. Bundan tashqari Aylanalar «siyosiy o'yinlarda» o'zlarini va «o'z komandalarini» zarur tarzda ko'rsata olmaydilar. Bu hammasi shunga olib keladiki, ko'pincha Aylanalarni kuchli shaxslar masalan, Uchburchaklar o'ziga qaratib oladilar, Aylanalarning baxti shundaki, ular hokimiyat kimni qo'lida ekanligidan unchalik xavotir olmaydilar. Asosiysi, hammaning ko'ngli to'q bo'lsa va atrofda tinchlik hukm sursa bas.

Ammo bitta narsada Aylanalar havas qilgudek qattiqlik namoyon qiladilar. Agar masala axloq va haqiqatning buzilishiga borib taqalsa, Aylana odamlarning ehtirosli himoyachisiga aylanadi. Bunda Aylanalar, agar xohlasalar, juda ishonarli bo'lishlari mumkin. Odatga ko'ra ularning shaxslararo nizolarni a'lo darajada yechishlarida ulardagi alohida fikrlash shakli «aybdor».

Aylana — bu to'g'ri chiziq shakl. O'zini ishonch bilan Aylanaga taalluqli deb hisoblaganlar «o'ng yarim sharli» fikrlovchilarga xosdir. «O'ng yarim sharli» tafakkur — obrazliroq, emotsional tusli bo'lib, unda tahlil qiluvchanlikka nisbatan integrativlik ustundir. Shuning uchun ham Aylanada axborotni qayta ishlash Kvadratdagi (Uchburchakdagi) singari ketma-ketlikda bo'lmay, balki ko'prok mozaik, uzuq-yuluqroq, ayrim zvenolarni tushirib qoldiradigan (masalan a. - ..d..) shaklda bo'ladi. Bu Aylanalar mantiqni yoqtirmaydi, degani emas. Insoniy munosabatlar sohasida ular uchun asosiy narsa muammoning sub'yektiv omillariga e'tiborni qaratish, ya'ni hatto qarama-qarshi nuqtayi nazarlarda ham umumiylikni topishga intilishdir.

Aytish mumkinki, Aylana — tug‘ma psixolog. Ammo, katta jiddiy biznesni boshida turish uchun Aylanaga tashkilotchilik ko‘nikmalari yetishmaydi.

**Zigzag.** Bu shakl kreativlik, ijodkorlik simbolidir. Chunki beshta shakl ichida bu eng nodir va yakka-yu — yagona yopilmagan shakl. Agar siz asosiy shakl sifatida Zigzagni qattiq tanlab olgan bo‘lsangiz, siz haqiqiy «o‘ng yarim sharli» fikrlovchi, boshqacha fikrlovchisiz, chunki chiziqli shakllar o‘zlarining miqdori bilan sizdan ustunlikka ega. Kvadrat yoki Uchburchak ko‘pincha sizning belgingizga e‘tibor berishmaydi. Psixologning: «Bu shaklni qaerga joylashtirasiz?» — degan savoliga: «Bu ham shaklmi? Men buni kimdir chizib tashlagan narsa, deb o‘ylabman», degan javobni olish mumkin. Nihoyat, Zigzaglar orasida boshqalarga qaraganda ko‘prok chapaqaylar uchraydi. Bu ham ularning «o‘ng yarim sharli» ekanligidan dalolat. Shunday qilib, eng yaqin qarindoshingiz Aylana singari, sizga (faqat ko‘proq miqdorda) obrazlilik, intuitivlik, integrativlik, jimjimadorlik xos. Qat‘iy, izchil deduksiya — bu sizning uslubingiz emas. Zigzagning fikri juda kuchli: hatto A dan Ya gacha sakrashlar qiladi. Shuning uchun ham ko‘pchilik chiziqli, «chap yarim sharli» shakllar uchun Zigzagni tushunish qiyin. «O‘ng yarim sharli» tafakkur mayda bo‘lakchalarda to‘xtalmaydi: shuning uchun ham u dunyo aksini nimalardir hisobiga soddalashtirib, yaxlit garmonik konsepsiyalar va obrazlarni ko‘ra oladi, go‘zallikni ko‘ra oladi. Zigzaglar odatda rivojlangan estetik hisga ega bo‘ladilar.

Zigzag tafakkurida har doim — «Qanday bo‘lar ekan agar», «Qanday bo‘lar ekan agar bu va ana u fikrlarni birlashtirsak? Buning natijasida nimaga ega bo‘lamiz?» degan savol ustun bo‘ladi. Butunlay boshqa-boshqa, bir-biriga o‘xshamaydigan fikrlarni qo‘yish va shuning asosida yangi, original fikrni topish — mana Zigzaglarga eng yoqadigan narsa. Aylanadan farq qilib, Zigzaglar kelishuvchanlikni xush ko‘rishmaydi, aksincha — ularda fikrlar konfliktini keskinlashtirish va yangi konsepsiya tuzish orqali ushbu nizolar o‘z yechimini topadi. Ular o‘zlarining tabiiy aqli o‘tkirlikini ishlatib, juda

zaharxanda bo'lishlari, yangi yechimlar imkoniyatiga «boshqalarning ko'zini ochishlari» mumkin. Zigzaglar dunyoni doimiy o'zgaruvchan holda ko'rishga odatlanganlar. Shuning uchun ham ular uchun hech qachon o'zgarmaydigan narsalar: shablon, qoidalar va ko'rsatmalar, har doim ko'nadigan yoki o'zini ko'nayotgandek ko'rsatadigan odamlardan ham zerikarli narsa yo'q.

Zigzaglar yaxshi tashkillashtirilgan sharoitlarda samarali mehnat qila olmaydilar. Aniq vertikal va gorizontal aloqalar, qat'iy belgilangan vazifalar va ish uslublarining doimiyligi ularning g'ashiga tegadi. Ular uchun ish joyida katta rang-baranglik va rag'batlantirishning yuqori darajasi bo'lishi zarur. Ular shuningdek, o'z ishida boshqalarga tobe bo'lishni xohlamaydilar. Bunday holda Zigzag jonlanadi va o'zining asosiy vazifasini bajara boshlaydi — yangi fikrlar va ish uslublarini o'ylab topa boshlaydi. Zigzaglar hech qachon narsalar hosil qilishda hozir qilinayotgan yoki oldin qilingan uslublardan qoniqmaydilar. Hech narsa Zigzagni Kvadratning «Biz buni har doim shunday qilardik» deydiyan nasihatimiz gapichalik jahlini chiqarmaydi, Zigzaglar kelajakka intiladilar va borliqqa qaraganda imkoniyatga ko'proq qiziqadilar. Boshqalar uchun narsalar olami qanchalik real bo'lsa, ular uchun fikrlar, g'oyalar olami ham shunchalik real. O'z hayotining ancha qismini ular ushbu xayoliy dunyoda o'tkazadilar, shuning uchun ham ular amaliyotda no'noq noreal va ishonuvchanlar.

Zigzag beshta shakl orasida eng hayajonlanuvchani, eng qo'zg'aluvchanidir. O'zida yangi va qiziq fikr tug'lsa, uni butun dunyoga yoyishga tayyor. Zigzaglar — o'z fikrlarini charchamasdan tarqatuvchilaridir va o'z atrofidagi barchani bunga qiziqtirish qobiliyatiga egadirlar. Ammo ularga diplomatiya etishmaydi: ularda bosiqlik yo'q, «haqiqatni ko'ziga aytadilar», ulardagi g'alatilik bilan qo'shilgan holda bu xususiyatlar o'z g'oyalarini hayotga tatbiq etishga halaqit beradi. Bundan tashqari ular konkret detallarni ishlashda va boshlagan ishlarini oxiriga yetkazishda unchalik kuchli emaslar.

Lekin Zigzaglar juda jozibador odamlar bo'ladilar.

## MUNDARIJA

<b>I bob. Psixologik xizmat predmeti</b> .....	3
1.1. Psixologik xizmatning rivojlanish tarixi .....	3
1.2. Psixologik xizmat haqida Nizom .....	6
1.3. Psixolog maslahati .....	8
1.4. Psixologning rivojlantiruvchi va korreksion ishlari .....	12
1.5. Psixologning psixoprofilaktik ishlari .....	13
1.6. Psixologik xizmat mahsuldorligining sharoitlari .....	15
1.7. Psixologik — pedagogik konsilium .....	17
1.8. Psixologik xizmat tuzilishi va uni boshqarish .....	18
1.9. Psixolog ishining bolalar muassasalariga ko'ra xususiyatlari .....	23
1.10. Maktab psixologi ishining o'ziga xos tomonlari .....	29
1.11. Psixologning mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari bilan olib boradigan ishlari .....	33
<b>II bob. Amaliy psixolog — maktabda</b> .....	35
2.1. Maktabga qanday psixolog kerak? .....	35
2.2. Kasbga y'ol: maktab psixologining mahorati .....	40
2.3. Psixologik kasbda qanday qilib o'z o'rnini topish mumkin? .....	48
2.4. Psixologning huquqlari .....	57
2.5. Maktab psixologdan nimalarni kutadi? .....	64
2.6. Psixolog tanlovni amalga oshirishi .....	72
2.7. Maktab psixologi va reklama .....	76
<b>III bob. Maktabda psixologik ma'ruzalarni o'qish</b> .....	78
3.1. Maktabda ma'ruza psixologiyasi .....	78
3.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ota-onalarining qiziqishlari .....	81
3.3. Psixolog ma'ruzachining o'zini-o'zi boshqarish psixotexnikasi .....	82
3.4. Ma'ruza o'qishda psixologning roli .....	88
<b>IV bob. Psixologik — pedagogik trening</b> .....	91
4.1. Mashq va o'yin orasidagi kommunikativ va tarkibiy aloqalar .....	91

4.2. Guruhiy treningda sukunat .....	93
4.3. Psixologning o'z ishidan qoniqish darajasi .....	95
4.4. «O'qituvchi — maktab» sikli .....	96
4.5. «O'qituvchi — sinf» sikli .....	98
4.6. «O'qituvchi — o'quvchi» sikli .....	101
4.7. «Men — o'quvchi» sikli .....	104
4.8. «O'qituvchi — oila» sikli .....	106
4.9. O'rta va yuqori sinf o'qituvchilari uchun pedagogik trening .....	107
4.10. «O'qituvchi — sinf» sikli .....	109
4.11. «O'qituvchi — o'quvchi» sikli .....	111
4.12. «Men — o'qituvchi» sikli .....	113
<b>V bob. Maktab psixologi foydalanadigan asosiy metodikalar .....</b>	<b>114</b>
5.1. Psixologning yillik ish rejasi .....	114
5.2. Shaxs tiplari va ularga mos kasblarni aniqlash. Xolland metodikasi .....	118
5.3. Qiziqishlar xaritasi .....	122
5.4. Kasbiy motivatsiyani aniqlash metodikasi .....	133
5.5. Differensial — diagnostik so'rovnoma .....	137
5.6. Shaxsning kommunikativ va tashkilotchilik qobilyatlari (KTQ)ni o'rganish usuli .....	141
5.7. Psixometrik test .....	147



Nishanova Zamira Taskarayevna

## **PSIXOLOGIK XIZMAT**

*Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent — «Yangiyul poligraph service» — 2007

Muharrir *Sh.Hasanov*  
Rassom *T.Qanoatov*  
Texnik muharrir *J.Bekiyeva*  
Musahhah *N.Nurmatova*  
Sahifalovchi *H.Xodjayeva*

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 08.08.2007.  
Bichimi 60x90  $\frac{1}{16}$ . Kegli 11 shponli. «TimesTAD» garniturasida.  
Ofset bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 10,0.  
Nashr bosma tabog'i 9,5. Bosma tabog'i 10,0.  
Nusxasi 500. Buyurtma № 34.  
Bahosi shartnoma asosida.

«Yangiyul poligraph service» MCHJ bosmaxonasida bosildi.  
Yangiyo'l sh., Samarqand ko'chasi, 44.

# PSIXOLOGIK XIZMAT

ISBN 978-9943-309-16-6



9 789943 309166